

# IJTIMOIY PEDAGOGIKA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**ZUHRA SALIYEVA**

**IJTIMOIY PEDAGOGIKA  
(o'quv qo'llanma)**

**TOSHKENT – 2019**

**UDK: 801.202**

**BBK: 88.33 S-99**

## **ANNOTATSIYA**

Mazkur o'quv qo'llanmada ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi, rivojlanishi, O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishining madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari, xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi, O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi, o'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'lomitida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar, ijtimoiy pedagogikada "me'yor" va "me'yordan og'ish" tushunchasi, me'yordan og'ishish tiplari, ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari, kategoriyalari, ijtimoiylashuv omillari va vositalari, ta'lim muassasalarini va oilalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat masalalari yoritib berilgan.

O'quv qo'llanmadan pedagogka oliv ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, magistrant va talabalar foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:** p.f.d., prof. L.R. Muminova,  
p.f.n., dots. A.Sh. Muxsiyeva

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 9 fevraldaggi 113-sloni buyrug'iiga asosan 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'naliшining talabahari uchun tavsiya etilga.

"Ijtimoiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

**ISBN: 978-9943-5285-5-0**

© "Adabiyot uchuqunlari" nashriyoti  
© Zuhra Saliyeva

## **SO'Z BOSHI**

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur jarayon bilan bog'liqlikda barcha sohalarda, shu jumladan, ijtimoiy sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oila istututini mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uyushmagan yoshlar bilan ishslash, iqtidorli o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish, Mehribonlik uylarini bosqichma-bosqich noisitutSIONALLASHTIRISH, bolalar shaharchalari tarmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tashkiliy shart-sharoitlar esa, ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni va texnologiyasiga ham zaruriy o'zgartirishlar kiritib borishni talab etadi.

So'nggi yillarda axborot-kommunukatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi kata ijobjiy yutuqlar bilan birga, o'quvchilarda kompyuter o'yinlari, Internetga tobelik, turli axborot xurujlari ta'sirida yuzaga kelayotgan patogen (nosog'lom) fikrlashni yuzaga keltirmoqda. Patogen fikrlash esa o'z navbatida jismoniy (erta tartibsiz jinsiy aloqaga kirishish), psixologik (affektiv emotsiya, oriyentasiyaning o'zgarishi), pedagogik («ommaviy madaniyat»ga berilish, ma'naviyatsizlik, tarbiyasizlik) me'yordan og'ishishga olib kelmoqda. Me'yordan og'ishishning mazkur ko'rinishlarining integratsiyasi o'quvchilar orasida jinoyatchilik, bezorilik, o'z joniga qasd qilish (suitsid) kabi holatlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa, har bir pedagogning ijtimoiy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish, ularda ijtimoiy-pedagogik kompetentlilikni shakllantirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida alohida ijtimoiy guruhga (xatarli guruh) mansub bolalarni, shu bilan birga, ijtimoiy institutlarning ijtimoiy pedagogig faoliyati, ijtimoiy-pedagogik faoliyat metod va texnologiyalarini o'rganishni ko'zda tutadi. Mazkur o'quv qo'llanmada mazkur masalalar ilmiy tilda va kontseptual asoslarga tayanga holda yoritib berilgan.

# **1 MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1.-§. IJTIMOIY PEDAGOGIKAGA EHTIYOJ VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJINING ZARURIY SHARTLARI**

**Respublikamizda a'malga oshirilgan islohotlar  
va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri**

**2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi qanday ranglar orqali ramziy ifoda etilgan?**

2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi:

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chiqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloq qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tafbiq etish, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud

jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantrish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish

to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lif vazirligi tashkil etildi.

Uzluksiz ta'lif tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lif muassasalarini davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ulami malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lif muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lif-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ulami maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi.

Mehnat bozonning zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lif tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lif xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumi o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumi o'rta va o'rta maxsus ta'lif umumta'lif maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda; 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariга o'qishga qabul qilish umumta'lif maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyorilik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli

mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

### **Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi.**

#### **Fuqarolik jamiyatni deganda nimani tushunasiz?**

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab tizimidir. Ijtimoiy faoliyatning belgilangan ijtimoiy statusiga ega bo'lgan, o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettirgan, individual sifatlarga (shaxsnинг ijtimoiy belgisi, qizqishlari, qadriyatlar yo'nalishi, shaxs motivlari va hokazo) ega bo'lgan kishilar jamiyatning elementi hisoblanadi.

Jamiyat umumny tabiiy-tarixiy tizim sifatida o'zida ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, ideologik, siyosiy strukturalarining organik birligini tashkil etadi. Kishilarning turli ijtimoiy guruhlarning o'zaro birligi yoki jamiyat hayotining turli sohalaridagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy faoliyatları jamiyat tizimining tabiiy-tarixiy xarakterini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Jamiyat har bir sohasi ishlab chiqarish taraqqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy munosabatlar – moddiy ishlab chiqarish funksiyasini, ijtimoiy munosabatlar – ijtimoilashuvini (sotsializatsiya), siyosiy munosabatlar – ijtimoiy boshqaruvni (elementlar nazorati) mafkuraviy munosabatlar – ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasi va boshqalar.

Sotsiologik nazariya barcha ijtimoiy tizimlarni ijtimoiy va ijtimoiy munosabatlarda ko'radi. Ijtimoiy tizimlarga – jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ularning har biri bir-biri bilan aloqada bo'lgani aniq, bir strukturaga ega bo'ladi. Jamiyatning ijtimoiy tizimi ierarxik ko'rinishni tashkil etadi, ya'ni bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy munosabatlar uning ishlab chiqaruvchisi bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar o'z tarkibiga ko'ra quydagicha joylashtiriladi: 1) iqtisodiy; 2) ijtimoiy; 3) siyosiy, mafkuraviy.

Ijtimoiy tizimlarning bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi dialektik xarakterga ega edi. Shuning uchun aynan shu tizimda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, bazis va ustqurma, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong kabi falsafiy kategoriyalar ishlataladi. Siyosiy iqtisod nazariyasining asoschisi A. Smit jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishini quyidagicha ifodalagan edi: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsulidir, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ishlashga ham majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda aksincha o'zi uchun han ishlaydi». Biz sotsnologik nuqtai-nazardan jamiyat – bu birgalikda yashovchi kishilarning, o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo'lib, o'z faoliyatlarida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi uyushmasidir. Jamiyat tashkil topishi uchun eng kamida ikki kishi bo'lishi kerak va bular o'zaro hamkorlikda bo'lib turishlari kerak, bu jamiyatning oddiy ko'rinishi bo'lib, uning murakkab shakllalarini shakllantirib boradi, ya'ni oilaning qurilishi bu oddiy jamiyat, bu jamiyatda A. Smit ta'rifi bo'yicha jamiyat a'zosi ham o'zi uchun, ham o'zga bir kishilar uchun ishlaydi, murakkab jamiyatni shakllanishiga o'z oilasi bilan xissa qo'shamdi. Biz bu misollarni yana partiyalar tuzilishida, diniy yoki zamonaviy guruhlarning paydo bo'lishida ko'rib borishimiz mumkin, qaysidir bir dinning rivojlanishi natijasida dindorlar jamiyatni oddiylikdan murakkablik sari boradi, partiya tashkilotlari va guruqlar tuzilishida ham aynan shunday ijtimoiy tizim munosabatlarini ko'rib borishimiz mumkin.

Jamiyatning «ijtimoiylik» tizimi unsurlar uyushmasining sifatli munosabatlarini hodisalar va jarayonlarda aks ettiradi. «Ijtimoiylik» tizimining asosiy unsurlarini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi, ya'ni bular sinflar, millatlar, professional, demografik, xududiy va siyosiy guruhlardir. «Ijtimoiy» tizimining elementini kishilar tashkil etadi. Bunda har xil ijtimoiy jamoalar birlashgan kishilar bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladilar. Ushbu aloqadorlik jarayonida kishilar ma'lum bir individiga va ma'lum bir mehatga ta'sir o'tkazadilar.

Jamiyat tushunchasi va jamiyat to'g'risidagi fikrlar O. Kontning sotsiologik nazariyasida ham aks ettirilgan. O. Kont, D. Yum, A. Smit, Russo, Sen-Simonlarning jamiyat to'g'risidagi nazariyalarini rivojlantirdi. O. Kont sotsiologiyasida psixologiya,

siyosiy iqtisod, etika, falsafa tarixi fanlariniig tushuncha va metodologiyasi, sintezlashtiriladi. Jamiyat, oila, xalq, millat barcha insoniyatning axloqiy xissiyotlarini qamrab olgan axloqiy xissiyotning organik natijasi deyiladi. Jamiyat – o'zaro munosabatda bo'lgan «zarrachalar», «elementlar», «atomlar»ning avtomatik harakatda bo'lgan mexanizmi deb qaraladi. Individ xatti-harakatlari va qiziqishlarini O.Kont abstraksiya deb hisoblaydi. Ijtimoiylikning ajralmas unsuri sifatida inson emas, oilani olib, oila jamiyatning ijtimoiy organizmini birligini tashkil etadi, deydi. Bu yerda kishilarning o'zaro aloqadorligi («assotsiatsiya») emas, balki ajralmas birligi hukmronlik qiladi, deb o'z fikrlarini Kont davom ettiradi.

Jamiyat to'g'risidagi qarashlarini G.Spenser organistik (jamiyatni tabiatning organizmini analogi deb qarab, ijtimoiy hayotni biologik qonuniyatlarining belgisi sifatida qarash) ta'lilot nuqtai-nazaridan olib qaraydi. Jamiyatning taraqqiyoti biologiyaning yangi yutuqlari bilan shakllanib, rivojlanib boradi. Jamiyat a'zolari jamiyat farovonligi uchun emas, balki jamiyat jamiyat a'zolari farovonligi uchun xizmat qilishi kerak, deb Spenser individualizmi organsististik konsepsnisiyasiga yondoshadi, – insonni sotsiologiyaning eng asosiy muammosi sifatida olib qaraydi. Jamiyat tabiat fenomenining umumlashmasi sifatida, uning taraqqiyoti(evolyutsiya) differentials bo'laklar va funksiyalarning tabiiy jarayoni sifatida qaraladi. Individualizmning axloqiy-ijtimoiy muammosi yangi muammo bo'lib, differentialsallashgan jamiyatda individ ham ishtirok etadi, evolyutsiya unga tug'ulgan muammoni yechishga ruxsat etib turadi. XIX asrda «jamiyat» tushunchasi yangi ma'no bilan boyitiladi. Jamiyat taraqqiyotining mexanik strukturasi organik strukturasi bilan birgalikda olib qaraladi. Muammoni yechish yo'lini sotsiologlar jamiyatning ikki yo'naliшини tarixiy nuqtai nazardan o'rganib, ikki qarama-qarshi tendensiyani: an'anaviy va zamонавиy jamiyat turlarini bir-biri bilan solishtirib o'rGANADILAR. Bunday jamiyat yo'naliшини Tyonnis va Dyurkgeym «status» va «kontrakt» (shartnoma) dixotomik g'oyalarini ilgari surgan holda o'rganib chiqadilar. Unda gipotetik tabiat» ko'rinish va «ijtimoiy shartnoma» ko'inishining ratsional tomonlari aks ettiriladi. Tyonnis o'zining «jamoa» («gemaynshaft uyushmasi) va «jamiyat» dixotomiyasida organsististik metodologiya

muammolashtirgan. Uning konsepsiyasida individning umumiylikka yoki individlarning ichki umumiylikka munosabatlari to'g'risida fikr bormay, balki individlarning o'zaro munosabatining anglangan erkinliklarini bildiruvch'i ijtimoiy umumiylik to'g'risida so'z boradi. Erkinlik yoki «mohiyatan» yoki «saylangan» bo'lib, «mohiyat erkinligi» birligi (samost), «organizm va organik bo'laklarga xos» birlikni tashkil etadi, har bir bo'lak ushbu birlikni aks ettiradi va jamoa gemaynshaft uchun yashaydi. Aksincha, har bir ijtimoiy munosabatlar yuqori turuvchi, qaramog'ida ma'lum bir kuch va imkoniyatlarga ega bo'lgan sun'iy individni namoyon qilib, natijada jamiyat ijtimoiy umumiylik nuqtai nazardan fikr yuritadi». Jamiyatni 2 xil tushunish to'g'risidagi dihxotomiyada, ya'nii keng ma'noda «jamoa»ni jamiyat tarkibiga qo'shib va tor mahoda «jamoa»ni jamiyat tarkibidan chiqarib, Tyonnis turli xil ijtimoiy aloqa va ta'limalarni tahlil qildi. Tyonnis davlat tushunchasining jamiyat bilan o'zaro aloqadorlikda ko'radi, tarixiy taraqqiyot jarayonida barcha yirik rivojlangan davlatlar «birlik» tendensiyasi sari intilib boradi deb qaraydi. Bu bashoratni yoki oldindan ko'ra bilishni, har qalay hozirgi kunda Evropa iqlisodiy ittifoqni tuzish uchun rivojlangan davlatlarning o'zaro muzokaralar olib borib, ba'zi bir muvaffaqiyatlarga erishganini hisobga oladigan bo'lsak, bu nafaqat Tyonnisning, balki sotsiologiya fanining jamiyatni o'rganishdagi yutug'i, deb hisoblamoq mumkin.

Mana shu dixotomiyani Tyonnisdan keyin Dyurkgeym qo'llab-quvvatlab, uni rivojlantirdi. Agar Tyonnisi jamoani organizm bilan o'zaro mos kelmasligi qiziqtirib, jamiyatni tasavvur qilishda u ijtimoiy birlik dixotomiyasiga amal qilgan bo'lsa, Dyurkgeym ijtimoiy aloqaning organik va mexanik turlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi va jamiyatni bir qadar ijtimoiylikning tabiiy va organik turi deb e'lon qiladi. Dyurkgeym jamiyatdagи birlikni «tiniq axloqiy xodisa» deb talqin qilib, jamiyatning axloqiy mustahkamligini o'z tadqiqotlarining markaziga qo'yadi. Mexanistik va organistik birlikni farqlash uchun ikki xil xulosaga keladi:

- 1) guruhlarning barcha a'zolari ozmi yoki ko'pmi ma'noda e'tiqodlar va hissiyorlarning jamlanmasini tashkil etadi, natijada kollektiv turini hosil qiladi
- 2) jamiyat – bu turli xil maxsus funksiyalarining tizimidir.

Organik birlikning mexanik birlikdan farqi shundaki, u mehnat taqsimoti natijasida vujudga keladi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy birlikning oliv funksiyasi sifatida axloqiy funksiyalami vujudga keltiradi va «shaxs individualligini» vujudga kelishini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatları to‘g‘risida ko‘pgina sotsiologlar o‘z ta’limotlarini yaratganlar, jamiyat to‘g‘risidagi nazariyalarni boyitib, o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shtalar. Zimmel, Parsons, Lumin, Chikago maktabi namoyondalari shular jumlasidandir.

Sotsiologiyada jamiyatning quyidagi yo‘nalishlari mavjud: 1. Mexanistik. 2. Organistik. 3. Kulturologik.

1. Jamiyatning mexanistik yo‘nalishi XIX asrda vujudga keldi. Mexanistik yo‘nalishda klassik mexanika konsepsiysi, olamini mexanik talqin qilish, jamiyat rivojlanishi qonunlarini asosan fizik va mexanik qonuniyatlar asosida deb bilish bilan asoslanardi. Mexanitsizm tarafdarlari, masalan, T.Kem jamiyat strukturasini va undagi jarayonlarni noorganik olam bilan solishtirib, shuning asosida jamiyat qonunlarini yaratishga harakat qildilar. Tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida mexanitsizmda yangi «energetik va «termodinamik» degan terminlar paydo bo‘ldi. Mexanitsizm namoyondalari asosan aniqlikka rioya etishni o‘z vazifalari deb bilib, miqdor va statistik metodlarga suyanib jamiyat qonuniyatlarini belgiladilar. Namoyondalari V.F.Osgfald, Pareto, A.Barsela va boshqalar.

2. Jamiyatni organistik konsepsiysi XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kela boshlagan. Bu ta’limotga ko‘ra jamiyatni organizm bilan aynan bir narsa deb qarash tashkil etadi. Jamiyatni unsurlarning agregati deb qarab, organizm, nisbiy avtonomiyalardan iborat bo‘lgan va yagona to moyillarga asoslangan jamiyat dinamikasini yaratadi. Organitsistik jamiyat konsepsiyasining namoyondalari O.Kont, T. Spekser, Dyurkgeym va boshqalar ijtimoiy organizmni taraqqiyotining omili deb qaradilar.

3. Ijtimoiy axloq, normalari va qadriyatlarning tarixiy murakkablashishi natijasida ushbu ijtimoiy tizim madaniyatni vujudga keltiradi. Madaniy-ijtimoiytarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va yaratayotgan, hamda jamiyat,

taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy qimmatdorliklar majmui. Madaniyat tushunchasidan kelib chiqqan holda kulturologik jamiyatning vazifasi jamoaninqq maqsadli tuzilish darajasini qiyoslab, uning dinamikasini yaratish, «ijtimoiy» fakt ekanligini ko'rsatishdan iboratdir «Kulturologik» jamiyat har qanday ijtimoiy faoliyatga asoslangan maqsadli komplekslarning aspektiga diqqat bilan qaraydi. Kulturologik jamiyatning funksiyasi o'z aloqaloqadorlikni tizimli ravishda izohlab, sharhlab beradi. Kulturologik jamiyat to'g'risida M.Veber, Zimmel, F.Tenbruk V.Lipp, Y.Vays va boshqalar o'z sotsiologik qarashlari orqali fikrlar bildirganlar.

**Hozirgi vaqtida ijtimoiy pedagogika faniga zaruriyat va uning ahamiyati.**

**Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali samarali hal etish mumkinmi?**

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan islohotlar ta'lif tizimining tubdan yangilanishi hamda mazmunan boyishini ta'minladi. Jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda bir qator yangi o'quv fanlarini o'qitishning yo'lga qo'yilganligi esa shaxsni davr talablariga muvofiq tarbiyalab voyaga etkazish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, maishiy turmush sharoitining yaxshilanishi, qishloq va shahar hayotining bir-biriga yaqinlashuvi, inson tomonidan tabiatga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sir doirasining tobora kengayishi, axborot-aloha almashuvining takomillashuvi, shuningdek, kompyuter va murakkab texnikalar xizmatining ijtimoiy hayotning turli sohalarida ustuvor o'rın tutishi kishilik munosabatlarida ham ijobiy, ham salbiy holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda Nosog'lom turmush kechirish (spirtli ichimlikka va giyohvand moddalarga ro'ju qo'yish, tartibsiz jinsiy hayot), deviant xulqqa egalik, ijtimoiy mas'uliyatsizlik kabilarni salbiy holatlar sirasida keltirish mumkin.

Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish aholi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida keng ko'lamlı ijtimoiy faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiqdir

Shu o'rinda pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Ijtimoiy pedagogika" o'quv fanining har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdagi roli katta.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'limiylar islohotlar jarayonida malakali kadrlarni tayyorlashdek dolzarb masalaning ijobjiy echimga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Zero, malakali mutaxassislar, ularning intellektual va ijodiy salohiyati tufayli iqtisodiy o'zgarishlar jarayonining muhim talablari "korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalami keng joriy etish"da yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

O'tgan vaqt ichida jamiyatda ro'y bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar, qaror topgan yangi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida pedagogik tafakkur ham yangilandi. Buning natijasida pedagogik turkum fanlari mazmunan takomillashdi, yangi o'quv fanlarining o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Jumladan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogik texnologiya" va "Ijtimoiy pedagogika" kabi o'quv fanlarining o'qitilishi bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy qobiliyat hamda ijtimoiy faoliyk ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'limiylar islohotlarning yakuniy natijasi bo'lgan "... O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iyemoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash"da "Ijtimoiy-pedagogika" o'quv fani katta imkoniyatlarga ega.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini bayon eting.
2. «Harakatlar strategiyasi»da ijtimoiy sohani rivojlantirishning qanday ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan?
3. «Jamiyat» va «ijtimoiy hodisa» tushunchalariga izoh bering.
4. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishini bayon eting.
5. «Ijtimoiy pedagogika» fanini o'rganishning ahamiyatini tushuntirib bering.

## **1.2.-\$. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING PAYDO BO'LISHINING MADANIY-TARIXIY SHART-SHAROITLARI**

**Muruvvat va sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an'anasi  
sifatida**

### **«Muruvvat» va «sahovat» tushunchalari o'rtaida qanday farq mavjud?**

Jamiyatimiz ijtimoiy hayotida muruvvat va saxovatpeshalik muhim o'rin tutadi. Mazkur ijtimoiy qadriyatlar zamirida insoniylikni saqlash, o'z shaxsiy manfaatlariga berilmaslik, o'zgalar manfaatini hisobga olish, el-yurt, davlat va jamiyat muammolarini hal etishda faollik ko'rsatish, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit yaratish kabi yuksak tushunchalar o'z aksini topgan.

Muruvvat va saxovat Sharq xalqlari hayotida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. «Muruvvat» so'zi mardlik, odamgarchilik ma'nolarini ifoda etsa, «saxovat» esa saxiylik, qo'li ochiqlik ma'nolarini bildiradi. Saxovat tushunchasi o'zida quyidagi ma'nolarni ifoda etadi: 1) olighthimmatlilik, saxiylik; himmat qilish; yordam qo'lini uzatish; himmat bilan ehsonu in'omlar ulashish; 2) ko'chma ma'noda tabiiy boylik; mo'l hosil; to'kinlik, mo'l-ko'llik. Saxovatlilik insonga xos bo'lgan xususiyatlarning eng ollyjanobidir. Saxovatlilik sidqidildan qilingan yaxshilik bo'lib, u beminnatlilikning nishonasıdır. Muruvvat – insonparvarlik, biror kishiga qilingan xolisona insoniy yordam, yaxshilik, saxovat, lutf. Muruvvat saxovatli, mehr-muhabbatli, oqibatli insonlarning nafaqat o'z tashvishi bilan, balki o'zgalar tashvishi bilan yashashida, ulaming kimgadir moddiy va ma'naviy ko'maklashishi, xayru ehson qilish, ko'nglini ko'tarish singari insoniy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Bunday insonlar kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan muhtojlarga, nogironlarga, etimlarga moddiy yordam berish bilan birga, bu kabi ezgu amallarni bajarishni o'z insoniy burchi deb biladi. Muruvvat insondag'i eng yaxshi fazilatlar ifodasi, jo'mardlik belgisi bo'lib, u turli shakkarda namoyon bo'ladi: 1) g'arib va ojiz kishilarning ko'nglini ko'tarish; etim-esirlar, keksa va nogironlarning boshini silash, topgan boyligidan bir qismini nogironlarga ulashish va boshqalar. Demak, muruvvat moddiy yordamda qanday farq mavjud?

ko'inishi muruvvatdir. Bilmasdan noto'g'ri ish qilgan kishini kechirish, yoshlaming xato va kamchiligini bilib-bilmaslikka olish, ammo mavridi kelganda, buni nozik ishoralar bilan tushuntirib qo'yish kabilar ham muruvvatning bir ko'inishidir.

Mazkur ikki tushuncha o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lsada, biroq ular mohiyatiga ko'ra turli sifat va fazilatlarni ifodalashi bilan muayyan farqliklarga ega.

Muruvvat – bu insonning pok axloqiy tuyg'ular, sifat va xususiyatlarga ega ekanligini bildirsa, saxovat esa ana shu fazilatlaming amalda ro'yobga chiqishidir. SHu ma'noda «muruvvat» deganda yaxshilikka, ezzulikka, mardlikka bo'lgan xohish-istikani, «saxovat» deganda esa ijobjiy xatti-harakatlar majmuini tushunamiz. Mazkur ikki tushunchada yaxlitlikda insonparvarlik, oljanoblik, mardlik, qo'li ochiqlik, odamlami yaxshi ko'rish, rahmdillik, boshqalarga hamdardlik, boshqalarni qo'llab-quvvatlash, beg'arazlik, mehr-oqibatllilik kabi sifatlar o'z aksini topadi.

Insonparvarlik tushunchasi boshqa odamlarga va Er yuzidagi barcha tirik mavjudotga ezgu, rahmdil, g'amxo'r munosabatni namoyon etadigan shaxs sifati, insoniylik tarzida baholanadi. «Falsafa qomusiy lug'at»da insonparvarlik «Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy failatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash» sifatida qaraladi. «Pedagogik ensiklopedik lug'at»da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi.

Keng ma'noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo'lgan huquqi, o'zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o'zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me'yoriy munosabat.

Mardlik insonning ma'naviy xislati bo'lib, or-nomus, vijdon va sadoqat, shaxning oljanobligini o'zida ifoda etadi. Mardlik so'zi xalqimiz o'rtasida keng iste'mol etiladigan va millatimiz uchun xos bo'lgan fazilatni ifoda etadigan so'z hisoblanadi. Mardlik so'zi jasorat, qo'rqmaslik, botirlik kabi so'zlar bilan

ma'nodoshdır. O'z nafatida mardlik so'zi insof tushunchasi bilan ham ug'unlashib ketadi. Insof – buadolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, tenglik, sof dallik va haqiqatgo'ylikdir. Mardlik nima ekanligini anglagan inson ojizlarni himoya qiladi, kambag'allarga yordam beradi, zabunlarning ko'nglini ko'taradi.

Ochiqqa'llik – inson ma'nafiy qiyofasini belgilovchi muhim xususiyat bo'lib, saxiylik, qo'li ochiqlik, hotamtoylit ma'nolarini anglatadi. Ochiqqa'llik xalqimiz ma'naviyatidan chuqur o'rın olgan, milliy mentalitetimizga xos xususiyat sifatida qadrlanadi. Ochiqqa'llik xususiyatiga ega kishilar kam ta'minlangan, ko'p bolali, iqtisodiy jihatdan qiynalib qolgan oilalarga savob uchun doimiy yordam ko'rsatib keladi. O'z navbatida ochiqqa'llik saxiylik xislati bilan uyg'unlashadi. Saxiylik hech kimdan narsasini, yaxshilagini ayamaslik, hotamlikni ifoda etadi. Saxiylik qo'lidan kelgancha insonlarga yaxshilik, muruvvat ko'rsatish xususiyatini o'zida mujassam etadigan fazilatdir. Saxiylik qilib nochorlarga yordam qo'lini uzatgan odam, yaxshilik yo'lida qadr topadi. Saxiylik kishining ko'rki, uning zaynatidir.

Rahmdillik o'zgalarga nisbatan mehr-shafqat, mehribonlik, insonparvarlik tuyg'usini ifodalovchi tushuncha bo'lib, uning tub mohiyati insonni hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda ularga mehribonlik ko'rsatishdin iboratdir. Rahmdillik o'zgalarga mehr-shafqat ko'rsatish, amaliy ko'mak berish kabi insoniy fazilatlarda namoyon bo'ladi. Insondag'i rahmdillik va mehribonlik uning ma'naviy go'zalligidan, nozik tabiat egasi ekanligidan dalolat beradi. Rahmdil inson yaxshilikdan kuch olib, el manfaatini ko'zlaydi, o'zgalarga manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi.

Muruvvatilik va saxovatilik fazilatlarini shakllantirish muayyan mezonlarga asoslanishni talab etadi. Mazkur mezonlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) beg'arazlik;
- 2) ixtiyorilik;
- 3) aniqlik;
- 4) yo'naltirilganlik;
- 5) vaqt bilan bog'liq;
- 6) me'yor bilan bog'liq.

Shuningdek, muruvvatilik va saxovatilik fazilatlari quyidagi tamoyillar birligini ham talab etadi:

1. Oshkorlik. Ushbu tamoyil muruvvat va saxovat ochiq, to'g'ridan to'g'ri, hech qanday yashirin maqsad bilan amalga oshirilmasligi lozimligini iofda etadi.
2. Halollik. Halollik jamiyatning axloqiy me'yorlariga ongli ravishda va ixtiyorli amalga qilishga undovchi hodisa bo'lib, inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqib, insoniylik burchining vijdonan va ongli bajarilishini talab etadi.
3. Qonuniylik. Qonuniylik muruvvat va saxovat ko'rsatish maqsadga muvofiqlik, qonun va qonun osti hujjatlari hamda davlat-jamiyat manfaatlariga mos kelishini taqozo etadi.
4. Xolislik. Muruvvat va saxovat insonning o'z xoxish-irodasi timsoli bo'lib qolishi kerak emas, u umuminsoniy me'yor va talablar ifodasi sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Muruvvatilik va saxovatilik fazilatlari ma'lum manbalardan doimiy oziqlanib turadi. Ularga tarixiylik, vorislik va zamonaviylik kabilarni kiritish mumkin. Chunki o'tmishda kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatish, yaxshilik qilishga doir an'analar kishini ajdodlariga mos fikr yuritishi, o'z xatti-harakatlarini zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishiga imkon beradi.

### O'zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari.

#### «Futuvvat» va «javonmardlik» tushunchalarini qanday izohlash mumkin?

Bugungi kunda axloqning umuminsoniy tushunchalari sifatida e'tirof etilgan ezzulik va yovuzlik, vijdon, muhabbat, burch va qadr-qimmat, hayot mazmuni va baxt tushunchalari eng avvalo, Sharq falsafiy-axloqiy ta'llimotida talqin qilib berilgan. Mashhur faylasuf-axloqshunos olim G.A.Golubevaning fikricha: «Mutaxassislar axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida bir vaqtida va bir-biridan mustaqil bo'lgan uch hududda – Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (etti donishmand) paydo bo'ldi». Mazkur fikrga qo'shilgan holda, unga qisman to'ldirish va o'zgartirish

kiritish lozim: «Axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida bir vaqtida va bir-biridan mustaqil bo'lgan to'rt hududda – O'rta Osiyo (Zardo'sht), Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (etti donishmand) paydo bo'ldi». Bunday fikr yuritishga o'ziga xos asoslar mavjud. Jumladan, nemis faylasufi Artur Shopengauering «Ko'pgina dinlarga Zardo'shiylik asos bo'lgan, masalan, bu dindan Yahudiylilik kelib chiqqan: Ormuzd – Yaxvega, Axriman – Iblisga aylantirilgan» degan fikrini va Fridrix Nitsshening «Mening Zardo'shtim» kitoblarini yodga olishning o'zi kifoya.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda jahon dinlari orasida eng qadimgi din, O'rta Osiyo hududida zardushtiylik dini hukmronlik qildi. Bu din insoniyatga katta ta'sir etdi, ya'ni insonni birinchi o'ringa olib chiqdi. Zardushtiylar muqaddas kitobi «Avesto»ni o'z erasining o'ziga xos ijtimoiy-qomusiy asari deb hisoblash mumkin. Zardushtiylik dinida axloqiy me'yorlar asosi (axloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. «Avesto»da «Inson yaxshi fikrlarga ega bo'lishi, faqat yaxshi so'zlar so'zlashi va savobli ishlar qilishi lozim» deb yozilgan.

«Avesto»ning katta qismi bo'lgan «Yasna»larda inson kamolini ko'rsatuvchi axloq-odob mezonlari ana shu uchlikda humata (gumata) – yaxshi fikr, hukta (gukta) – yaxshi so'z va hvarta (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman» («Yasna», 14), deyiladi.

«Avesto» tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so'zlarini va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Manna («Ezgu fikr») va Apo Mana («Yovuz fikr») ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. «Yaxshi fikr» deganda ilohiy qonun ruhidagi yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhujlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson o'z fikr-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

Zardushtiylikda axloqiyilikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo'y sunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng deyiladi. «G'alla erdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi».

«Avesto» ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch hayotiy davrga bo'linadi: Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug'lik va insoniy saodat hukmron bo'Igan. YAgora jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti ediradi. Ikkinci davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasida kurash davom etadi. Uchinchi davr – bo'lg'usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'matiladi. Bo'lg'usi yaxshi hayotni Artu o'matib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo'ladi, deyiladi. «Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar».

«Avesto» ta'limotiga ko'ra insonning balog'at yoshi o'n besh va mana shu yoshda inson ehtiyoj darajasida axloqiy jihatdan shakllanib ulgurgan bo'lishi kerak. Bunga esa E'tiqod va Aql orqali erishish mumkin. Ana shu tarzda inson o'n besh yoshgacha E'tiqod va Aql vositasida o'zining va hayotning mohiyatini anglab etadi. E'tiqod asosini ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal va Aql asosini esa, haqiqat, bilim va adolat tashkil etadi. Bu bilan kishi eran, ya'ni mard va jasur insonga aylanadi. E'tiqod va Aqlga asosan yashaydigan eran kishi mana bu fikri hech qachon unutmaydi:

«Men bu dunyoga ma’naviy olamdan keldim, moddiy olamdan emas. Men yaratilganman, abadiy emasman. Mening ruhim Oxuramazdaga tegishli, Axrimanga emas, ya’ni ruhim Ezgulikka mansub, Yovuzlikka emas. Men insonman, dev (Shayton) emas». E’tiqod va Aql vositasida bunday fikrga kelish farr deb ataladi. Unga ko’ra «Farr» – bu inson ongida ezgulik g’oyasining yovuzlik g’oyalaridan g’olib kelishidir.

Bir yuz ellik yil umr ko’rib, shundan to’qson yil ustozlik qilgan Zardo’shtning o’g’li Adurbada shunday deydi: «Men umrim davomida boylik, nochorlik va amaldorlikni bosib o’tdim. Boyligimda saxovatli va muruvvatli, nochorligimda harakatchan va aqli, amaldorligimda bosiq va mulohazali bo’ldim». Adurbanidan fikrlaridan kelib chiqqan holda quyidagi cha mulohaza yuritish mumkin:

- boy kishilar saxovatli va muruvvatli bo’lishi shart, aks holda ular Ezgulik va Yovuzlikni farqlay olmaydi;
- nochor kishilar harakatchan va aqli bo’lishi lozim, aks holda Ular Yovuzlik jabridan qutula olmaydi;
- mansabdar kishilar bosiq va mulohazali bo’lmog’i farz, aks holda ular Yovuzlikdan tiyila olmaydi;
- umuman olganda, inson saxovatli, muruvvatli, harakatchan, aqli, bosiq va mulohazali bo’lmasa Ezgulik qila olmaydi.

«Avesto»da bayon qilingan axloq falsafasiga ko’ra, odamzot, tabiat va tirik jonzotlar etti Abadiy Muqaddaslik himoyasida bo’ladi. Bu etti Abadiy Muqaddaslik quyidagilardir:

1. Ezgu niyat (Vohu-Mana).
2. Ezgu haqiqat (Asha-Vaxishta).
3. CHeksiz muruvvat (Spenta-Armayta).
4. Xohish mo’tadilligi (Xshatra-Variya).
5. Ezgu maqsad (Xarvatot).
6. Abadiylik (Amaretat).

Bu tushunchalarga amal qilish odamlarning ongida «yxashilik qilish – eng muhim maqsad» degan qadriyatning tarkib topishiga olib kelgan. Natijada o’zgalarga

**yaxshilikni** kasb qilib olgan “ijtimoiy guruuhlar” paydo bo‘lgan. Masalan, «Avesto»da ana shunday guruhlardan biri sifatida Turon harbiylari ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra Turon harbiylari ezgulikdan kuch olib, odamlar, tabiat va jonzotlarga yaxshilik qilishni kasb qilganlar; yomonlikka qarshi kurashganlar. Harbiy kishilarning bunday aqidaga ega bo‘lishi SHarq xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqi hayotida muhtojlarga yaxshilik qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash qadimdan axloqiy madaniyat unsuri sifatida qabul qilinganidan dalolat beradi.

Bunday qarash va amallar odamlarning ongi va qalbiga singib ketdi. Masalan, bu holni keyinchalik turkiy xalqlar hayotida yana uchratamiz. Turk hoqonligi hayotida bunga misollar ko‘p. Bir o‘rinda shahzoda To‘nyuquq shunday deydi: «Kunduzi o‘tirmay yuzimning qonini yo‘qotib, terimni gupillatib mehnat qildim, elni tuzatdim va tomog‘ini but qilib, tarbiya qildim. Davlat ham, davlat bo‘ldi, xalq ham xalq bo‘ldi». Demak, endi yaxshilik qilish g‘oyasi davlat xizmatchilari guruhining bosh maslagiga aylanganiga duch kelamiz. Buning natijasida davlat va xalq farovonlikka erishgan. Hatto shahzoda Qul Tegin deydi: «Butun xalqni mammun qildim, endi yovuz emas». Demak, yaxshilik qilish qadriyati xalqni moddiy jihatdan farovon, ma’naviy jihatdan ezgu bo‘lishga olib keladi. SHahzoda Qultegin yana deydi: «Qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg‘izib qo‘ydim, uni boy qildim va oz xalqni ko‘paytirdim. Bu so‘zimning yolg‘oni yo‘q. Ey beklar, ey xalq, buni eshitin: turkiy xalqni to‘plab, davlat tuting».

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlari haqida fikr yuritilganda, uning ma’naviy mazmuniga alohida e’tibor qaratish lozim. Muruvvatli va saxovatli bo‘lish ko‘p hollarda real namoyon bo‘lsada, lekin bu tuyg‘u eng avvalo, kishi ongida, qalbida tarkib topishi kerak. Bu borada Buddha shunday ta‘lim beradi: “Mulk tuyg‘usi narsalar bilan emas, fikr bilan o‘lchanadi; narsalarga ega bo‘la turib, mulkdor bo‘imaslik mumkin”. Buning ma’nosи shuki, muruvvatli va saxovatli bo‘lish uchun **mulk** egasi bo‘lish shart emas. Inson yaxshi so‘zi, fikri va xushmuomalasi bilan ham **muruvvat** va saxovat ko‘rsatishi mumkin. Sharq falsafiy-axloqiy ta‘limotida masalaning aynan mana shu jihatiga diqqat qaratiladi. Natijada Sharqda har bir kishi ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar o‘zini oljanob his qiladi. Ana shu sababli Buddha

mazkur masalaga alohida e'tibor bergan: "Olijanob odamni topish mushkul ish, u hamma erda ham tug'ilavermaydi; biroq qaerda shunday odamlar bo'lsa, o'sha erda baxtiyor avlod yashaydi". Muruvvat va saxovat ana shunday katta kuchga ega.

Ayniqsa, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlariga ega bo'lish islom dini tufayli inson va jamiyat hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) eng ko'p targ'ib qilgan g'oya muruvvat va saxovatdir. U kishi buyuradi: «Kishining saxovati uning iymonida, odobi – aqlida, qadri esa xulqidadir». Bu nihoyatda muhim fikr. Chunki unda saxovat iymonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida uqtirilmoqda va saxovat muruvvatdan boshlanishi ma'lum. U holda anglash mumkinki, iymonli odamda muruvvat va saxovat tuyg'usi bo'ladi. Chunki bunday inson Alloh o'zining yaratganlariga muruvvat va saxovat ko'rsatishini anglaydi va iymonli odam bu sifatni o'zlashtiradi. Shu ma'noda Rasululloh buyuradiki: «Alloh taolo ikki xulqni yaxshi ko'rib, ikki xulqdan nafratlanadi. U yaxshi ko'radigan ikki xulqi saxiylik va kechirilmilik bo'lib, nafratlanadigan ikki xulq esa, xasislik va badfe'llikdir. Agar Alloh taolo biror bandasiga yaxshilikni istasa, uni odamlarni hojatini chiqarishga safarbar etur». Mazkur fikrdan yana anglash mumkinki, muruvvat va saxovat kishining o'ziga yaxshilikni keltiruvchi omildir. Rasululohning ushbu fikri odamlarda muruvvatlilik va saxovatlilikning jo'sh urushiga olib keladi. Hatto X asrga kelib bu tamoyilni maslak sifatida qabul qilgan futuvvat harakati tarkib topdi va bu harakat musulmon olamida qadriyat darajasiga ko'tarilgani ma'lum.

Professor N.Komilovning qayd etishicha, «Futuvvat – mardlik tariqati, muruvvat va mehribonlik ko'rsatish, fidoyilik va fidokorlik ilmidir. Javonmard odamning (futuvvat ahlining) so'zi ham, ishi ham, niyati va fikrlari ham pok bo'lgan. Ular xalqimiz axloqini tarbiyalashga katta xizmat qildilar».

Futuvvatchilar muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishni bosh maqsad sifatida qabul qilib, muruvvat va saxovat madaniyatini qadriyat darajasiga ko'targanlar. Bu borada Yusuf Xos Xojib quydagicha fikr yuritadi:

Aqillik ul ermas ulasa kumush

Aqi janin xalqqa qilur ulush

Aqitsa aki er budunka tavar

Aka yig'lu turur anglar xalq evar  
(Axiylik, ya'ni futuvvat – bu boylik ulashish emas,  
Futuvvat – bu xalqqa jonni berishdir.  
Xalqqa boylik oqizar saxiy odam,  
Shu sababli odamlar unga intiladi).

Demak, futuvvat ahli xalqqa nafaqat boylik ulashadi, balki kerak bo'lsa jonimi ham beradi. Mutafakkir bu bilan futuvvatchilarning muruvvatu saxovatli tengsiz kishilar bo'lganligidan xabar beradi. Chunki o'zgalar uchun jonni fido qilish muruvvat va saxovat ko'rsatishning oliy ko'rinishidir.

Donishmand Unsurulmaoliy Kaykovus futuvvatchilarning dunyoqarashi, axloqi va faoliyatini yanada kengroq sharhlab beradi. U deydi: «Futuvvatning asli uch narsadadir: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang; ikkinchi ulkim rostlikka xilof qilmasang; uchinchisi ulkim yaxshilik ishini ilgari tutsang». Futuvvatchilar axloqini, demak uch narsa tashkil qiladi: vafodorlik, rostgo'ylik va yaxshilik. Bu uch tamoyilga amal qilish mushkul ishdir. Chunki «aytgan so'zni uddasidan chiqish, hamisha rostgo'ylikka amal qilish va o'zgaga yaxshilik qilish»ni maqsad deb bilish – kishidan mehnat talab etadi.

Kaykovusning xabar berishicha, futuvvat ahli uch guruhdan iborat: 1) oddiy hunarmandlar; 2) harbiylar; 3) so'fiylar. Lekin bu guruhdagilarning barchasi futuvvatchilikning quyidagi odoblariga qat'iy rioya qilishgan: odamlar bilan nifoqqa bormaslik, xaloyiqqa kechirimli bo'lish, odamlar orasida kishiga o'git bermaslik, odam qonining to'kilishiga yo'l qo'ymaslik, qatli vojibga fatvo bermaslik. Bu odob qoidalariga rioya qilish futuvvat ahlining xalqning vijdoniga aylanishiga olib kelgan.

Shunisi qiziqliki, futuvvat ahli birovgaga qilgan muruvvat va saxovatini beg'araz minnatsiz va biron narsa umid qilmasdan amalga oshirishgan. Bu borada uning asoschilaridan biri Salmon Forsiy shunday degan: «Futuvvat – hammaga insomuruvvat ko'rsatish va evaziga hech narsa talab qilmaslikdir». Bu qoida futuvvat harakati a'zolari tomonidan asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan.

Mutafakkir Husayn Voiz Koshifiy futuvvat harakatining Axloq Kodeksini bayon qilib o'tgan. Shu o'rinda mazkur kodeksning muayyan jihatlarini bayon etib o'tish zarur.

1. Futuvvatning asosi. Oltita tashqi va oltita ichki odobdan iborat. Tashqi odoblar: yolg'on, bo'hton va behuda so'zlamaslik; bunday so'zlamni eshitmaslik; tikilib qaramaslik; haromdan hazar qilish; nojoiz joyga bormaslik va pok narsalarni tanovul qilish. Ichki odoblar: do'stu dushmanga saxovatli bo'lish; kamtar bo'lish, qanoatli bo'lish, kechirimli bo'lish, or-nomusli bo'lish va haqsevar bo'lish.

2. Futuvvatning sharti. Bu shartlar etmishe beshtani tashkil etadi. Jumladan, iymonlik, aqlilik, bilimlik, muruvvatlik, shijoatlik, himinatlik, saxovatlik, sabrlik, sirdoshlik, vafodorlik va boshqalar.

3. Futuvvatning amaliyoti. Bu borada hamisha qilinadigan ishlar o'nta: ibodat, adolat, nafsni engish, kattaga hurmat, kichikka izzat, do'stlikka sadoqat, doimiy kamtarlik, olimlarni e'zozlash, dushmanga ham saxovatli bo'lish va johillar oldida suket saqlash.

Zero, futuvvatchilikni daraxtiga qiyoslash mumkin. Uning «ildizi – muhabbat, tanasi – axloq, shoxlari – sabru toqat, yaproqlari – parhez, po'sti – hayo, gullari – xushfe'llik va mevasi – yaxshilikdir». Ana shu asosdan kelib chiqib, Husyn Voiz Koshifiy futuvvatchilik harakatining bosh tamoiyllari sifatida muruvvat va saxovatni ko'rsatib o'tadi.

Yuqorida fikrlardan ma'lum bo'ladiki, xalqimiz hayotida futuvvat harakati o'ziga xos ijtimoiy va axloqiy harakat bo'lgan. Ana shu sababli oddiy odamlardan tortib davlat xizmatchilarigacha VIII asrdan to XX asming 20-yillarigacha bu harakatga e'tiqod qilib kelganlar. Professor N.Komilov ta'kidlab o'tganidek, «Ularning axloqi bizning milliy axloqimizga aylanishi kerak, chunki futuvvatning ko'p jihatları odamlarimiz orasida to hanuz yashab kelmoqda. Kishilarimizning mehmondo'stligi, odamoxunligi, mardligi o'sha ajdodlar udumining vorisiy davomidir. Yaxshilik qilish, birovning hojatini chiqarishdan yayrab-yashnab ketadigan, borini boshqalar bilan baham ko'radigan odamlar hozir yo'q deysizmi?... Siz birovga yaxshilik qilsangiz, u boshqa birovga yaxshilik qiladi SHu tariqa xayru

baraka, ezgu odatlar tantana qilib boradi. Ajdodlarimiz shu ezgu maqsadga bel bog'lab yashaganlar va dunyoga nom taratgan edilar. Koshki biz ham shunga munosib bo'lsak...».

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarining mazmun-mohiyati ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida keng ifodasini topgan. Jumladan, buyuk mutafakkirming «Mahbub ul-qulub» asrida mazkur fazilatlarning quyidagi o'ziga xos va takrorlanmas talqini ifoda etilgan: «Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajardur (boqiy ildizidir), balki ul shajaming mufid samaridur (hosilasidur) Odamiylik kishvarining bahri mavjvari (odamiylik dengizining mavjlari), balki ul mavj bahrining samin gavhari...»

Ma'dumlikda (insoniy fazilat sifatida) muruvvat karamning urug' qayoshidur (qarindoshidir), balki tav'amon (umuman) qarindoshidur... Sohibi muruvvat (muruvvatli kishi) sharif xalqidin ayrılmaydurkим, u qayda bo'lsa Tengri panohida bo'lsin – izzat va sharaf oromgohida».

Alisher Navoiy bir she'rda muruvvat haqida quyidagicha yozadi: «Muruvvat – barcha bermakdur, emak yo'q, // Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo'q». SHoir nazziда muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o'zida bor narsalarni muhtojlarga berish, emay edirish, kiymay kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir.

Alisher Navoiy saxovat haqida fikr yuritganda, saxiy kishilarni bulutga, baxil kishilarni yog'insiz bulutga, saxiy kishilarni mevali daraxtga, baxil kishilarni esa mevasiz daraxga qiyoslaydi. Bulut tabiatga yomg'ir bilan jon ato etganidek, saxovatli kishi yaxshilik qilish bilan odamlarga bahra beradi. Mutafakkir saxovatsiz kishi Payg'ambar avlodi bo'lsa ham do'zaxiy, saxovatli kishi qul bo'lsa ham jannatiy odam deydi: «Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royihasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamon o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon. Saxonosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o'lub qurug'on kashaf ne e'tibor. Baxil behishtqa kirmas agar sayyidi Qurashiy bo'lsun va saxiy tamug'ta bormas, agar bandai habashiy bo'lsun. Saxiy bulutdir – ishi xirmon, balki mahzan bermak. Baxil mo'rdur – da'bi xo'sha balki dona termak. Himmat

ahlig'adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat shohi valoyat xosi. Saxovat odamig'a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shahbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutachi boz. Shunqor maskani shohning bilagi, yurutachi maqomi uluksanining sassig' badani va so'ngagi».

Mutafakkir o'z fikrini davom ettirib, insonlami saxovatni isrofarchilikdan farqlashga, manfaat uchun saxovat ko'rsatishning behayolik ekanligini anglashga chaqiradi: «Arslon ishi sayd urub sibo'ni to'yg'ormoq va sichqon varzishi diram o'g'urlab, tugunni axtarmoq. Sohib himmat muflisliq bila past bo'lmas, himmatsiz ganj topsa, boyliklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xoliligidan biyiklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xoliligidan biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon. Himmel ahlig'a agarchi biyik kavkabadur, ammo saxovatga necha martabadur, Isrof saho emas va itlofni ma'no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug' kunda sham'i kofuriy yoqqonni aqldin begona derlar. Mubohot uchun bermak xudhamoliq va aning bila o'zin saxiy demoq behayolik. Ulki el ko'rmaguncha bermas – laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibram bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi emay barin muhtojga berganni axiy de».

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarining muhim ko'rinishi sifatida juvonmardlik masalasi Kaykovusning «Qobusnom» asarida yorqin ifoda etilgan. Mutafakkir o'g'liga nasihat qilar ekan uch narsa (aql, rostlik, juvonmardlik) insomni baxli qilishini alohida ta'kidlab o'tadi: «Bilg'ilki, odam uch sifatga egadur. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh noction bo'lsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri juvonmardlikdur».

Shuningdek, «Qobusnom»da muruvvat va saxovatning uch oltin qoidasi juvonmardlik misolida aniq ko'rsatib berilgan: so'z va ish birligi, rostgo'ylik va yaxshilik. «Juvonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, xayr ishini ilgari tuvsang. Odamdag'i qolg'on barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadur Bilg'il,

Juvonmardlik va iiyorlik shunday kishiga sazovordurki, bir qancha hunari bo'lsin. Bu hunarlardin biri: jasur, mard, sabr-matonat, vadaga vafo qilmoq, pok dil va pok zabon bo'lmoq bo'lsa, yana biri ulkim, o'z manfaatin ko'zlab asirlarga ozor bermasa, bechoralarga madad etkursa, yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutsa, rost so'z aytsa, o'z tanidin dod bersa, odamlarga ziyon-zarar etkurmasa, yaxshi qarag'ilki, bunday ishlarning ham oxiri ul uch sifatga vobastadur.

Juvonmardlikning asosiy fazilati manmanlikni boshidin chiqarmoq va o'zgaga qasd qilmaslikdur. Agar juvonmardlik yo'lida yurmoq tilasang, hamisha uch narsani ko'zda tutgil: ko'zni yomon narsadin, qo'lni yomon ishdin va tilni yomon so'zdin saqlashni. Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tutgil: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bog'ichini».

### O'zbekistonda "ijtimoiy pedagog" kasbining paydo bo'lishi.

**«Pedagog» va «ijtimoiy pedagog» tushunchalarini alohida ajratib ko'rsatishga qanday zaruriyat mavjud?**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj kishilarga manzilli yordam ko'rsatish bo'lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda ijtimoiy sohada ahollining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami bilan ishslashda bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – «Ijtimoiy xodim»ga zaruriyat yuzaga keladi.

O'zbekistonda ijtimoiy ish instituti XX asming 90-yillari oxiriga kelib shakllana boshladi. Jumladan, 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi kasblar va lavozimlar milliy klassifikatoriga «ijtimoiy ish kasbi va ijtimoiy ish mutaxassisligi» kiritildi. 2005 yildan boshlab esa Samarqand va Farg'ona davlat universitetlarida, 2010 yildan O'zbekiston Milliy universitetida «Ijtimoiy ish» yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlana boshladi. Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatorida ham 5520100 – ijtimoiy ish bakalavriat yo'nalishi hamda 5A520101 – ijtimoiy ish (faoliyatning turli

sohalari bo'yicha) va SA520102 – aholiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash ko'zda tutilgan.

«Ijtimoiy pedagogika» bo'yicha bakalavriat yo'nalishi mavjud bo'lmasa-da, pedagogika va psixologiya bakalavriat yo'nalishlarida ijtimoiy pedagogika va psixologiyaga doir qator fanlar o'qitiladi. Ma'lum muddat ijtimoiy pedagogika bo'yicha magistaratura mutaxassisligi bo'yicha Navoiy davlat pedagogika istituti, Termiz davlat universiteti va boshqa oliy ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlandi.

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Muruvvat» va «sahovat» tushunchalariga izoh bering.
2. «Muruvvat» va «sahovat» fazilatlari qanday sifatlarni o'z ichiga oladi?
3. O'zbekistonda muruvvat va sahovatning tarixan qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Ijtimoiy ish yo'nalishida qaysi oliy ta'lif muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlanadi?
5. Ijtimoiy pedagogika sohasida kadrlar tayyorlashga qanday zarurat mavjud?

### **1.3.-§. XORIJDA IJTIMOIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI**

#### **Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi**

##### **Antik madaniyat deganda nimani tushunasiz?**

**Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi** - qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda faktlar to'planishi, tarbiya tajribasining ortib borishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalarning shakllanishi ro'y bergen. Ijtimoiy pedagogikaning bu rivojlanish bosqichi tarbiyanı ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida tarbiyaga oid turli nazariyalar paydo bo'lgan.

Birinchi bosqichning bu kabi davriy chegaralanishi, avvalambor, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosining mavjud bo'lganligi bilan izohlanadi. Chunki ibridoiy jamoada to'plangan tajribalar tarbiyaga oid boy ijtimoiy pedagogik g'oyalar haqida gapirishga imkon beradi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonning hayvonot olamidan ajralishi bilan paydo bo'lgan. Dastlab tarbiya umumiyy taqlidiy ma'no kasb etgan bo'lsa, keyinchalik esa o'ziga xos faoliyat turiga

aylangan va bu bilan shug'ullanuvchi odamlar - tarbiyachilar paydo bo'lgan. Vaqt o'tgani sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko'ra farqlana boshlagan, uning axloqiy jihatlariga e'tibor qaratila boshlagan. Bundan tashqari, arxeologik ma'lumotlar ibridoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko'rsatilganligini, bolaligida olingen jarohatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to'la tasdiqlaydi.. Bu kabi qarashlar etnografik ma'lumotlarda paydo bo'lishi bilan ham o'z tasdig'ini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarda mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an'anasi bo'lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-hunarlargacha o'rgatishgan. Bularning hammasi ibridoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibridoiy davr ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'lsa, qadimgi dunyoning ilk tsivilizatsiyalarining paydo bo'lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. Sharqning quidorlik davlatlarida ijtimoiy pedagogik g'oyalar bir nechta mualliflar tomonidan shakllantirilgan va odatda muqaddas kitoblar shaklida butun xalq multiga aylangan (Xitoyda-SHukit, Hindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O'rta Osiyoda-Avesto va boshqa).

Faqatgina miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g'oyalarni yaratuvchilarining nomlari ma'lum bo'la boshlaydi.

**Suqrot** (mil.av. 447 – Afina – 399) – qadimgi yunon mumtoz falsafa-sining asoschisi, afinalik birinchi faylasuf. Nafaqat uning fikrlari, balki o'zi ham ijtimoiy tarbiyada shaxsiy namuna bo'la oladi. Suqrot bolalarni davlat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilishga o'rgatishni lozim, deb hisoblaydi. Aytilishlaricha, Suqrotning dinga qarshi chiqqanlikda ayblab, zindonband etishganda, shogirdlari uni zindondan ozod qilish va qochirib yuborish chorasi topganlar. Ammo Suqrot «Afina qonunlarini tanqid qilsamda, ularni etuk emas deb bilsamda, bu qonunlarni afinaliklar qabul qilgan ekan, ularga bo'ysunmaslikka haqqim yo'q. Yoshim bir joyga borganida ularni buzib, avlodlarning tavqi-la'natiga qolmay» - degan fikr bilan zindondan qochib ketmagan. Ustidan chiqarilgan hukmga e'tiroz

bildirmay, Suqrot o'z o'limini ixtiyoriy ravishda tan olib, bir qadah zahar ichib o'ladi. Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari bilan suhbatlarda bayon qilgan, lekin birorta ham asar yozmagan. Uning oila tarbiyasi haqidagi fikrlarini shogirdlari Ksenofont, Aristofan va Aflatunlarning asarları orqali bilib olishimiz mumkin. Ksenofont «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o'z ustozи haqida iliq so'zlar aytib, uni oliyanob ustoz, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan, inson fazilatlarini qadrlashga da'vat etgan kishi sifatida tasvirlaydi. Aflatun ham o'z ustozini chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand sifatida gavdalantirib, o'z qarashlarini «Suqrot» nomidagi asarida bayon etgan. Suqrot ta'limoticha, jamiyat ravnaqi tinch va osoyishtalikka, farovon hayot esa axloq-odob yuksak bo'lishiga bog'liq. Bunday yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar oilada shakllanadi. Suqrot bundan tashqari bolalarni oilada bilimli qilib tarbiyalashga da'vat etgan. Uning «Kuch – bilimda», «Qancha ko'p bilsam, shuncha ko'p bilmasligimni bildim», «O'z-o'zingni anglagin va bilgin» kabi fikrlari jahon xalqlari hikmatli so'zları xazinasidan joy olgan.

**Aristotel** (mil. av. 384-322) – qadimgi Yunonistonda o'ziga xos falsafiy-pedagogik ta'limot yaratgan mashhur mutafakkir. Uning oila tarbiyasi bilan bog'liq fikrlari ayniqsa, diqqatga sazovor. Aristotelning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari uch toifadan iborat bo'lib, ular g'oyat boylar, kambag'allar va o'rta hollarga bo'linadi. Aristotel boy va qashshoqlar toifalarini xush ko'rmaydi, chunki jamiyatdagi barcha noxushliklar, siyosiy beqarorlik, turli-tuman tahdid aynan shu toifalar tufayli yuzaga keladi. Eng ideal, orzudagi toifa bu o'rta hol kishilar toifasidir. Ular tufayli jamiyat rivoj topadi, el-yurt tinch, vaziyat barqarorlik tusini oladi. Aristotelning bunday qarashlarida bizning davlatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan bog'liqlikni ko'rish mumkin. Chunki dalatimiz tomonidan jamiyat rivoji uchun zarur bo'lган o'rta qatlarni, o'rta hol oilalar sonini ko'paytirish uchun ijtimoiy islohotlar olib borilayotganligi buning isbotidir. Aristotel oilada tarkib topadigan ezgu fazilatlarni dianoetik intellektual, aqlga asoslangan va etik irodaga asoslangan ko'rinishlardan iborat, deb hisob-laydi. Dianoetik fazilatlar asosan ta'lim-tarbiya natijasida, etik-iro-daga aloqador fazilatlar esa urf-odat tufayli shakllanadi.

Insonning baxt-saodati haqida fikr-yuritib, mutafakkir uni tugal-langan umming kuch-g`ayrati – energiyasi, deb ta'riflaydi. Har qanday odam ezgu fazilatlarning sohibi hisoblanavermaydi. Ularni o'zida namoyon qila olgan insongina ularga da`vo qila oladi. Ezgulik tabiatan odamlarga xos, degan fikr xatodir. Tabiat odamlarga ezgu fazilatlarga ega bo'lish imkonni-ni beradi. Ularning sohibiga aylanish esa odamlarning o'ziga, ularning xo-hish-irodasi va faolligiga bog'liqdir.

Aristotel tarbiya maqsadini tabiiylik bilan mustahkam bog'langan inson psixikasining har tomonlama rivojlanishida ko'rdi, biroq aql va irodani rivojlanishning yuqori darajasi, deb hisobladi. SHuning uchun u tabiiylik bilan uyg'unlik hamda jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiya, bundan tashqari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni targ'ib etdi. Xalq orasidagi hafta davomiyligini «etti» kunga bo'lishga tayanib, oiladagi tar-biya vaqtini yigirma bir yil deb belgilab, uni uch bosqichga bo'ldi: tug'ilga-nidan etti yoshgacha, etti yoshdan o'n to'rt yoshgacha, o'n to'rt yoshdan yigirma bir yoshgacha. Har bir bosqichda oiladagi tarbiya maqsadi, mazmuni va metodlarini belgilashda yoshga oid xususiyatlarni hisobga olishni ta'kidladi.

Aristotel maktabgacha yoshda bolaning tarbiyalanishiga katta e'tibor qaratdi. Etti yoshgacha bolaning oйlada tarbiyalanishiga urg'u berib, «bola nimani o'rganishi lozim bo'lsa, uni go'dakligidan boshlash kerak», deya ta'kidladi.

Bolalarning axloqiy tarbiyasi, Aristotelning fikricha, axloqiy xatti-harakatlarni mashq qilish – harakatlarni tez-tez ixtiyoriy takrorlashga asoslanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi bilan eng ko'p ota-onalar shug'ullanishini uqtirib o'tadi.

**Aflatun** (mil.av. 427-347, Afina) – faylasuf, san'atkor, shoir, dra-maturg Attika qiroli sulolasiga tegishli Kodra oilasida tug'ilgan. Onasi Periktiona ham o'z davrining taniqli olimlari Salon va hukmdor Kritiylar sulolasidan.

Aflatun suhbat tarzida badiiy-falsafiy asarlar yozib qoldirgan. Uning ijtimoiy-pedagogik qarashlari «Siyosat», «Davlat», «Qonunlar» asar-larida yozib qoldirilgan. Uning siyosiy, pedagogik va axloqiy qarashlari ham «g'oya» ta'limoti bilan uzviy bog'liq. Aflatun o'zining «ideal davlat» nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat

arboblari – faylasuflar, soqchi-lar (harbiylar), dehqonlar va hunarmandlarga bo’ladi. Oilalarda ana shu uch tabaqa shakllantirilishi lozimligini uqtiradi.

Aflatunning fikricha, tarbiya kattalar ta’sirida bolalarda axloqiy-lik va oliyjanoblikni shakllantirishni ifodalaydi. U bolalarni tarbiya-lashda ichki asos – emotsiyaga e’tibor berishni muhim deb hisoblaydi.

Aflatun tarbiya vositasi sifatida o’yin, bundan tashqari bolalarga adabiy asarlarni o’qib va hikoya qilib berishga katta ahamiyat beradi. Buning uchun materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ta’kidlab o’tadi. YUqoridagi fikrlardan ko’rinadiki, Aflatun bolalarga yoshligidanoq oilada ijtimoiy tarbiya berilishi tarafdori bo’lgan.

**Demokrit** (mil.av. 460-370) – qadimgi yunon faylasufi, atom nazariyasining asoschisi. U o’z asarlarida oilada bola tarbiyasiga boshqa YUNON mutafakkirlari singari katta ahamiyat beradi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo’lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o’xshaydi» deb yozadi. U «ta’lim mehnat asosidagina go’zal narsalarni hosil qiladi», deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidlaydi.

Demokrit oilada mehnat tarbiyasiga katta e’tibor qaratish lozimligini aytadi. U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlanib borgan sari, mehnat qilish kishiga zavq bag’ishlaydi, deydi. Bu borada ota-onalar bolalarga o’mak bo’lishlari shart deb hisoblaydi. Bolalarda yaxshi xulq-atvomi hosil qilishda ota-onalarni mashq metodidan ko’proq foydalanishga chaqirdi.

**Mark Fabiy Kvintilian** – mashhur rimlik notiq va pedagog. O’z maktabi tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlarga asoslanib, ba’zi pedagogik muammolar aks etgan birinchi maxsus pedagogik qo’llanma – «Notiqni tarbiyalash haqida» asarini yaratgan.

Kvintilian oilada bolalarni tarbiyalashga e’tibor qaratib, bola shaxsi rivojlanishida uning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, «Bilishga intilish irodaga bog’liq, majburan o’qitish mumkin emas».

Kvintilian bolalar katta tantalarda ishtirok etadigan hamda kattalarning nojo'ya xatti-harakatlarining guvohi bo'ladigan Rim jamiyatining yuqori qatlamlaridagi oila tarbiyasini qattiq tanqid qiladi. U ota-onalardan bola ta'sirlanuvchan bo'lishi, unda yaxshi va yomonlikning oson ildiz otishini esda tutishni talab qildi hamda tarbiyachi-pedagoglami tanlashda ham bunga e'tibor qaratishni uqtiradi.

Kvintilianning pedagogik qarashlarida bolalarni oilada notiqlik san'atini egallashlariga oid fikrlar ham mavjud. Oilada bo'lajak notiqqa o'tkir xotira, badiiylikni his etish, yaxshi talaffuz qila olish, nutqning yorqinligi va mimikani shakllantirish lozimligini qayd etadi. Notiqni tarbiyalashning eng yaxshi vositasi Kvintilianning fikricha, she'r yod olishdir. U hozirda qo'llanilayotgan she'mi yod olish metodikasini ham o'z davrida taklif qilgan edi: dastlab she'r to'liq o'qib chiqiladi, so'ng qismlarga bo'linadi va navbat bilan qismlar yodlanadi, nihoyasida butun she'r yoddan aytildi.

Feodalizm davri tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari qoidalariga qat'iy amal qilish bo'lган. Asketizm (yunoncha) – tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirishi, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish degan ma'noni anglatadi. O'sha davrning (VI–XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g'oyasini yaratuvchilar o'sib kelayotgan avlodga singdirmoqchi bo'lган axloqiy qadriyatlar orasida hamdardlik, yaqinlarga yordam xususan, kasallar va nochorlarga yordam kabilarni targ'ib etadilar.

XV–XVI asrda avval Italiyada, so'ngra Evropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojiana boshladi. Paydo bo'layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyyolilarga asketizmnинг tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun odatda insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo'llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Uning o'zi ham qalban, ham jisman go'zal bo'lishi lozim Inson faqatgina o'z ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o'z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. SHu bilan birga

gumanistlar cherkovga qarshi ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o'zlarini pedagog bo'lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g'oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab o'masha boshlagan.

Uyg'onish davri adabiyoti va san'atida o'z davrinining etuk kishilarini ijod qilganlar. Ana shunday tengsiz iste'dod sohiblaridan biri **Uilyam Shekspir** (1564-1616)dir. U ham aktyor, ham dramaturg sifatida ijod qilgan. Uning «Inson - tabiatning mo'jizasi», «Bizni o'rabi turgan dunyo – sahna, odamlar esa unda turli rollarni ijro etuvchi aktyorlardir» kabi hikmatli so'zlari odamlar qalbidan munosib joy olgan.

Shekspir asarlari va uning o'zining ijodiy faoliyatini bolalarni tarbiyalashda taqdir zarbasidan bukilmaslik, sotqinlik, ikkiyuzlamachilikdan nafratlanish, tubanlikka qarshi kurashga o'rgatuvchi maktab vazifasini bajaradi, deb bemalol aytish mumkin. Adib bolalarni hayotda o'z baxtlari uchun kurashga intilib yashashlari, insonni seva olishlari, qiyinchiliklardan qo'rmaslik, ulami mardonovorlik bilan engib o'tishga da'vat etadi. Jumladan, «Otello» tragediyasida Otello timsolida tuhmatning oilani buzib yuboruvchi, insonni xo'rلانishga, azoblanishga mahkum etuvchi qora kuch sifatida tasvir etadi. «Qirol Lir» asari qaxramoni qirol Lirning bolalarni axloqli qilib tarbiyalamaganligi tufayli o'z qizlari tomonidan daydib yurishga va gadolikka mahkum etilishi yorqin timsollarda ko'rsatib berilgan. Oilalar o'rtasida o'zaro do'stlik, hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunishning o'miga bir-biriga hasad, bir-birini ko'rolmaslikning mavjud bo'lishi natijasida Romeo va Julettalarning halok bo'lishi «Romeo va Julietta» asarida fojiali tarzda aks etgan. Biroq hech narsa U. Shekspir qahramonlarini erkinlikdek, yuksak va yorug' tuyg'ulardan voz kechishga majbur qila olmaydi. Aynan Shekspir bola shaxsini har tomonlarma shakllanishida erkin hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'mi kattaligini o'z asarlarida badiiy tarzda ifoda etgan.

Uyg'onish davrining yana bir mutafakkiri **Tomas Mor** (1478-1555)dir. U o'zining «Utopiya» asarida kishilik jamiyatini uchun shaxsiy manfaatning ziyonligi va

barcha fuqarolaming ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirok etishlari zarurligi haqidagi ikkita muhim qoidani ilgari surdi. Muallifning tasavvurlarida yaratilgan Utopiya davlatida barcha fuqarolar mehnat qilishga majburdirlar. Bundan tashqari ayol va erkaklar hamda bolalaming huquqda tengliklari e'tirof etiladi. Bolalar ham o'qish-o'rghanish bilan birga mehnatni ham yonma-yon olib borishlari zarurligi ta'kidlanadi. Boshqacha aytganda, Tomas Mor bolalarni tarbiyalashda mehnat tarbiyasining muhimligi, jamoa va jamoada tarbiyalashning ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilgan.

Morning bolalarni ona tilini sevishga o'rgatish haqidagi g'oyasi bugungi kun uchun ham o'ta muhimdir. Shuningdek, u bola sog'lom o'sishi uchun jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Morning oilada bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning shaxsiy namuna ko'rsatishlari, bolalarga turli hunarlarni o'rgatishda ko'rgazmalilikka e'tibor qaratish zarurligi haqidagi fikrlari qiziqarli va taraqqiy parvardir.

**Tomazo Kampanellining ijtimoiy-pedagogik g'oyalari esa uning «Quyosh shahri» asarida aks etgan.**

«Quyosh shahri» - bu Utopiyadagi singari ijtimoiy birlik tamoyili, mehnatning umumiyligi va majburiyligi asosida tashkil etilgan va barcha fuqarolar ilm-fan va san'at bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan davlat. Kampanelli Morga qaraganda, rivojlangan jamiyatda bolalarni tarbiyalash tizimini bayon etdi. U hatto davlat bo'lg'usi avlodning sog'lom bo'lishi uchun erkak va ayolning turmush qurishlari haqida qayg'urishi va bu jarayonni nazorat qilishi zarurligi g'oyasini ilgari surdi.

Kampanellining fikricha, ikki yoshdan boshlab bolani ijtimoiy tarbiyalashni boshlash, uch yoshdan ko'rgazmali tasvirlardan keng foydalanib, to'g'ri talaffuz qilish va alifboni o'rgatish zarur. Ana shu davrdan bolalarni jismoniy tarbiyalashni kuchaytirish, sakkiz yoshdan boshlab esa, ularni tizimli o'qitishni boshlash kerak. O'n to'qqiz yoshdan boshlab, jinsi bilan bog'liqlikda fuqarolarni harbiy tayyorgarligini yo'lga qo'yish zarur. Ayollarga bunday ta'limni berish zarurligi urush paytlarida ular ham ishtirok etishlari mumkinlididir. Umuman, Kampanellining

fikrlari oila tarbiyasi bilan ijtimoiy tarbiyani birga olib borishga qaratilganligi, insonparvarligi bilan ahamiyatlidir.

**Yan Amos Komenskiy** (1592-1670) buyuk chex pedagogi, «pedagogika fanining otasi». Uning pedagogik faoliyati 1627 yildan rasman boshlanadi. 1627 yilda boshlagan «Chex didaktikasi» asarini 1632 yilda yozib tugatadi. So'ngra 1633-1638 yillarda bu asarni qayta ishlab, lotin tiliga tarjima qiladi va uni «Buyuk didaktika» deb ataydi. «Buyuk didaktika» Komenskiyning mumtoz asari hisoblanadi.

Bu asarida insoniyat uchun hayotiy muhim g'oyalarni ilgari suradi va shu g'oyalarga asoslanib, bir qancha darslik, qo'llanmalar yaratdi. Yan Amos Komenskiyning «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi»(1631), «Fizika»(1633), «Astronomiya»(1632), «Onalar maktabi»(1632) va boshqa asarlari shular jumlasidandir.

Komenskiyning buyuk xizmatlari shundaki, u oila bilan maktab tarbiyasini uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy jihaddan asoslab berdi. Komenskiy yashagan davrda(va undan oldin ham) tarbiya ikki yo'l bilan: maktabda va oilda amalga oshirilar edi. Komenskiy oilani, ota-onalarni tarbiyalovchilik qobiliyatlarini kamsitmagan holda, yosh avlodni maktabda o'qitish va tarbiyalashni afzal, deb biladi. Buning sababini Komenskiy «Buyuk didaktika»ning VIII bobida bunday izohlaydi: «Ota-onalar har xil bo'lgani va ularning kasbi turli-tumanligi sababli o'z bolasini tarbiyalay olish qo'lidan keladigan yoki ishdan so'ng etarli vaqt topib, bola tarbiyasi bilan shug'ullana oladigan ota-onalar juda kam topiladi. SHuning uchun ham necha asrlardan buyon ko'pchilik oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitib kelmoqdalar. YOshlarni tarbiyalovchi bunday kishilar odatda, ustoz, tarbiyachi, muallim, professor deb atab kelinadi, bolalarni to'plab birga mashhg'ulot o'tkazadigan joyni esa maktab, o'quv yurti, auditoriya, kollegiya, gimnaziya, akademiya va haqozolar deb ataladi» (III bob, 2-§).

«Buyuk didaktika»ning IX bobida o'g'il bolalar bilan bir qatorda qiz bolalarni ham o'qitish zarurligi asoslab beriladi. «Maktablarda faqat boylar va aslzodalarning bolalarinigina emas, balki umuman hammani: barcha shahar va qishloqlardagi

aslzodalar va oddiy xalqni ham, boylar va kambag' allarni ham, o'g'il va qiz bolalarni ham o'qitish kerak» (IX bob, 1-§).

Ojizalarni ham maktablarda o'qitish zarurmi, degan savolga Komenskiy ijobjiy javob beradi. «Xotin-qizlar ham erlar singari, ko'pincha erlardan ko'ra ham o'tkir aql-idrokka ega, erlar qatori eng yuqori lavozimlami bajarib kelmoqda» (IX bob, 5-§) deb ta'kidlaydi.

Shaxsnинг rivojlanish bosqichlarini Komenskiy to'rt davrga bo'ladi: go'daklik, bolalik, o'smirlilik, yetuklik. Har bir davr olti yilni o'z ichiga oladi. Har bir yosh davriga mos keladigan mакtab bo'lishi lozim. Chunonchi, go'daklik davri uchun – ona mакtabi, bolalik davri uchun – boshlang'ich mакtab (ona tili mакtabi), o'smirlilik davri uchun – lotin mакtabi yoki gimnaziya, etuklik davri uchun akademiya bo'lmog'i lozim (XVII bob, 3-§).

Komenskiyning fikricha, har bir oila, har bir xonardon «ona mакtabi» hisoblanishi lozim, chunki tarbiya dastlab oilada beriladi. Ona tili mакtabi har bir jamoada, har bir qishloqda, gimnaziya – har bir shaharda, akademiya har bir davlat yoki viloyatda bo'lishi zarur.

Komenskiy «qanday qilib bolada o'qishga ishtiyoq uyg'otish mumkin?» degan savolga quyidagicha javob beradi: «Bolalarda o'qishga nisbatan ishtiyoq uyg'otish va saqlab qolish ota-onalar, o'qituvchilar, mакtab, o'quv fanlari, o'qitish metodi va mакtab boshliqlariga bog'liq» (XVII bob, 2-§). «Agar ota-onalar bolalarning ko'z oldida donolik va domishmandlar to'g'risida yaxshi gaplar aytishsa, yaxshi kitob, chiroqli kiyim yoki boshqa yaxshiroq narsalar olib berishni va'da qilib, bolaning g'ayratini oshirsa, ayniqsa, bolani o'qitishi lozim bo'lgan muallimning bilimdonligi va xushmuomalaligini maqtashsa (axir, sevish va qoyil qolish taqlid qilish uchun eng kuchli vosita hisoblanadi); nihoyat bolani ba'zan muallimga biror topshiriq yoki kichik sovg'a bilan yuborib turishsa va hakozo, agar shunday qilinsa, bolalar fanni ham, o'qituvchini ham astoydil sevib qoladilar» (XVII bob, 2-§).

Umuman olganda, Komenskiy ilk bor bolalarga ta'lim va tarbiya berishni ilmiy jihatdan bayon etdi. Bu jarayonda oilaning, ota-onaning rolini asosli ko'rsatib bera oldi.

Asl tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra doim go'zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g'amxo'rlikni bildirgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarini amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli internat maktabning yaratilishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy-pedagogika bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

Diniy qarashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy qadriyatlargacha qaratilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o'gitlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g'amxo'rlik haqida ko'p gapirilgan. Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Evropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lган. Unga nafaqat ruhiy yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab,adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy ana'nalari mavjud. Masalan, Evropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketishgan. Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida episkop **Vasiliy Kesariyining** tashabbusi bilan paydo bo'lган. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lган. Uzoq vaqt u Evropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asriga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i, endi unda faqat tarbiya bilan shug'ullanishmagan, ularda amaliy ishlar ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni oilalarga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640 yil ruhoniy **Vintsentom Depolen** tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lган. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi uyushmalar - yirik cherkov tashkilotlari ham tuzila boshlagan.

## Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri

### Renessans davri haqida nimalarni bilasiz?

**Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri XVII-XIX asrlar – ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy kontseptsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.**

XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy-pedagogikaning asosiy yo'nalishlarining aniq faoliyatda amalga oshishi sodir bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga frantsuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar **Lokk Jonn** (1632-1704) ulkan hissa qo'shgan. Lokk o'zining ijtimoiy-pedagogik qarashlarini «Tarbiya haqida ayrim fikrlar»(1963) asarida bayon etgan.

Jonn Lokk o'zining pedagogik qarashlarida bolalarni ham oilada, ham maktabda tarbiyalash zarurligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bolada axloqiy sifatlarni uyda hosil qilish foydaliroq, biroq maktab bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

Lokk oilada boalarni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berdi. «Salomatlik bizga kasbiy faoliyatimiz muvaffaqiyati uchun zarur», - deydi u va o'sha davr uchun mukammal ishlab chiqilgan tizimni taklif etdi. U bolalarni ilk bolalik chog'laridanoq charchoq, qiyinchilik, g'am-g'ussani oson engib o'tish uchun toblab borishni muhim deb hisobladi. Lokk bola hayotida aniq tartibning ahamiyatini batafsil asosladi va bolani qanday kiyintirish, ovqatlantirish haqida maslahatlar berdi, bolani erkaliatib o'stirishga qarshi turdi.

Uning fikricha, oilada bolalarni tarbiyalashda juda ham muhimi ijobiy odatlarni tarkib toptirishdir. «Agar siz ularni nimagadir o'rgatish muhim, deb

hisoblasangiz, buni amaliyot vositasida hodisalarni hosil qilish yo'li bilan tarkib toptiring», - deydi u. Odatlarni tarbiyalash ilk bolalikdanoq boshlanishi zarur.

Bundan tashqari, Lokk tarbiyada ijobjiy natijalarga erishish uchun bolaning individual xususiyatlarini o'rghanishni, ota-onalar o'z bolalarini nimalar qiziqtirayotganini yaxshi bilishlari kerakligini alohida ta'kidlaydi.

**Jon-Jak Russo** (1712-1778) – fransuz mutafakkiri, gumanist va demokrat. Uning erkin tarbiya haqidagi g'oyalari 1762 yilda nashr etilgan «Emil yoki tarbiya haqida» asarida o'z aksini topgan. U ham boshqa ma'rifatparvarlar singari oilada bolani tarbiyalashda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishni, bolani har tomonlama chuqur o'rghanishni talab qildi.

Russo bola tabiat etuklikni aks etirishini, bunday tabiiylikni namoyon bo'lishi uchun qayg'urish lozim deb hisoblaydi. Ota-onha yoki tarbiyachi o'zining qarash va e'tiqodlari, tayyor axloqiy qoidalarni bolaga singdirishgi urinishi kerak emas, unda o'zi tabitan in'om etilgan xususiyatlarni o'sishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratishi lozim. Tabiiy tarbiya – bu erkin tarbiyadir.

Russo shaxs rivojlanishining to'rtta davrini ajratib ko'rsatadi:

Birinchi bosqich – tug'ilganidan ikki yoshgacha, to nutq hosil bo'lgungacha. Bu davrda bolaning jismoniy tarbiyasiga e'tibor qaratish lozim.

Ikkinci bosqich – ikki yoshdan o'n ikki yoshgacha. Russo obrazli qilib bu davrni «qaqlni kirishi» deb ataydi.

Uchinchi bosqich – o'n ikki yoshdan 15 yoshgacha. Bu yoshda asosiy e'tibomi aqliy va mehnat tarbiyasiga qaratish zarur.

To'rtinchi bosqich – 14 yoshdan balog'atga etguncha, Russo atamasi bilan aytganda, «shiddat va tug'yon davri».

Russo «Emil yoki tarbiya haqida» asarida xotin-qizlar tarbiyasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Uning xotin-qizlar tarbiyasi haqidagi fikrlarining ijtimoiy ahamiyati ayollarning tabiatiga oid qarashlarida ko'rindi. Russoning fikricha ona bo'lish uchun qizlar ro'zg'orni yurita olishi, oilaviy saronjomlikni yaratishi, eriga yoqadigan va uning uchun foydali bo'lishi zarur. SHuning uchun qizlarning tabiiy tarbiyasi yigitlarning tarbiyalashdan keskin farq qilishi, qizlarda itoatgo'ylikni, garchi uning

shaxsiy qarashlariga to'g'ri kelmasa-da, boshqa nuqtai nazarlarni o'zlashtirishga tayyorgarlikni tarbiyalash kerak.

Uning fikricha, ayol go'zal va latofatli bo'lishi, sog'lom va tetik bolalarni dunyoga keltira olishi uchun jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi zarur. Unga hech qanday jiddiy aqliy mashg'ulotlarning keragi yo'q. Russoning xotin-qizlar tarbiyasi haqidagi qarashlarida uning ayollarning mustaqilligiga nisbatan konservativ xarakterda bo'lganligini hisobga olmasa, uning fikrlari amaliy ahamiyatga ega, deyish mumkin.

**Logann Genrix Pestalotssi** (1746-1827) – shveysariyalik pedagog-demokrat, butun hayotini xalq bolalarini tarbiyalash va o'qitish ishiga bag'ishlagan. Uning «Lingard va Gertruda»(1781-1787), «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma» kabi asarlarida oilaning bola tarbiyasidagi o'mi masalasi bayon etilgan.

Pestalotssining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pestalotssi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvuriga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini – insонning kuchini insон tabiatini bilan muvofiqlashtirib o'stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi. Bolani tarbiyalashni deydi, u uning tug'ilgan kunidanoq boshlash lozim: «Bola tug'ilgan soat unga ta'lim berishning birinchi soatidir». SHu sababli chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi lozim. Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayol ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya mакtabda ham davom ettirilishi lozim.

Pestalotssi tarbiyaning asosiy vazifasi – kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda etkaza oladigan va hamma jihatlari uyg'un bo'lib kamol topgan insон etishtirishdir, deb biladi. Bolalarni boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil

mashq qildirish yo'li bilan uning axloqi voyaga etkaziladi. Pestalotssining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqi uchun oilada asos solinadi. Bolaning onaga muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga ham o'tadi.

Umuman olganda, Pestalotssi oilada odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini uyg'up qilib o'stirishni tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. Uning bolani jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiyalash haqidagi fikrlari qimmatlidir.

**Aleksandr Ivanovich Gersen** (1812–1870) o'z davrida birinchilardan bo'lib, dvoryan oilalaridagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tanqid qildi. Dvoryan oilalaridagi oila tarbiyasini u qullik va mustabidlik maktabi deb atadi. Bunday oilalardagi bolalarni zamnaviy liboslar osib qo'yilgan baxtsiz garderobga o'xshatadi. Uning fikricha, bunday tarbiya beruvchilar esa, ularning qotillaridir, ular faqatgina bolalarni aqliy va axloqiy jihatdan nopol qilib o'stiradilar, xolos.

Gersen bolalarni oiladagi tarbiyasini «muhim ahamiyatga ega umum ishi», deb hisobladi. Ota-onalar bolalarni tarbiyalash uchun jamiyat oldida majburliklarini qayta-qayta takrorlaydi.

Gersen ayollarning erkaklar bilan tengligi tarafdiri edi. U ayollarning faoliyatini faqat bola tarbiyalash bilan chegaralamadi. «Ayollarning oilaviy vazifasi, - yozadi u, - hech qanday holatda uning ijtimoiy roliga xalaqit bermaydi Erkaklar singari ayollar uchun ham umumiylar dunyo xuddi shunday ochiq». Gersen ayollarning ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishi uning tarbiyaviy rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u ayollarning har tomonlama ta'lim olishlari g'oyasini ham yoqlab chiqdi.

Otaning bola tarbiyasidagi roli buyuk va mas'uliyatlidir. Gersen o'zining bolalarini tarbiyalashda «otalik buyuk ish» ekanligini anglab etdi hamda bolalarning taqdiri otaga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tdi: «Agar bolalar yomon yo'lga kirib ketishsa, bu mening aybim bo'ladi». U o'zining bolalari uchun mehribon ota, g'amxo'r rahbar edi; o'zi ular uchun tarbiyachi va o'qituvchilar tanladi, doimiy ravishda o'qituvchilarning ishini kuzatib bordi, ular yo'l qo'ygan xatolarni to'riladi.

Gersen asosiy katta e'tiborni tarbiyaning g'oyaviy yo'nalgaligiga qaratdi. U barcha kuch-g'ayratini bolalarining vatanni jon-dildan sevish, insoniyatning oliv orzu-umidlariga sadoqati bo'lishlari uchun qaratdi.

Pedagog-olim oilada madaniy-insonparvar qadriyatlarni tarkib toptirish ishini ham muhim sanadi. Buning uchun oilada ota-onva bolalar, oilaning barcha a'zolari orasida bir-biriga hurmat va mehr-muhabbatni shakllantirish lozim, deb hisoblaydi. Bolalar yoshligidanoq bir-biriga, oila a'zolariga, yaqin kishilar haqida g'amxo'rlikni namoyon eta borishlari kerak.

Gersenning oilaning vazifasi bolalarda mustaqil fikrlashni, ongli xulq-atvorni shakllantirish haqidagi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

XIX asr shunisi bilan xarakterlik, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo'lган. Ikkinchini tomondan, uning boshqa fanlar, xususan, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar yaqinlashuvni bilan ham ro'y bergan.

XIX asr ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

**1) ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.** Bu uning fansifatida paydo bo'lishiga olib kelgan;

**2) ta'lif sohasidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat vujudga kelgan.** Bu erda ijtimoiy pedagogik ta'lif, tarbiya maqsadi va xarakteri, ta'siri haqida gap bormoqd

**3) ijtimoiy pedagogika harakat doirasining kengayishi ro'y bergan.** «Nochor» va tanlab olingan bolalar bilan bir qatorda katta yoshdagilar bilan ham faoliyat boshlanadi. Asosiysi, ijtimoiy pedagogika o'z faoliyatini davlat siyosati darajasiga ko'taradi. XIX asrning 60-70 yillarda Germaniya, Angliya, AQSHda ijtimoiy qonunchilik tizimlari yaratiladi.

Shuni aytib o'tish joizki, ijtimoiy pedagogika fani rivojlanishining barcha yo'nalishlarini uning eng asosiy vazifasi- bolalarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish g'oyasi birlashtiradi. Biroq, XVIII-XIX asrlarda u avvallari e'tiborsiz bo'lган g'oyalar bilan to'ldiriladi. Aniqrog'i, ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotida birinchi o'ringa umuminsoniy qadriyatlar chiqadi.

## Ijtimoiy pedagogika rivojining uchinhini davri

### Reformatorlik pedagogikasi haqida nimalarni bilasiz?

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga e'tibor kuchayadi. Unda yoshlami tarbiyalash, shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash muammolari hal qilina boshlandi. Industriyalashtirish qishloq axolisining shaharga ommaviy migratsiyasini keltirib chiqardi. Yevropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy - madaniy jarayonlari bilan ham bog'liq o'zgarishlar, qishloq axolisining shaharga ko'chib o'tishlari g'ayriaxloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, AQSHda holat nihoyatda og'ir edi chunki, bu davlatga boshqa kam rivojlangan davlatlardan aholi ko'chib kelishi ortib bordi. Ayni vaziyatda cherkov rolining susayishi kuzatildi. Cherkov shu paytgacha axloqiy normalarning ana'naviy tashuvchisi bo'lib kelgan, biroq endi u jamiyatning yangi ehtiyojlari va voqeliklarini anglay olmadi va ko'pgina odamlar hayotida o'zining avvalgi mavqeini yo'qotdi. SHu bilan birga, Evropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarning madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalaning yechish vositalarini topishni taqozo etardi. XIX asr oxirida mustaqil fanga aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil turtki bo'ldi.

Bu paytda esa nemis pedagogi **Fridrix Disterveg** tomonidan faqatgina XX asrda keng qo'llanilgan «ijtimoiy pedagogika» atamasi fanga kiritildi.

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg (1790-1866) XIX asr o'stalarida demokratik pedagogikaning taraqqiy parvar namoyandasidir. Disterverg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaktda, adabiy va metodik ishlarni xam muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» (1835) degan kitobini nashr qildirdi. Ushbu kitobda Disterverg ta'limning umumiy vazifalarini va tanoyllari to'g'risidagi o'zining taraqiy parvar qarashlarini bayon qilib berdi. Disterveg umuminsoniy tarbiya g'oyasini himoya qilib chiqdi, shu ideyaga tayanib turib, pedagogika masalalarining yukori toifaviy va

shovinistik manfaatlarini ko'zlab hal kilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolar tarbiyalab etishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog'langan xolda rivojlantirilishi lozim. Disterveg «inson – mening nomim, nemis – mening lakabimdir» deydi.

Disterveg Pestalotsksi singari, tarbiyaning eng muhim tamoyili uning tabiat bilan uyg'unligidir, deb hisobladi. Disterveg tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishini quyidagi mazmunda talqin etdi, ya'ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. Disterveg o'qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarni sinchiklab o'rganishlari kerak, deb aytdi: u psixologiyani «tarbiya to'g'risidagi fanning asosi» deb bildi. Distervegning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalami tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ko'rsatib berdi.

Disterveg tabiatga uyg'un bo'lish tamoyiliga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniyat bilan uygun tavsifda bo'lishi xam kerak, deb talab qildi. U bunday deb yozadi: «Tarbiyalash chog'ida odamning tug'ilgan va u yashashi kerak bo'lgan joy hamda vaqt sharoitini, xullas, keng va umumiylaj hajmdagi butun zamonaviy madaniyatni e'tiborga olishi zarur».

Distervegning fikricha, bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish zamonaviy voqealik olg'a surayotgan asosiy talablarning biri bo'lishi lozim. Lekin bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish tarbiyaning ob'ektiv tomoni bulgan muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan taqdirdagina ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu «haqiqatga, go'zalikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir», deb aytdi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim bolaning akliy kuchlarinigina o'stirib qolmaydi, balki shu bilan birga uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini xam kamol toptiradi. Distervegning fikricha, ma'lum bir ta'lim metodining kanchalik

samarali bo'lishi bu metodning o'quvchilarning akliy kuchlarini qo'zg'atishga qanchalik yordam berishi bilan belgilanadi. «Agar har qanday metod, - deydi u, - o'quvchilarni oddiy idrok kilishga yoki passivlikka odatlantirgan bo'lsa, yomon metoddir, agar o'quvchilarda tashabbuskorlikni qo'zg'atadigan bo'lsa, u yaxshi metoddir». U boshlang'ich ta'lim uchun «elementar» yoki rivojlantiruvchi metodni tavsiya qiladi, metod o'quvchilarning aqliy kuchlarini nihoyat darajada qo'zgatadi, ularga «qidirish, chamlab ko'rish, muhokama yuritish va nixoyat, topish» imkonini beradi. Distervegning fikricha, «Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi».

Aynan shu vaqtidan ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlanadi. XX asr inson tsivilizatsiyasi tarixida ilmiy-texnikaviy inqiloblar asri sifatida nom qoldirdi. Fan ishlab chiqarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning etakchi omiliga aylandi. Ilmiy inqiloblar ijtimoiy pedagogikaning keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar-psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshqalar fanlar bilan yaqinlashuvi ro'y berdi. Eng asosiyasi – XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonning eng global muammosiga aylandi. Aynan shu davrda «pedalogiya» bolani har tomonlama o'rganish haqidagi fan rivojlana boshlaydi. Uning asoschilar E.Meyman, S.Xoll, Torndayk hisoblanadi. Bu borada Rudolf Shteynerning pedagogikasi ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogikani yangi g'oyalari va tarbiya usullari bilan boyitgan pedagogika arboblardan Georg Kirshenshteyner (1854-1932, Germaniya), Jon Dyui (1859-1952, AQSH), Vilgelm Layni (1862-1926, Germaniya) ko'rsatsa bo'ladi.

**Reformatorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlari:** 1. Mehnat maktablari tarafdorlarining harakatlari. 2. Harakatlar pedagogikasi. 3. Badiiy tarbiya. 4. Individual pedagogika. 5. «Fuqarolik tarbiyasi» pedagogikasi.

Reformatorlik pedagogikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillari: 1. Ishlab chiqarishning murakkab texnika bilan ta'minlanishi. 2. Tabiiy-matematik kadrlar jamoasiga bo'lgan ehtiyoj. 3. Malakali raqobatbardosh ishchilarga bo'lgan ehtiyoj.

## **Nemis pedagogi Georg Kershenshteynerning ijtimoiy-pedagogik nazariyasi:**

1. Maktab bolalarning ikkita ehtiyojini qqqonoqtirishi zarur: idrok etish va ijod qqlish. 2. Nafaqat so'z, kittob yordamida, balki amaliy tajriba vositasida o'rghanish zarur. 3. Ko'pchilik bolalarning qo'l mehnati – ularning har tomonlama rivojlanish maydoni. 4. «Faqat kitob emas, balki ijjodiy ish bolalarni uyqu va lanjlikdan xalos ettuvchi». 5. Mehnat maktabida o'qitishning asosiy metodi: ximiya, fizika fanlari bo'yicha laboratoriyalarda, metal, daraxtlarga ishlov beradigan amaliy mashg'ulotlarda, jonli buurchaklarda, rasm chizish sinflari, yer maydonchalaridagi musttaqil ishlar. 6. Maktab ishida «ma'naviy umumiylig» uning ijtimoiy ahamiyati. Asari: «*Kelajak maktabi-mehnat maktabi*».

**Djon Dyuining ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi.** XX asr boshlarida, chet el va ayniqsa amerika pedagogikasida maktab ta'limi masalalari bo'yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyat) g'oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdoi Djon Dyui (1859-1952 yillar) maktab ta'limining o'z kontseptsiyasini yaratishga ko'p urindi. Bu yo'nalishlar vakillari (Dj.Dyui, G.Kershenshteyner) o'qitish bu o'quvchining «tajribasini qayta tashkil etish» uzlksiz jarayoni deb hisoblaydilar.

O'qitishni Dyui kundalik hayotdan olingen amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang'ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: «Oldindan tuzilgan o'quv kurslari kerak emas», «O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak», «Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak», «Bajarish yordamida o'qitish – maktabda asosiy metod». Shunday qilib, Dyui maktabda ta'lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zaturligini rad etadi, ilmiy ta'limni tan olmaydi va o'qishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat hisoblaydi. Asari: «*Maktab va jamiyat*».

**«Harakatlar pedagogikasi»** kontseptsiyasi ko'p jihatdan Dj.Dyuining falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar) bilim olish jarayonida ko'zga tashlanuvchi quyidagi uch bosqichni ko'rsatadi:

idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish. Bilimlarni formallashtirish metodlari: amaliy va ijodiy ishlar, tajriba, illyustratsiya, ganjkorlik, o'yin, ashula aytish, sport, raqs tushish. Asari: «Harakat maktabi».

Hozirgacha turli davlat olimlari o'rtasida ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlari orasidagi o'rni borasida – bu mustaqil fan bo'la oladimi yoki faqatgina yosh guruhlarini o'rganish bilan cheklanadigan pedagogikaning bir sohasi bo'lib qolaveradimi, degan masalada babs-munozara davom etmoqda.

Bu bahslar, yangi fan tushunchasining shakllanmaganligi ijtimoiy pedagogika mohiyatini inkor etuvchi ba'zi pedagoglar nazariyalarida paydo bo'lgan. Masalan G.Noll va G.Boymer (1920-1930 y.) ijtimoiy pedagogikani bolalarga yordam berish va voyaga etmagan huquqbazarlarning profilaktikasi deb tushunishgan.

Ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini nemis olimi **Paul Natori** (XX asrning 20-yillari) umuman boshqacha ta'riflagan. U ijtimoiy pedagogika xalqning madaniy va ahloqiy darajasini ko'tarish maqsadida jamiyatning barcha tarbiyaviy kuchlarini yaqinlashtirish muammosini tadqiq etadi deb hisoblagan. Bunaqa tushunish yangi davrning buyurtmasiga ko'proq mos kelgan va ijtimoiy pedagogika inson hayoti davomida tarbiyalash haqidagi bilim sohasi ekanligini tasdiqlagan.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbazarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uylarida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ijtimoiy pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislami tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi. Xususan, XX asrning 70-yillaridan Germaniyada olyi ma'lumotli ijtimoiy pedagoglar tayyorlana boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib ijtimoiy pedagogik muarnmolarning global darajaga etganiga BMT Bosh Assambleyasini tomonidan 1959-yil 20-noyabrda va 1989-yil 20-noyabrda bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda alohida e'tibor etimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga va boshqa bir qator muammolarga qaratilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarini tiklanishi bo'yicha o'ziga xoj tajriba to'plandi. Shu bilan birga, Davlat ta'lim standartlarini va

darsliklarni yaratish, mutaxassislar tayyorlash, o'quv rejalarini va dasturlarni tuzishda mavjud tajriba va chet el mutaxassislar bilan yaqin hamkorlik asosida bo'lishi kerak. Chunki Germaniya, Angliya, AQSHlarda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

Ijtimoiy ishning o'ziga xosligini tushunishda Meri Richmondning 1917-yida nashr etilgan «Ijtimoiy dialog» kitobi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Mazkur mumtoz asarda muallif quyidagicha yozadi: «Yaxshi ijtimoy xodim odamlarni notavonlikdan olib chiqishga harakat qiladi; u umuman notavonlikdan forig' bo'lishga undaydi». M.Richmonddan so'ng ijtimoiy ishda «o'rganish, tashxis, davolash» paradigmasi muhim o'tin tuta boshladi.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda ijtimoiy xizmat ko'rsatish xodimlarini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayon o'zida turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladigan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosligini aks ettiradi. Hatto bir mamlakat hududida ham ijtimoiy xodimlarni tayyorlash ishida universal namuna mavjud emas.

Masalan, Yaponiyada ijtimoiy pedagoglarni tayyorlashda yetarlicha darajadagi tanlov dasturlari mavjud: mahalliy kollejlarda o'qish muddati ikki yil, kollej va universitetlarda to'rt yillik bakalavriat yo'nalishi (eng keng tarqalgan variant) va magistrlik darajasini beruvchi universitetlardagi ikki yillik aspirantura. Indoneziyada turli xil darajadagi o'qish – umumta'lim kurslaridan talabalar uchun universitet dasturlarigacha ko'rib chiqiladigan golland modeli qabul qilingan.

Avstriya, Belgiya, Daniya, Fransiya, Gretsiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya va Shveysariyada universitetlarida ijtimoy xodimlar tayyorlaydigan maxsus bo'limlar mavjud. Maxsus tayyorgarlik tarzida amalga oshiriladigan o'qish muddatining davomiyligi 3-4 yilni tashkil etadi. Bitiruvchilar esa diplom yoki ijtimoiy xodim darajasini olishadi. Angliyada ijtimoiy pedagoglar universitet, kollejlarlarda tayyorlanadi. Mazkur ta'lim turlaridagi zamonaviy dasturlar bakalavr darajasini beruvchi 4 yillik kursga mo'ljallangan: 1 yillik aspirantura, 2 yillik aspirantura, universitetning to'liq tugallanmagan kurslari va ular uchun – 3 yillik kurslar. Bitiruvchilar malakaviy daraja, diplom va sertifikatlar olishadi.

AQShda deyarli 400 universitet va kollejlar ijtimoiy ish bo'yicha dasturlami taklif etishadi, minglab jamoatchilik va xususiy sog'liqni saqlash va xayriya tashkilotlari malakali ijtimoiy xodimlar tayyorlashga milliard dollarlab mablag'lar safr etadi. Mamlakatning ko'plab shtatlarida ijtimoiy xodimlarni amaliyotga yo'naltiruvchi qonunlar qabul qilingan. Unga fuqarolik xizmati sohasi maqomi ham berilgan. Xodimlar ro'yxatdan o'tkaziladi va ularga guvohnoma yoki ruxsatnomalar beriladi. Bir qancha shtatlarida ijtimoiy xodimlarning huquqlari sotuvchilarniki bilan tenglashtirilgan, sug'urta kompaniyalarida esa, ularga malakali xizmat ko'rsatuvchilar sifatida qarashadi. Bolalar, yoshlar va oila ishlari bo'yicha Boshqarma hamda Milliy psixiatriya instituti kabi ko'plab federal tashkilotlar o'z shartnoma va dotatsiya hujjatlarida ijtimoiy xodim kasbini rasmiy qabul qilishgan. Ijtimoiy dasturlar doirasida xizmat ko'rsatish uchun ijtimoiy xodimlarni yollaydigan korporatsiyalar soni yildan-yilga oshib bormoqda.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Xorijda ijtimoiy pedagogika fani rivojini nechta davrga ajratish mumkin?
2. Ijtimoiy pedagogika fani rivojining birinchi davrining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting
3. Ijtimoiy pedagogika fani rivojining ikkinchi davriga xos xususiyatlarni SWOT texnikasi asosida tahlil qiling.
4. Adolf Distervergning ijyimoiy-pedagogik fikrlarini tahlil qiling.
5. Harakatlar pedagogikasiga izoh bering.
6. Xorijda ijtimoiy pedagog tayyorlash tajribasini komparativistik jihatdan tahlil qiling.

## **1.4.-§. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI**

**«Avesto» va adabiy manbalarda ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.**

**«Avesto» so'zi qanday ma'noni bildiradi?**

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rinn tutadi.

O'rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmidan boshlab zardushtiylik dini keng tarqalgan bo'lib, mazkur dinning muqaddas kitobi – «Avesto» o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra madaniy-insonparvarlik g'oyalarining yaxlit majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

«Avesto» – ijtimoiy-ahloqiy ta'limotlar mazmunining boyligi jihatidan juda muhim manba hisoblanadi. Kitob o'sha davr odamlarining ongi va tafakkuri haqida ishonarli ma'lumotlar beradi. Zardushtilar uchun Haqiqat, Qudrat va Tinchlik tantana qilgan hayot go'zal hisoblangan. «Avestoda» Haqiqat, Tinchlik va erkin hayot bilan bog'liq ijtimoiy idealni izlash nidoli satrlarda o'z ifodasini topgan. Qanday qilib Haqiqat va Tinchlikka erishish mumkin? Qanday qilib porso bo'lib Axura Mazda hurmatiga sazovor bo'lish mumkin?

Zardusht ta'limotida insoniyat tarixida bitinchi marta dunyoning mazmuni qarama-qarshi kuchlarning kurashidan iborat, degan g'oya mukammal ishlab chiqilib, insoniyatga tortiq qilinadi. Insoniyat endilikda (ayniqsa, adabiyot, san'at va falsafada) dunyoning mohiyati yovuzlik bilan ezzulik o'rtasida bo'lib o'tadigan abadiy kurash jarayonini tahlil qilish orqali haqiqatni anglash konsepsiyasining ilk bora mana shu o'lmas ta'limot orqali qo'lga kiritdi.

«Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uygh'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgan ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-

muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalg qiladi.

Darhaqiqat, «Avesto» yozma yodgorligining kishilik jamiyatiga taraqqiyotidagi beqiyos o'mi shundan iboratki, u odamlarga yovuz kuchlarga emas, balki ezgulikka sajda qilish kerakligini o'rgatdi. Ya'ni qo'pol jismoniy qudratga qarama-qarshi o'laroq ma'naviy barkamollikni qo'ya oldi. Bu esa, «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», - degan fikrning dolzarbligini ko'rsatuvchi tarixiy dalildir.

Haqiqatan ham, muqaddas «Avesto» bitiklarida shakllantirilgan g'oyalar tizimi o'sha davr jaholatiga o'z davrining etuk ma'naviyatini qarshi qo'ya olgan ma'rifatdan boshqa narsa emas edi. Mazkur bitiklarning yana bir jahonshumul ahamiyati, unda insoniyatni ezgulik yo'lida zulmatga qarshi ayovsiz kurash olib borishi kerakligi va bu kurashda ezgulikning g'alaba qozonishi muqarrar ekanligi to'g'risidagi ishonch ruhidir.

Zardusht tomonidan ilgari surilgan bu tamoyil ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ham insoniyatni takomillik sari undagan, uning tamal toshiga aylangan edi.

### **O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik g'oyalari**

**«Qomusiy olimlar» tushunchasi qanday tavsifga ega?**

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ijtimoiy tuzum, davlatning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan muhim ijtimoiy-pedagogik g'oyalarni ilgari surishdi hamda insonparvarlashuv bosqichlari, mezonlari va tamoyillarini ishlab chiqishdi

O'rta asrlar Sharq fani va madaniyati etakchilari orasida shubhasiz, o'z davrida zamondoshlari tomonidan «Muallim us-soniy» («Ikkinchi muallim») deb nom berilgan Abu Nasr Forobiy (870-950)ning bu boradagi xizmatlari bebahodir.

Uning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, ideal davlat haqidagi qarashlari, ayniqsa, taraqqiy parvar tavsifga egadir.

Forobiy o'zining ijtimoiy g'oyalalariga ko'ra nihoyat darajada taraqqiyat parvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi va odamlar orasidagi insonparvar munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va o'zaro birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. Forobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'z ixtiyoriga binoan faoliyat ko'rsatib, o'z baxtini o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal etadi. Yaratilishda insonlar bir xil, lekin tarbiya, muhit ta'siri ostida ular o'zgaradilar. Olim bu o'rinda tarbiyaga katta ahamiyat beradi.

Abu Nasr Forobiy «insonparvar mutafakkir sifatida kelajak jamiyatning urushlar, qashshoqliksiz bo'lishini, umumiy baxt, adolat g'alabasi, huquq tengligi, do'stlk, o'zaro yordam, bir-birini hurmatlash, yuksak madaniyat bo'lgan er kurrasidagi yaxlit jamiyat sifatida tasavvur etadi». «Fozil odamlar shahri» asarida olim hukmdor timsolida aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik, uddaburonlik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos jihatlarni mujassamlashtiradi.

Inson muammosi va uning rivojlanishi Forobiy falsafiy tizimining eng muhim va murakkab tarkibiy qismini o'zida aks ettiradi. Buning sababi, uning ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markazida har tomonlama barkamol inson va insoniyat, ularning umumiy baxti, yuksak fazillikka erishuv yo'llari va usullari muammosi turadi. Bularning barchasi olim dunyoqarashi yuksak insonparvarlikka asoslanganidan guvohlik beradi.

Olim ilm-fan, adabiyot, musiqa sohalarida boy meros qoldirdi. Shu o'rinda Sharqda rivojlangan va umummoniy madaniyat poydevorini yaratgan buyuk olimlar – Beruniy, Ibn Sino, Ibn Turayl, al-Kiftiy, Ibn Rushd va boshqa ko'plab olimlar ijodining shakllanishi va rivojida Forobiy ta'limotining roli beqiyosligini ta'kidlash joiz.

Ibn Sino kishilarning o'zaro munosabatlarida uyg'unlik va o'zaro bir-birini tushunish mavjud bo'lgan jamiyat zarurligi haqida qat'iylik bilan gapiradi. Insonparvar olim bunday jamiyatni o'zi juda qiziqarli asoslab bergan edi: odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasdan, hamkoriksiz, o'zaro yordamsiz, bir-biriga xizmat

qilmasdan, bir-biriga nisbatan yaxshilik qilmasdan mavjud ham bo'lolmaydi, yashay ham olmaydi. Shuning uchun olim o'zining «Kitob ash-ishorat va tanbihot» asarida mana bunday yozadi: «Inson o'zining shaxsiy ehtiyojlarini yakka-yolg'iz, ihotalangan holda qondira olmaydi, u faqt boshqa odamlar bilan muloqatdagina ana shu maqsadlariga erisha olishi mumkin. Odamlar o'zarlo muloqotlar va bir-biriga yordam berish orqaligina tashvishlardan xalos bo'ladilar. Agar odamzod hamma tashvishlardan qutilish uchun yakka o'zi harakat qilganida edi, u bunchalik og'ir yukni ko'tara olmagan bo'lar edi. Ma'lum bo'ladiki, odamlar o'rtasida adolat va qonun bilan o'rnatiladigan me'yorlar zatur ekan...»

Ibn Sino inson imkoniyatlariiga ishonuvchi, aqlni har tomonlama rivojlantirishga va haqiqatni bilihga undovchi insonparvar donishmand edi. U ta'lim va tarbiyaning maqsadi – nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham qayg'uradigan, insoniylik, haqiqiy do'stlik, bosiqlik, kuchli iroda, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarga ega bo'lgan insonni shakllantirishdir, deb hisoblaydi.

Ibn Sino o'z davrida shunday buyuk asarlar yaratdiki, ular bugungi kunda ham madaniy-insonparvarlik yondashuvning nodir namunalari hisoblanadi. «Donishnoma», «Al-Ansof», «Fi-l-hudud», «Hikmat aloiya», «Al hikmat al mushriqiya», «Uyun al-hikma», «al-Mabohisot» shular jumlasidandir. Ibn Sino nazariy asarlardan tashqari falsafiy qissalar ham yaratgan – «Hayy ibn Yaqzon», “Yusuf qissasi” va “Qissai Salomon va Ibsol”. Bu asarlarning mazmuni chuqur allegorik, majoziy ma'noga ega. Ulardagi badiiy obrazlar orqali yuksak axloqiy normalar, o'z davri tushunchasidagi insonparvarlik g'oyalari targ'ib qilinadi.

Ibn Sino nafaqat qomusiy olim va mutafakkir, ayni zamonda u iste'dodli shoir, adib va tarbiyashunos bo'lgan. Uning “Axloqqa oid risola” (“Risola fi ilm al-axloq”), “Burch haqida risola” (“Risola fi al-ahd”), “Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola” (“Siyosat ad-badan”), “Adolat haqida kitob” (“Kitob al-an-sof”), “Hikmat buloqlari” (“Uyun al-hikmat”). “Ritorika” (“Xitoba”) kabi asarlarida madaniy-insonparvarlik qarashlari o'z ifodasini topgan. Masalan, olim “Burch haqida risola”sida kishi o'zini qanday tarzda pokiza tutishi lozimligi va odamlar bilan qanday muomala qilish madaniyatiga oid masalalar bayon etilgan. Uning «Nafsni pokiza tutish to'g'risida

risola»sida nafbsni tiyish qoidalari, insoniy fazilatlar, hayotiy muammolar va echimlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Ibn Sino "Hikmat buloqlari" asarida o'zidan oldingi va o'z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda, shunday bir pedagogik ta'lilot yaratdiki, bu ta'lilot o'rta asr SHarqidagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Olim pedagogika fanining maqsad va vazifalarini quyidagicha ta'riflaydi: "Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqatgina o'zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak".

X – XI asrlarning buyuk mutafakkirlari – Forobiy, ar-Roziy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa olimlarning merosiy tafakkuri keyinchalik boshqa SHarq mutafakkirlarining, shu jumladan Ma'mun akademiyasi olimlarining axloqiy-ma'rifiy fikr va qarashlarida aks etdi. Buni olimlarning asarlaridan keltirilgan quyidagi misollarda ham yaqqol ko'rish mumkin: «Bilimdan tashqari yaxshi shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan kishigina aqllidir»(Forobiy); Oqil kishi o'zida zamondoshlarining eng yaxshi sifatlarini mujassam etadi», «Qanchalik aqli bo'lmasin, agar jamiyat uchun foya keltirmasa, u komil inson emas» (al-Masihiy); «Kim o'zining his-tuyg'usini boshqara olsa, o'z qalbini tarbiyalay olsa, o'sha oqildir»(Beruniy).

Ijtimoiy-pedagogik an'nalarining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy (973-1048)ning hissasi beqiyos bo'ldi. Insonni o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot deb hisoblagan olim axloqiylik va mehnatsevarlikni shaxsdagi insoniy qadr-qimmatning asosiy mezonlari sifatida belgilaydi.

Mahmud G'aznaviy o'zining bosqinchilik yurishlarini Hindistonga yo'naltirgan bir vaqtida, Beruniy o'z asarlarida insonparvarlikni targ'ib etdi. U Hindiston va O'rta Osiyo madaniyatlarining o'zaro yaqinlashuvida birinchi tashabbuskor bo'ldi. Bunday yaqinlashish dunyo haqidagi tabiiy-ilmiy va falsafiy bilimlarni o'zaro ayriboshlash tufayli amalga oshsa, ancha samarali kechishini anglab etdi va ilmiy faoliyatida o'zi shunga intildi.

Beruniyning merosi – o‘zida ta’lim va tarbiya mazmunini, ilm-fanga oid g‘oyat qimmatli g‘oyalarni o‘z ichiga olgan mislsiz ilmiy nazariyalar to‘plamidan iborat. Ulар orasida egallangan bilimning amaliy qo‘llanilishi, motivatsiya va bilishga ehtiyoj, insonning o‘z dunyoqarashini o‘stirishga intilishiga oid fikrlarga asosiy urg‘u berilgan.

Beruniyning insonparvarlikka yo‘naltirilgan pedagogik qarashlarida o‘zaro insoniy munosabatlar, axloqiylik, jamoaviylik, bilimning inson taqdiriga ta’siri haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan. Beruniyning bunday qarashlari ilm-fan, ta’lim va ma’rifatparvarlik masalalari bilangina chegaralanib qolmaydi. YOshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan ezgulik, ziyraklik, ko‘ngilchanlik, haqiqatparvarlik, adolatli bo‘lishga intilishni ham u eng muhim sifatlar qatorida sanab o‘tadi.

Beruniy Qur’oni karimdagи “Ayting Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmi?!” (“Zumra” surasi, 9-oyat);

“Albatta, bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor” (“Ra’d” surasi, 4-oyat); “Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib quydik. Aqlni ishlatmaydilarmi” (“Baqara” surasi, 76-oyat), degan islom ta’limotiga tayangan holda aql insonga berilgan buyuk ne’mat, degan ilg‘or g‘oyani ilgari suradi. Mutafakkirming uqtirishicha, inson -- tabiatning eng oly kamolotidir, chunki «inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi... er yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun Alloh insonga katta sharaf ko‘rsatgan – unga aql-zakovat kuchi armug‘on etgan». Shu sababli, deb qayd qiladi Beruniy insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘ylgan vazifalarga mos bo‘lmog‘i uchun u yuksak axloqli, ilmu ma’rifatli bo‘lishi lozim.

Beruniyning madaniy-insonparvarlik ta’limotida aqliy va axloqiy tarbiya uzviy bog‘langan. Olim yoshlarning ilmli bo‘lishi, axloqiy tarbiyasi bilan cha’mbarchas bog‘liqligiga to‘xtalib, ulardan rotsgo‘y, rahmdil, mehribon, sahovatli, kishilarga iltifotli, xayrixoh bo‘lishni, najotsiz odamga yordam qo‘lini cho‘zishni targ‘ib qilib, makkorlik, ayyorlik,adolatsizlik, sabotsizlik, xasislik, boylikka xirs qo‘yish kabi illatlarga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi va murabbiy sifatida yoshlarga quyidagi pand-nasihatlarini beradi:

«Inson eng ololyanob fazilatlar sohibidir, - deb yozadi Beruniy «Mineralogiya» asarida, yaqin do'sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do'st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlар sohibi bo'lishi lozimdir. Ana shunday chin do'st har bir kishida bitta bo'ladi. Bundan ortiq bo'lmaydi. Odam hamisha boshqalarga yaxshilik qilish imkoniyatiga ega bo'lmasada, yaxshi tilaklar izhor etsin», deydi.

XV asrda Markaziy Osiyo sharoitida ulug' mutafakkir allomalarining ijtimoiy-siyosiy va insonparvarlik g'oyalarini davom ettiruvchi va targ'ib etuvchilaridan biri – buyuk Alisher Navoiy bo'ldi.

Navoiy o'zining ustozi, shoir Jomiymi pir tutib, uning izdoshi sifatida tasavvufning Naqshbandiya tariqatining etuk namoyondalaridan biriga aylandi. SHu sababli uning ko'plab asarlarida ololyanob inson timsoli islom tasavvufi nuqtai nazaridan talqin etiladi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") deb nomlangan pand-nasihatlarga boy asarining boblari tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze', rizo, ishq nomlari bilan atalgan. Ko'pchilik musulmon mualliflarining asarlarida, shuningdek Alisher Navoiyning axloqiy ta'limotida ham yuqoridagi kabi insonparvarlik fazilatlari qatori adolat tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi. Navoiy adolatni eng yuksak axloqiy fazilat deb baholaydi, insonlarning o'zaro munosabatlarida ham, davlat va jamiyatni boshqarishda ham adolatlilik asosida ish ko'nish zarurligini ta'kidlaydi.

Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. SHoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'-vor axloqiy kuch. U o'zida ololyanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlik-ni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoiming ijodiy ta-savvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagи kirdikoriga qarab baho bergen. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydalı ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon etkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri

kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni – bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy himmati baland, hojatbaror, adolatpanoh insonlarni sharaflaydi. Ma'lumki, inson allaqanday mavhum tushuncha emas. Inson o'z kasbu kori, jamiyatda egallagan mavqeい bilan konkret shaxsdir.

Navoiyning insonparvarlik qarashlarida inson shaxsi qadriyat sifatida qaraladi va shu tariqa insonning sharafli zot ekanligi haqida qadriyatlar va tushunchalar tizimi namoyon bo'ladi. Salaflari singari shoir ham insonning qadr-qimmatini uning axloqiy sifatlari – qalban pokligi, olighthimmatliligi va do'stlikka sadoqati, dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirishga intilishi va shu kabi sa'y-harakatlarida ko'radi. Inson qadr-qimmati yuqori nasl-nasab yoki tabaqaga mansubligida, boyligiga, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, odamlar va jamiyat ravnaqi uchun sarf etayotgan xatti-harakatlari, amaliy faoliyati bilan o'lchanadi. "Sab'ai sayyor" asarida Navoiy yozadi: "Yuqori martaba va unvon kishilarga obro' keltirmaydi, xushaxloqlilik va or-nomus ularning olijanobligi va obro'sini belgilab beradi. Qachonki yomg'ir(axloqiylik)ning manbai or-nomusdan shakllangan bo'lsa, mazkur yomg'ir tomcisi suvsiz adir uchun obi-hayot beradi. Axloqsiz kishilar hurmatga sazovor bo'la olishmaydi, ular razil va osmon gumbazining ostidadirlar".

Insonning axloqiy tarbiyasida Navoiy aql (tafakkur)ga asosiy e'tibomi qaratadi. Alisher Navoiyning inson haqidagi konsepsiysi uning olam haqidagi ta'limoti bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, bizni o'rab turgan hayot ilohiylikni o'zida namoyon etadi, inson esa unda ilohiy borliqning sohibi sifatida gavdalaniadi. Inson va Allah haqidagi bunday tasavvurlarda mutafakkir-shoir o'zining insonparvarlik tamoyillarini asoslaydi, insonni ulug'laydi, uning shaxsi hurmatga loyiq ekanligini isbotlaydi, axloqiylik va ma'naviy etuklik ruhidagi diniy ko'rsatmalarini sharhlaydi, shaxs e'tiqodi g'oyasini ilgari suradi.

## XVIII-XIX asr ma'rifatparvarlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari

### Ma'rifatparvarlik davri tushunchasiga izoh bering.

Xonliklar davrida hokimiyat uchun kurash sharoitida yuzaga kelgan ziddiyatli hodisalar XVI – XVIII asrlar madaniyatida Turdi, Mashrab, Ni-shotiy (XVII – XVIII asr) kabi shoirlarning insonparvarlik, adolatga da'vat etuvchi, ijtimoiy illatlarni, diniy fanatizimni, nodonlikni tanqid qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega she'riy asarlarini yuzaga keltirdi. XIX asr esa, milliy tarbiyashunosligimizda Munis, Ogahiy, Ahmad Donishlar timsoldida demokratik ruhdagi asarlarning yanada ko'payganligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur davr ma'rifatchiligining asosiy jihatni uning mutaassib tartiblarga qarama-qarshi xarakterida yaqqol aks etadi. Bu g'oyalar juda oddiy shakl – ma'rifatparvarlik va ma'rifatdagi falsafiy, tasavvufiy fikrlarda mujassamlashgan. Ezgulik va go'zallik bir butun hodisa sifatida qaraladi, ikkalasi ham insonga shodlik va quvonch hadya etadi. Ma'rifatparvarlik madaniyati asosida ezgulik tushunchasi mavjudligining sababi ham ana shunda.

Ogahiy merosining asosiy mazmunini ma'rifatparvarlik, ta'lim-tarbiya, axloqiy etuklik g'oyalari tashkil etadi. Ogahiyning ulug' xizmati shundaki, u o'z davrida izchillik bilan ilm-fan va ma'rifatni yoqlab chiqdi. Shoir inson hayotini yuksak ma'naviyatga, bilimga intilish bilan belgilanadigan munosib turmush bilan oliv tuyg'ular bilan qiyoslaydi va ulug'laydi.

Ogahiy ilmga intilish va ta'lim-tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushungan holda yoshlarni dunyoviy va diniy ilmlarni egallahsha chaqiradi:

Qilg'ali ilmli kamolu hikmat ashkolmi hal,

Haddan afzunroq beribdur Tangri iste'dod anga.

Nasb etarg'a hayman ilm andoq etti jiddi jahd,

Kim, madad etkurdilar aqtob ila avtod anga.

Ogahiy yoshlarning ilmga intilishini eng yuksak axloqiy fazilat, deb hisoblaydi: "Nasbi ilm etsa, istang aftol ustod oldida".

Ogahiy yoshlarni dunyoviy ilmlarni egallashga chaqirar ekan, nodonlik va johillikning asosiy sababi bilimsizlikdir, deydi:

Etushmay ilmu donish sog'ardin qatroe durda,

Bu mahfil ichra man maqsad xumori birla pajmurda.

Necha umr o'ldimki, bu hol ila man zoru ozurda,

Jaholat shomi g'aflat uyqusidin bo'ldim afsurda.

Ogahiyning madaniy-insonparvarlik qarashlaridagi asosiy xususiyatlaridan biri shaxsnинг boshqalarning hurmatini joyiga quyish, o'zini boshqalardan ustun qo'ymaslikka da'vat qilishdir:

Ilm ichra kamoloti ul hadg'a etubdurkim,

So'z aqidasi fikrining tirnog'i bila haldur.

SHuningdek, Ogahiyning fikricha, har bir kishi ilmni egallaganidan so'ng hayotda qo'llay bilishi kerak, ana shundagina ilmning jamiyatga nafi tegishi mumkin. U o'z ilmini amaliyotda qo'llay oladigan kishilarni «Bu davron ichra bordur har kishikim oqilu fazil», deya dono va aql-idrokli kishilar sirasiga kiritadi:

Ilmi hikmatda o'tub haddan kamoli donishing,

Yuz falotun ajz ila olingda mulzam bo'ldi tut,

Kishi gar donish ichra to'rt daftarga erur xono,

Agar yolg'iz esa nodonga qadri bo'limg'oy jono.

Ma'rifatparvar shoir Zavqiy (1853-1921) pedagogika, maktab ishlari rivojiga va yoshlar tarbiyasiga katta hissa qo'shdi. Zavqiyning insonparvarlik qarashlari eng avvalo, uning xalqqa, birinchi navbatda yoshlarga qaratilgan ma'rifatparvarlik g'oyalarida; keng xalq ommasini ma'lumotli va ma'rifatli qilishga bo'lgan intilishida; muloqotda kamtarlik, rostgo'ylik, sofdillik, mehnatsevarlik kabi sifatlarni egallagan shaxs haqidagi orzu-o'ylarida; bilim egallash, tarbiya, hunar-kash madaniyati uyg'unlashgan, ya'ni shaxsnинг har tomonlama rivojlamishiga va uni hayotga tayyorlashga imkon beradigan ta'lim va tarbiyani afzal deb bilishida ko'rindi.

Har bir tarixiy davr o'zining mafkurasi, bu g'oyalarni amalga oshiruvchi mutafakkirlari va etakchilariga ega bo'ladi. Ana shu fikrdan kelib chiqib, O'rta

Osiyoda ma'rifatparvarlik g'oyalari va jadidchilik harakatining yuzaga kelishini tarixiy qonuniyat, deb hisoblash mumkin.

XIX asming ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston mutafakkirlarining falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ham ma'rifatparvarlik g'oyalari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Masalan, Ahmad Donish fikricha, ta'lim va tarbiyaning mohiyatini ham bilvosita, ham bevosita haqiqatni izlash tashkil etadi: "Inson har bir ishda haqiqatni ochishga qobiliyatli" deydi u. Ma'rifatparvarlik nafaqat bilimlarning, balki tarbiyaning ham ommaviylashuvini nazarda tutadi. Jumladan, Furqat va Muqimiylar shaxsnинг madaniy rivojlanishini amalga oshirishda zatur sanalgan qadriyatlarga – jismoniy sog'lomlik, ma'naviy go'zallik, bosiqlik, oljanoblik, g'amxo'rlik, uzoq umr ko'rish, vatanparvarlik, jamiyatga foyda keltirishga intilish kabi fazilatlarni kiritishadi.

Bu davrdagi ma'rifatparvarlik harakati yorqin insonparvarlik tavsifiga ega bo'lib, mutafakkirlar o'z asarlarida insonning yaratuvchanlik kuchiga ishonishni ta'kidlaganlar.

Ma'rifatparvar shoirlar taraqqiyotning asosiy vositalaridan biri – bu insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashgan san'at orqali xalqni ma'rifatli qilishdir, deb hisoblashadi. Muqimiylar va Furqatning fikricha, san'atning vazifasi – odamlarda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga, bilimlar, ijtimoiy foydali faoliyat ko'nikmalari va yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallahsga olib keladigan insonparvar munosabatlar, muhabbat va do'stlik, yaxshi xislatlami shakllantirishdir.

Muqimiylar insonni – eng avvalo, ma'naviyatli bo'lishi uchun aqli, ochiq ko'ngilli bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. U odamlarni harakatsiz, itoatkor, ko'ngilchan, loqayd bo'lmaslika, inson hayotda o'z o'rni uchun qayg'urishi kerakligini, yo'qsa uning ma'naviyati nobud bo'lishidan ogoh etadi.

Furqat jahon taraqqiyat parvar madaniyati o'zbek xalqi madaniyati rivojiga ijobjiye ta'sir ko'rsatishini hammadan avval tushunib etdi. Uning fikricha, xalq iqtisodiyotda va madaniyatda taraqqiyotga erishishi uchun bilim va ilm-fanni egallah hamda turmushdag'i ilg'or yutuqlarni hayotga tatbiq etishi zarur. SHuning uchun ham Furqat she'riyati taraqqiyot yo'lini, dunyo madaniyati va insoniyat tajribasini o'zlashtirish

yo'lini ko'rsatib beruvchi yangi-yangi mavzular, timsollar bilan boyidi. Ma'rifatparvarlar xalqning madaniyatini rivojlantirishda san'atning imkoniyatlari cheksizligini tushunib etib, uning barcha turlarining rivojlanishiga katta ahamiyat berishdi. Ular har bir san'at turining imkoniyatlarini aniq his qilgan holda, ularning umummadaniy taraqqiyotdagি roli haqida o'z fikrlarini she'rlarida tarannum etishdi.

Furqat musiqaning kuch va imkoniyatlarini shunday bayon etadi: "Musiqa asboblarining har biri alohida yoqimli ovoz chiqaradi. Barcha musiqa tinglayotganlar jum o'tirib va diqqat bilan ularni tinglashadi hamda o'zlarining tan va onglari uchun ruhiy ozuqa oladilar".

XX asrning boshlaridagi O'zbekistondagi demokratik adabiyotning ko'zga ko'ringan yana bir vakili – Avaz O'tar o'g'li (1884-1919) ijodida va qarashlarida axloqiy va aqliy tarbiyani umumlashtirish asosida har tomonlama barkamol shaxsni rivojlantirish haqidagi fikr yorqin aks etadi. YOsh avlod tarbiyasi, ularda vatanparvarlik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, haqiqatparvarlik, ma'lumotlilik kabi sifatlarni shakllantirish orqali, yoshlarda haqiqiy insoniy qadriyatlar – insonparvarlik, mehnatsevarlik, erkin fikrlash, keng dunyoqarash, adolatlilik va boshqa fazilatlarni qaror toptirishga chaqiradi.

O'zbek demokratik adabiyoti o'z davrining bunyodkor, insonparvar, taraqqiyatparvar g'oyalalarini yetkazib beruvchi yangi-yangi shoirlarning dunyoga kelishi, ijod qilishi, asarlar yaratishi uchun zamin hozirladi.

### **XX asr boshlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat**

**Pedotsentrizm g'oyasining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?**

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uni bitirganlar orasidan Turkiston ma'naviy-ma'rifiy dunyosini milliy uyg'onishiga kuchli ijobiy ta'sir qiladigan zabardast namoyandalar etishib chikdi. Ularning "birinchisi", «Turkiston jadidlarining otasi» **Mahmudxo'ja Behbudiydir**.

Behbudiy maktab va ta'lifn-tarbiya to'g'risida "Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiy", "Tujor", "Xurshid", "SHuhrat", "Osiyo", "Turon", "Hurriyat", "Oina", "Samarqand", "Mehnatkashlar tovushi", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Vaqt" va boshqa matbuot sahifalarida ko'plab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Masalan, "Tahsil oyil", "Ehtiyoji millat", "Samarqand usuli jadida maktabi xususida", "Majlis imtihon", "Tarix va jug'rofiya", "Samarqand kitobxona va matbaaxona". "Buxoroda usul jadid" kabi ilmiy-ommabop maqolalarida yangi usul mакtablari, uning ahamiyati, o'qitish tizimi yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning foydasi, komil insonning tarbiyasi to'g'risidagi muhim ma'rifiy fikrlarni kuzatish mumkin.

Qizig'i shundaki, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayot yo'li, uning din va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatida ma'rifatparvarlik va shariat uzviy birlikni tashkil etadi. Chunki, Behbudiy faqat diniy bilimlarnigina emas, shu bilan birga, zamonaviy ilmlarning zo'r bilimdoni, xalqni ma'rifatli qilish uchun kurash yo'lida o'z moddiy boyliklarini, hatto jonini ayamagan shaxsdir. Profesor Abdurahmon Sa'diy 1923 yilda e'lon qilgan "Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozuvchilar" nomli maqolasida "O'z zamonida Turkiston jadidlarining eng faol va eng ma'lumotli rahbarlaridan edi" deb ta'riflagan bo'lsa, Fayzulla Xo'jaev o'zining "Buxoro tarixi" asarida bu fikri rivojlantirib: "Siyosiy, ijtimoyy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishi bo'Imasa kerak" deb yozgan edi.

Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiy butun ongli faoliyati davomida faqat xalq manfaatlarini himoya qildi, xalqni baxtiyor etish, farzandlarini esa savodxon qilish uchun kurashdi. 1914 yilda yozilgan "Yoshlarga murojaat" maqolasida... islomiyat shunday bir dini metin va qobili taraqqiydurki, naqadar ilmi zamoniy ko'p o'qulsa, insonni(ng) dini islomg'a shuncha aqidasi mahkam bo'lur... hatto lozim bo'lganda mulkingizdi sotsangizda, o'g'lingizni(ng) zamoncha o'qumog'iga sa'y qilingiz...", deb ta'kidlaydi.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'naliшining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934). U Sharq tillari va adabiyotini

yoshligida chuqur o'rganib, mumtoz o'zbek klassikasi ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lif bergan. Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxs rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi tolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb, u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani e'tirof etgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarining yorqin vakili bo'lgan Avloniy "to'g'ri" g'oyalami kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. Shuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'lmish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlakachilik sharoitlarida Turkistonda matbuot cheklangan o'quvchilariga ega bo'lgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng sa'marali vositasi bo'lgan. Teatr Abdulla Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lgan. U 1913-yilda Toshkentda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil etdi. Truppaning maqsad-vazifalarini Toshkentdag'i "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish" tashkil etar edi.

Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, kontsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga, klub va musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona tashkil qilishga, boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limi o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom ettirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u mayjud hayriya va ta'lif muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin edi.

Avloniy ma'rifiy g'oyalarni nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun maktab ochilgan va u erda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda

qilmay, u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. Ta'lim tarbiya tizimini kundalik hayotga yaqinlashtirish, ya'ni amaliyot eng kerakli va foydali vosita ekanligini uning "Birinchi muallim", "Ikkinchchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsliklarida aks etdi.

Avloniyidan so'ng ma'rifat va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibotchisi Miskin edi. Miskinning ta'limiy va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatiga ega bo'lib, u o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalaring rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi musulmon pedagogikasiga qarshi Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash kerak deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kinishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rganishga qaratilgan edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)ning ham ko'p qirrali faoliyati yorqin insonparvarlik ifodasiga ega. Uning pedagogik faoliyati yosh avlodda rostgo'ylik, halollik singari yuksak axloqiy sifatlami shakl-lantirishga yo'naltirilgan. Tabiiyki, shuning uchun u ana shunday axloqiy g'oyalarni o'zining badiiy asarlarida targ'ib etdi, bor imkoniyatlarini ishga solib ularni o'z kitobxonlari va tarbiyalanuvchilariga singdirishga harakat qildi.

Hamza 1911-yilda Qo'qonda hamfikr do'sti Miraziz yordamida Hojibek guzarida yangi usul maktabini ochib, unda o'zi dars beradi. Maktabda o'qish-o'qitish ishlariiga ba'zi bir o'zgarishlar kiritib, quruq yod olish uslubini yo'qotishga harakat qiladi. O'quvchilarni urish va so'kishni ta'qiqladi, sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga ko'p e'tibor berdi, ona tili darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashg'ulotlarga ko'p-roq vaqt ajratdi.

Hamza oila tarbiyasida, ota-onha va bolalarning o'zaro munosabatlarida masalani yangicha tartibda ko'ndalang qo'ydi. Insonparvarlik g'oya-larining ifodachisi sifatida u eng avvalo, oilada tan jazosining qo'llanilishiga qarshi chiqdi. Hamza jazoning bola qalbi, xarakteriga qanday yomon ta'sir ko'rsatishini asoslab berdi. Hamza kambag'al va etim bolalar uchun birinchi bo'lib maktablar ochdi,

yoshligida chuqur o'rganib, mumtoz o'zbek klassikasi ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lif bergan. Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxs rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb, u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani e'tirof etgan.

O'zbek ma'rifa parvarlarining yorqin vakili bo'lgan Avloniy "to'g'ri" g'oyalami kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. Shuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'lmish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlakachilik sharoitlarida Turkistonda matbuot cheklangan o'quvchilariga ega bo'lgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng samarali vositasi bo'lgan. Teatr Abdulla Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lgan. U 1913-yilda Toshkentda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil etdi. Truppaning maqsad-vazifalarini Toshkentdag'i "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish" tashkil etar edi.

Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, kontsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga, klub va musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona tashkil qilishga, boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limi o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom etirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u mavjud hayriya va ta'lif muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin edi.

Avloniy ma'rifiy g'oyalarni nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun maktab ochilgan va u erda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda

qilmay, u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. Ta'lim tarbiya tizimini kundalik hayotga yaqinlashtirish, ya'ni amaliyot eng kerakli va foydali vosita ekanligini uning "Birinchi muallim", "Ikkinchchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsliklarida aks etdi.

Avloniyidan so'ng ma'rifat va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibotchisi Miskin edi. Miskinning ta'limiy va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega bo'lib, u o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalarining rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi musulmon pedagogikasiga qarshi Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash kerak deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rghanishga qaratilgan edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)ning ham ko'p qirrali faoliyati yorqin insonparvarlik ifodasiga ega. Uning pedagogik faoliyati yosh avlodda rostgo'ylik, halollik singari yuksak axloqiy sifatlarni shakl-lantirishga yo'naltirilgan. Tabiiyki, shuning uchun u ana shunday axloqiy g'oyalarni o'zining badiiy asarlarida targ'ib etdi, bor imkoniyatlarini ishga solib ularni o'z kitobxonlari va tarbiyalanuvchilariga singdirishga harakat qildi.

Hamza 1911-yilda Qo'qonda hamfikr do'sti Miraziz yordamida Hojibek guzarida yangi usul maktabini ochib, unda o'zi dars beradi. Maktabda o'qish-o'qitish ishlariiga ba'zi bir o'zgarishlar kiritib, quruq yod olish uslubini yo'qotishga harakat qiladi. O'quvchilarni urish va so'kishni ta'qiqladi, sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga ko'p e'tibor berdi, ona tili darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashg'ulotlarga ko'p-roq vaqt ajratdi.

Hamza oila tarbiyasida, ota-onasi va bolalarning o'zaro munosabatlarda masalani yangicha tartibda ko'ndalang qo'ydi. Insonparvarlik g'oya-larining ifodachisi sifatida u eng avvalo, oilada tan jazosining qo'llanilishiga qarshi chiqdi. Hamza jazoning bola qalbi, xarakteriga qanday yomon ta'sir ko'rsatishini asoslab berdi. Hamza kambag'al va etim bolalar uchun birinchi bo'lib maktablar ochdi,

o'qish uchun darsliklar yozdi. Eski maktablardagi sxolastika va tushunmasdan yod olishlardan iborat tizimga qarama-qarshi o'laroq, o'ziga dunyoviy fanlar tizimi – ona tili, tabiatshunoslik, matematika, geografiya, musiqani qamrab olgan yangi ta'lim mazmunini kiritdi. To'liq talabga javob beradigan ta'lif deganda, u yosh avlodni aqliy, ma'naviy-axloqiy va estetik faoliyat usullarini yaxlit egallashlari kerak, deb hisobladi.

1917-yilgi fevral voqealari va oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyorolar tomonidan yangi usuldag'i maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlami amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O'zbekiston xududida ma'naviyat va madaniyat 1917 yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya mustamlakasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyorolar qabul qilmadilar.

Milliy ziyorolar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyorolar, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, CHo'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi YUnus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq YUnusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyorolar madaniyat, maorif soxalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarcandda mashxur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir SHomansurzoda, Said Axmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli SHomuhammadzoda zudlik bilan muktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917 yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Hurriyat"

gazetasi sahifalarida yangi usuldagagi maktabalarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi hakidagi fikri ilgari surdilar. “Anjumani maorif” jamiyatining mablag’lariga “Rushdiya” maktabi ochildi, unda bepul o’qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o’quvchilarga islom diniy ta’limotini, islom tarixini, musulmon huquqini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o’kitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o’zida tanqli ma’rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo “Tarbiyat” maktabini ochdi.

1918 yilning yozida Samarqandda “Musulmon o’qituvchilari uchun pedagogik kurslar” ochildi. O’sha yilning kuzida Toshkentda Toshkent uezdining tub erli axolisi uchun maktab o’qituvchilari kurslari ochildi. 1918 yil 9 aprelda Munavvar qori uyida to’plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo’limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo’limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo’limi xam O’rus bo’limi kabi uch bosqichdan iborat bo’lishi belgilandi: yuqori bosqich — dorilmuallimin (o’qituvchilar kursi, keyinroq oliy o’quv yurti) o’rtal bosqich — boshlang’ich maktablarni o’z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo’lishi sharoitning o’zidan kelib chiqqan xolda zamonaviy bilim va savodxonlikka extiyojdan tug’ilgandi. O’sha yilning 3 mayida dorilfunununning Musulmon bo’limi raxbariyatiga saylov bo’lib, unda Munavvarqori rais (rektor), Iso To’xtaboev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo’lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shaxar qismida Vikula Morozovning sobiq do’konini binosi (hozirgi o’zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun “Xalq dorilfununi” ochiladi. Bu bo’lim tez orada o’ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang’ich maktab ochish mo’ljallangan bo’lsa-da, axoli ehtiyojiga ko’ra, ularning soni 24taga etdi. Dorilfununning musulmon bo’limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga etadi.

1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – "Dorilmuallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan: Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizaev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligani, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori ovro pacha usuldag'i bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyorolar tayyorlash g'oyasini xam ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923 yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'rurasida bayon etgan, 1923 yilda bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Munavvar Qori 1922 yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shaxar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25 martda bo'lib o'tgan II Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'llim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi. Do'stlari va shogirdlari Qayum Amazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlan" kitobini (1925 yil) nashr ettirdi.

Xalq ta'llimining istedodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Ishoqxon Ibrat, O.Dadaxujaev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd Rizo Alizoda, To'xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918-yil boshida 330 taga, 1920-yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlariда 1405 taga etdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishlok joylarida va tumanlarda asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday

tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muhammara Qodirova, Gulso'm Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lif-tarbiya ishlarini olib borganlar.

Ma'lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish xaddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo'lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rindi. Bundan tashqari oktyabr to'ntarishidan avval madaniy ishlarni olib borgan jadid deb atalmish ziyyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilida olib boriladigan I (besh yillik ta'lif) va II (to'rt yillik ta'lif) bosqich maktablarni va ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

O'rta Osiyodagi birinchi oliy o'quv yurti – 1918-yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliy ta'lifning eng yirik markaziga aylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqgan kishilar soni 1928-yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi.

1926 yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936-yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, mактаб о'qитувчилари таъвоорланди. Масалан, 1928-yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929-yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932-yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

## II jahon urushi yillarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat

**Shoahmad Shomahmudovlar oilasi haqida nimalarни bilasiz?**

Urushning suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943-yidda respublikada 41 ta oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelgingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari O'zbekistonda barcha turdag'i qo'shinlar uchun zabit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'uv yurtlarining harbiy fakultetlari, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi. 1941-1945-yillar urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar bolalarning ahvolini og'irlashtirdi. Davlat va jamoatchilikning urush qurbanlari-bolalarga

munosabati o'zgardi. Davlat bu muammolarni ko'chirib keltirilgan bolalar uchun maktab-internat, bolalar uylari sonini kuchaytirish orqali hal etishga harakat qildi. Bu harakat, ayniqsa harbiy urush o'choqlaridan ko'plab bolalar muassasalari ko'chirib keltirilgan O'zbekistonda yaqqol namoyon bo'ldi.

Ko'chirib keltirilgan bolalar va kattalarni joylashtirish va qabul qilish respublika hayotining urush yillardagi asosiy faoliyatiga aylandi. 1941-yilda Toshkentda Zuyev va Pastki Qrim bolalar uyining tarbiyalanuvchilari joylashtirildi. Popda tumanning eng zo'r maktabini bolalar uyiga aylantirildi. Biroq kerakli jihozlar – krovat, ko'rpa to'shak, yostiq, kiyim-kechak yo'q edi. Bularni mahalliy aholi olib kelishar edi. Shuningdek, Toshkentda 1-, 2-, 3-, 15-, 18-sonli bolalar uylari, 14-, 15-sonli maktab bolalar uylari, Belorussiya bolalar uyi, Go'daklar uyi ham faoliyat yuritardi.

Arxivlarda Toshkent Go'daklar uyining 1941-1942-yillardagi qaydnoma kitoblari saqlanib qolgan. Unda kengash nomiga tushgan bolalikka olish haqidagi arizalar uchraydi. Go'daklar uyida bunday arizalar 1941-yil yanvar-sentyabr oylarida 11 ta, noyabr oyida 32 ta, dekabrda 79 ta, 1942-yil yanvar oyida 86 taga etgan. Toshkent shahrida voyaga etmaganlarni qabul qilish va ularni bolalar uyiga joylashtirish markazi tashkil qilingan edi.

1942-yilda bunday markazlar Toshkent, Farg'ona, Urganch, Namangan. Andijon, To'rtko'l shaharlarida ham tuziladi. Qishloq joylarida 2000 ta gacha bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini qabul qilish uchun joylar tayyorlanadi. 100 ta o'rini nogiron bolalar uyi ham tashkil qilindi. Toshkent viloyatidagi 2-sonli bolalar uyi Odessa va Lugansk shahrining ikkita bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini qabul qildi. Moskva, Odessa va Voronejdan ko'chirib keltirilgan 4 ta harbiy-musiqo maktabi ham bolalar uyida edilar. 1942-yil Yangiyo'l tumanida yangi bolalar uyi tashkil qilindi. Shuningdek, Rishton, Vobkent, Qarshi tumanlarida ham bolalar uylari faoliyat yuritardi.

O'zbekistonga jumladan Samarcandga Evropa davlatlaridan 21-sonli Polsha bolalar uyi va ispan yoshlari ko'chirib keltirildi.

“Front kundaligi” asari muallifi, mashhur rumin publitsisti va yozuvchisi Xarlamb Zinke ham urush yillarida O’zbekistonga 18 yoshida evakuatsiya qilingan edi. U Samarqandda dehqon Abdurasul Jo’raev oilasida yashagan.

1944-yil noyabr oyidan Toshkentda ko’chirish markazi faoliyat yuritgan va unda bolalar uyi rahbarlarining eng yaxshilari navbatchilik qilishgan. Bolalarni ko’chirish jarayoni ham havfsiz emas edi, chunki bolalar haftalab yo’lda bo’lishar, ular orasida dizenteriya, teri kasalliklari keng tarqalar edi. SHuning uchun bolalar ikki hafta mobaynida vrachlar nazorati ostida bo’lishar va keyin turli bolalar uylariga jo natilar edilar. Bu yillarda ko’chirib keltirilgan bolalarni tarbiya qilishga olish keng tarqaldi. Masalan, birinchilardan bo’lib leningradlik qizaloq – Fainani Usmon Yusupov va uning xotini Yulya Stepanenko tomonidan tarbiyaga olingan. Barchaga toshkentlik temirchi Shoahmad SHomalmudov va uning xotini Bahri ayaning jasorati ma’lum. Ular turli millatdagi 14 bolani o’z oilalariga qabul qilishgan.

Toshkentdagi 110-sonli maktabga to’rtta ko’chirib keltirilgan bolani qabul qilishdi va ularga alohida xona ajratishdi. Evakuatsiya qilingan bolalarni o’qitish bo’yicha ham choralar ko’rla boshlandi.

Urush davri mobaynida bolalar uylari tarmog’i va ulardagi tarbiyalanuvchilar soni muttasil oshib bordi. 1945-yil oxirida respublikada 267 ta bolalar uyi mavjud bo’lib, ularda 30792 tarbiyalanuvchi bo’lgan.

Urush davrida davlat va jamoat tuzilmalarining asosiy harakatlari bolalarning mактабда о’qishlarini ta’minlashga qaratilgan edi. Xalq ta’limi bo’limlari nafaqat o’quv jarayonini boshqarishgan, balki frontdagilar, ularning oilalarini, ko’chirib keltirilgan bolalarga kerakli yordamlarni ham tashkil qilishgan 1942-yildan boshlab shahar va qishloq maktablari oilalar va frontchilarga yordam ko’rsatishgan. Ularga issiq ovqat, darsliklar, daftarlar, kiyim-kechak berishgan. Maktabalarning o’quvchilari kasal bo’lgan sinfdoshlariga va ularning oila a’zolari-onalari, buvilariga uy ro’zg’or ishlarida yordam berishgan, oziq-ovqat va yoqilg’i olib kelishgan, yosh go daklarga qarab turishgan.

Toshkentning 50-sonli maktabi yaxshi tashabbus bilan chiqdi. Ya’ni 1943-yildan boshlab 150 kishilik bolalar dam olish maskani tashkil qilindi. Bu maskanda

boshlang'ich sinf bolalari soat 19:00 gacha qolishardi. Bolalar bu erda gigienik talablarga javob beruvchi xonalar, yuqori sifatlari tushlik bilan ta'minlanishgan, o'qituvchilar nazorati ostida dars tayyorlashgan, sayr qilishgan.

Ikkinci jahon urushigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda maktabdan tashqari muassasalar, shuningdek to'garak, ma'ruza, biror mavzuga oid kechalar keng tarqalgan. Badiiy ijod uylari va saroylarida badiiy, mehnat, vatanparvarlik, estetik va jismoniy tarbiya amalga oshirilgan. Maktabdan tashqari bolalar muassasalariga jiddiy qiyinchiliklarni engishga to'g'ri keldi. Chunki ularning aksariyati o'z binolarini ko'chirib keltirilgan tashkilot, korxonalarga yotoqxona qilib bergen edi. Boshqa ba'zi maktablardan tashqari muassasalar yopilgan edi.

Agar urushgacha maktabdan tashqari muassasalarda ko'proq bolalarning badiiy tarbiyasiga bog'liq to'garaklar ochilgan bo'lsa, urush yillarida esa aviamodelchilar, yosh tabiatshunoslar, texniklar, fizik va ximiklar to'garaklari soni ko'paydi. Bunday to'garaklarda ishslash bolalarning va o'smirlarning texnik qobiliyatlarini oshirdi va ularda turli mehnat sohalari bo'yicha ko'nikmalar paydo qildi.

O'zbekiston bolalarini badiiy tarbiyalash markaziy uyi 1942-yil bolalar rasmlarining ko'rgazmasini tashkil qilish bo'yicha tashabbusini ko'tarib chiqishdi. Rasmlardan urush dahshatlari bilan to'qnash kelgan bolalarning taassurotlari joy olgan edi. 400 ta eng yaxshi rasm katta muvaffaqiyat bilan Moskvada ham namoyish qilingan, keyinchalik esa Amerika rassomlarining iltimosiga ko'ra Nyu-Yorkdag'i ko'rgazmada ham ishtirok etishgan.

Urush yakunlanganidan so'ng ko'pgina ko'chirib keltirilgan bolalar va oilalar o'z yurtlariga qaytishgan. Bu davrda bolalar uylari tarbiyalanuvchilari sonining kamayishi kuzatilgan, ammo ko'pchilik bolalar va oilalar o'z xohishlari bilan O'zbekistonda qolganlar.

1956-yilda O'zbekiston hukumati jamoatchilikning keng yordami bilan oltita internat-maktab ochildi: ikkitasi Toshkentda, qolganlari Yangiyo'l, Farg'ona, Qo'qon, Xivada edi. 1962-yilda maktab-internatlar soni 119 taga ko'paydi, tarbiyalanuvchilar soni esa 38000 taga etdi. Maktab-internatlar yangi turdag'i o'quv-tarbiya muassasalari bo'lib, unda bolalarning o'qishi va rivojlanishi uchun juda

yaxshi sharoitlar yaratilgan. Bunday muassasalar faoliyatining asosiy yo'nalish turlari axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya, mehnat ko'nikmalarini paydo qilish, hayot bilan aloqani amalga oshirish bo'lgan. Keyinroq respublikada yangi maxsus maktab-internatlar: Gliyer nomidagi musiqa maktabi, san'at maktabi, sport maktabi ochildi. Bundan tashqari aqliy va jismoniy nogiron bolalar uchun ham maktab-internatlar tashkil etildi. XX asming 60-yillarda boshqa turdag'i tarbiya muassasalari: bolalar bog'chalarining rivojlanishi kuzatildi. Biroq, bu muassasalarning faoliyat yuritishiga qaramay, bunday maktablarning ilg'or tajribasi matbuot va pedagogik nashrlarda yoritilmagan.

O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda o'zbek xalqining sa'y-harakatlari bilan ta'lim sohasida ma'lum yutuqlarga erishildi. 1940-41 o'quv yilidan 1970-71 o'quv yiligacha bo'lgan davrda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta'lim maktablari tarmog'i ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, ko'pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihibarsiz qurildi, ko'pgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi.

Sho'rolar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mayjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmasdi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlaring yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham maktabda deyarli o'rgatilmas edi.

XX asming 70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergen kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985 yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umumta'lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo'yab ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat printsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kansitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatları ko'proq kuzatildi.

1985-1990-yillar xalq ta'limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanim bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faoliigi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

XX asr 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'rinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «soviet tizimi»niyuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadи.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. "Avesto"da ifoda etilgan ijtimoiy-pedagogik g'oyalarni klaster asosida tahlil qiling.
2. O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari asosida o'quv loyihasi tayyorlang.
3. Ma'rifatparvar shoirlarning ijtimoiy-pedagogik fikrlarini qiyosiy tahlil qiling.

4. II jahon urushi davridagi o'zbek xalqining mehr-muruvvat ko'rsatishdagi jasoratiga doir dalillarni aniqlashtiring.

5. Urushdan keying yillardagi ijtimoiy hayotning shxs ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jihatlarini T-chizma asosida tahlil qiling.

### 1.5.-§. O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK G'OYALAR

**O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri**

**Xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning farqli jihatlari nimada?**

Insoniyat taraqqiyotining muhim jihatlaridan biri ilg'or falsafiy, estetik, axloqiy, sotsiologik va ijtimoiy-siyosiy ta'limalarning xalq ommasi bilan bevosita aloqasi hisoblanadi. Bu dunyoqarash Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning og'zaki ijodida keng ko'lamda aks etgan, chunki ularda dunyonи realistic idrok etish, emperik tajriba, xalq donishmandligi va tafakkuri umumlashgan bo'ladi.

Ko'p asrlar davomida yaratilgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi durdonalari kelajak avlodlarning bilimini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli va noyob jihatlarni o'zlarida asrab kelgan.

Yakka holda yoki ko'pchilik bo'lib ijro qilingan og'zaki she'riy asarlar halqning hayotiy maqsadlariga, tasavvur va estetik didiga ohangdosh bo'lgandagina sayqal topadi, qayta-qayta kuylanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining og'zaki ijodiga xos bo'lgan "Algomish", "Go'rev", "Um", "Manas" dostonlarida, ma'naviy madaniyatning har qanday idek, dialektik unsurlarni, ichki qarama-qarshiliklarni, u yoki qurilish bayonini, ularning xalq taqdiridagi ta'siri va izlarini qorishib, xalqlarning ko'pgina ana shunday asarlarida qurilish xil masalalar – yaxshilik bilan yomonlik o'rtaсидиги. Uning o'limi va umrboqiyligi, tabiatda sodir qurilishlarning suammolar o'rtaga qo'yiladi va ular ko'pincha qurilishlarning holda hal qilinadi.

Shu ma'noda, xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tiganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Xalqimizning boy madaniy merosidan biri – turkiy toshbitiklardir. "O'g'uznomalar", "Kultegin bitigtoshi", "To'nyuquq bitigi", "Bilga hoqon bitigi" singari yirik tarixiy-badiiy asarlar o'sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzu-armonlari, ma'naviy kamolot darajasini aks ettiradi. Milliy ma'naviyatimiz masalalarini chuqur tadqiq etgan ma'naviyatshunos olim M.Imomnazarovning fikricha, ushbu tosh bitiglardagi eng muhim mavzu Vatan va millat, mustaqil davlatchilik g'oyalaridir. Ular bitik mualliflari Yollig' tigin, To'nyuquq va boshqalar qalbida yuksak ehtiroslarni tug'dirgan va bu tug'yon ularni o'qigan bugungi kitobxon diliiga ham bundan o'n ikki asr burun qanday bo'lsa, xuddi shunday ta'sir ko'rsata oladi. Budunning butunligi, yurtboshining odilligi va tadbirkorligi, bahodirlar shiddati va shijoati bugungi kunimiz uchun ham ibrat va namuna bo'lgulikdir.

Pedagog olima A.S.Kaldibekovaning fikricha, turkiy bitiktoshlarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bitigoshlarda turk xalqining tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini istaydi. Shu bilan birga, bitiklarda Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan.

4. II jahon urushi davridagi o'zbek xalqining mehr-muruvvat ko'rsatishdagi jasoratiga doir dalillarni aniqlashtiring.

5. Urushdan keying yillardagi ijtimoiy hayotning shxs ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jihatlarini T-chizma asosida tahlil qiling.

### **1.5.-\\$.** O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK G'YOYALAR

**O'zbek xalq pedagogikasida ta'lum-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri**

**Xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning farqli jihatlari nimada?**

Insoniyat taraqqiyotining muhim jihatlaridan biri ilg'or falsafiy, estetik, axloqiy, sotsiologik va ijtimoiy-siyosiy ta'lomitlarning xalq ommasi bilan bevosita aloqasi hisoblanadi. Bu dunyoqarash Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning og'zaki ijodida keng ko'lamda aks etgan, chunki ularda dunyoni realistik idrok etish, emperik tajriba, xalq donishmandligi va tafakkuri umumlashgan bo'ladi.

Ko'p asrlar davomida yaratilgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi durdonalari kelajak avlodlarning bilimini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli va noyob jihatlarni o'zlarida asrab kelgan.

Yakka holda yoki ko'pchilik bo'lib ijro qilingan og'zaki she'riy asarlar halqning hayotiy maqsadlariga, tasavvur va estetik didiga ohangdosh bo'lgandagina sayqal topadi, qayta-qayta kuyylanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining og'zaki ijodiga xos bo'lgan "Algomish", "Go'ro'g'li", "Rustam", "Manas" dostonlarida, ma'naviy madaniyatning har qanday namunasida kuzatilganidek, dialektik unsurlarni, ichki qarama-qarshiliklarni, u yoki bu xil tarixiy voqealarning bayonini, ularning xalq taqdiridagi ta'siri va izlarini ko'rishimiz mumkin. Turkiy xalqlaming ko'pgina ana shunday asarlarida dunyoqarash bilan bog'liq turli xil masalalar – yaxshilik bilan yomonlik o'rtaсидаги kurash, inson hayotining mazmuni, uning o'limi va umrboqiyligi, tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar mohiyati kabi muammolar o'rtaqa qo'yiladi va ular ko'pincha kundalik hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi.

Shu ma'noda, xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tiganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Xalqimizning boy madaniy merosidan biri – turkiy toshbitiklardir. "O'g'uznama", "Kultegin bitigtoshi", "To'nyuquq bitigi", "Bilga hoqon bitigi" singari yirik tarixiy-badiiy asarlar o'sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzu-armonlari, ma'naviy kamolot darajasini aks ettiradi. Milliy ma'naviyatimiz masalalarini chuqur tadqiq etgan ma'naviyatshunos olim M.Imomnazarovning fikricha, ushbu tosh bitiglardagi eng muhim mavzu Vatan va millat, mustaqil davlatchilik g'oyalaridir. Ular bitik mualliflari Yollig' tigin, To'nyuquq va boshqalar qalbida yuksak ehtiroslarni tug'dirgan va bu tug'yon ularni o'qigan bugungi kitobxon diliga ham bundan o'n ikki asr burun qanday bo'lsa, xuddi shunday ta'sir ko'rsata oladi. Budunning butunligi, yurtboshining odilligi va tadbirkorligi, bahodirlar shiddati va shijoati bugungi kunimiz uchun ham ibrat va namuna bo'lgulikdir.

Pedagog olima A.S.Kaldibekovaning fikricha, turkiy bitiktoshlarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bitigoshlarda turk xalqining tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qullegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini istaydi. Shu bilan birga, bitiklarda Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan.

## O'zbek etnografiyasida mukammal inson modeli

### Etnografiya fani nimani o'r ganadi?

Albatta, IX–XII asrlarda O'rta Osiyoda kechgan buyuk Uyg'onish davri (Sharq Renessansi) kashfiyatları, ilm-fan, madaniyat sohasidagi yuksalish keyingi asrlar, jumladan, Amir Tesur zamoni ma'naviyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. SHuningdek sohibqiron tomnidan Movaraunnahrda yagona va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu erda tinchlik, osoyishtalikning ta'minlanishi ham madaniyat ravnaqi uchun zarur omillardan edi. Lekin bulardan tashqari, Amir Temur davlati madaniyatining shiddatli va keng doirada yuksalishining yana ikki o'ta muhim omili yuzaga kelgan ediki, bularsiz madaniyat bu qadar yuksak cho'qqilarga ko'tarila olmas, u xalq turnushi hamda ongiga dadil kirib bora olmas edi. Ularning birinchisi Amir Temur davri mafkurasining asosini Bahouddin Naqshband tariqati g'oyalari tashkil etgan bo'lса, ikkinchisi, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga Hazrat Sohibqironning o'zi rahnamolik qilganligidir.

Amir Temur davri mafkurasining bunyodkorlik kuchi hamda Sohibqironning bevosita amaliy sa'y-harakati va rahnamoligi tufayli ma'nifikatda fan, madaniyat, san'atning ko'p sohalari gurkirab taraqqiy topdi. Ma'naviyatda yuz bergen bu yuksak aqliy-ma'naviy hamda badiiy yuksalishning mantiqiy hosilasi sifatida keyinchalik temuriylar hukmronligi davrida quyidagi to'rt yo'naliishdagi to'rt buyuk maktab yuzaga keldi. Bular Mirzo Ulug'bek rahbarligidagi ilm-fan taraqqiyoti, hazrat Alisher Navoiy boshchiligidagi badiiy adabiyot ravnaqi, Abdulqodir Marog'iy rahbarligidagi musiqa ilmi hamda amaliyoti rivoji va Kamoliddin Behzod nomi bilan uyg'unlashgan rassomlik san'ati yuksalishi maktablari edi. Bu maktabalarning barchasi va har biri o'z davri ma'naviyatida o'ta muhim kashfiyotlar ifodasi bo'lib, keyingi davrlar dunyo madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Ma'naviyatning badiiy adabiyot sohasi temuriylar davri ilg'or g'oyalalarini ma'naviyatning boshqa sohalariga nisbatan birmuncha mukammalroq ifoda etadi. Bunday bo'lishining sababi, adabiyotga Amir Temur va temuriylar tarafidan alohida e'tibor qaratilganligi, ikkinchidan adabiyot badiiyatning boshqa sohalariga nisbatan

hayotni mufassalroq aks ettirish imkoniyatiga ega bo'lganligi va nihoyat, uchinchidan, badiiy adabiyot maydoniga hazrat Alisher Navoiydek buyuk mutafakkir siymo, she'riyat olami sultonining kirib kelishi bilan izohlanar edi. Bu uchchala qudratli omil badiiy adabiyotni o'z zamonasiga nisbatan yuksak mazmundagi buyuk maktab darajasiga ko'tardi, Amir Temur va temuriylar davri ma'naviyati yaxlit badiiy ifodasining yaratilishiga yo'l ochib berdi.

Bu davrda tasviriyy san'at – miniatyura san'ati va monumental rassomlikda ham ko'tarilish yuz bergen. Bir talay miniatyura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha etib kelgan tasviriyy san'at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san'atning o'ziga xos uslublari shaklangani, hayotni haqqoniy tasvirlash tomon rivojlanib borganligini ko'rsatadi. XIV asr oxiri va XV asr tasviriyy san'at yodgorliklarini mavzuiga qarab, portretlar, hayotiy lavhalar, peyzaj, binolarga ishlangan surat va naqshlar, kitob bezaklari va boshqa suratlarga bo'lish mumkin.

Bu davrda Pir Ahmad G'iyosiddin va Xo'ja Abdulhay Sulton Uvays, usto Shamsiddin, Do'st Muhammad, Jongir Burhoniy, Mansur, Shoh Muzaffar, Mavlono Shahobiddin Abdullo, Mavlono Zahiriddin Azhor, Pirsaid Ahmad Tabriziy, Bobonaqsh kabi juda ko'p musavvirlar ijod qilganlar.

Amir Temur va temuriylar musiqa san'atini rivojlantirishga ham katta ahamiyat bergenlar. Ibn Arabshoh, SHarafiddin Ali YAzdiy, Xondamir va boshqa ko'pgina tarixchilar o'z asarlarida ma'lumot bergenlaridek, bu davrda musiqa va qo'shiq san'ati juda keng taraqqiy topgan. Amir Temur va temuriylarning saroylari o'ziga xos madaniyat markazi bo'lib, sozanda va xonandalar u erda o'zlarining eng yaxshi asarlarini yaratganlar, iste'dodlarini komolga etkazganlar. Qo'shiqchilik va musiqa san'atining taraqqiyoti tarixida bu davr alohida o'rinn tutadi. SHu sababli tarixchilar ma'naviy madaniyatning ushbu turi taraqqiyotini eng samarali davr sifatida alohida ajratib ko'rsatadilar. Abuqodir Noiy, SHohquli G'ijjakiy, Ustod Shodiy va boshqalarning ijodi musiqamiz tarixining va ma'naviy merosimizning faxri hisoblanadi.

Shayboniylar (XVI asr) va Ashtarkoniylar (XVII-XVIII asrning I yarmi) hukmronligi davri madaniyati bir-biriga zid yo'nalishlar bilan ajralib turadi. Bu narsa,

bir tomondan, me'morlik, miniatyura rassomchiligi, she'riyat sohasida sezilarli yutuqlarga erishilganligida ko'rinsa, boshqa bir tomondan, ortodoksal (mustaqil e'tiqodli) islam yo'lida ilmiy va ijodiy tafakkurning bo'g'ib qo'yilgani, jamiyat siyosiy va ma'naviy hayotida din ta'sirining kuchayganligida ko'rish mumkin.

O'zbekistonning badiiy madaniyati XIX-XX asrlar chegarasida o'lkaning mustamlakaga aylanishi, g'arb va rus madaniyatining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Bu hol ko'p jihatdan mintaqadagi ijtimoiy-madaniy vaziyatga jiddiy ta'sir etib, tub erli aholining badiiy-estetik ongi, turmushi, dunyoqarashida o'ziga xos o'zgarish olib kirdi. Biroq mahalliy aholi asrlar davomida shakllangan boy madaniyat durdonalarini saqlab qolish va kelajak avlodlarga uzaqishda faoliik ko'rsatishdi.

Mustaqil O'zbekiston davlatining shakllanish jarayoni, uning jamiyatni demokratlashtirish va dunyo hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvi yo'lidagi harakati ma'naviy madaniyatni rivojlantirish va mustahkamlash masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu bugungi kunda ham, milliy-madaniy siyosat darajasiga ko'tarilgan eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash – doimiy ma'naviy va katta axloqiy-estetik ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda ijtimoiy taraqqiyotning barcha yo'nalishlari bo'yicha yirik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda: o'lkamizning ob'ektiv, haqqoniy tarixining tiklanishi, jahon madaniyati durdonalaridan bahramandlik; xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi; diniy erkinlik, dinlararo bag'rikenglik; ijtimoiy instittlarga tegishli vazifalarning kengaytirilishi; me'moriy yodgorliklar va madaniy ob'ektlarning ta'mirlanishi va qurilishi, xalq an'analarini va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurban hayiti)ning qayta tiklanishi; yangi bayramlatning (Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ustoz va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni)ning hayotga tatbiq etilishi; Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziyy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad YAssaviy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk mutafakkirlarimiz merosining o'rganilishi; YUNESKO rahbarligida

atoqli fan, madaniyat, davlat arboblari – Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniyalarning, Buxoro, Xiva SHahrisabz, Qarshi, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlar yubileylarining o‘tkazilishi; arxitektura yodgorliklarining ta’mirlanishi; xalq san’atini rivojlantirish, kino, teatr, musiqa sohasida xalqaro forumlar, festivallarning tashkil qilinishi (Xalqaro kinofestivallar, “Navro‘z”, “Sharq-G‘arb”, “Xumo-98” teatr festivallari, “Sharq taronalari” musiqa festivali va boshqalar); mashhur adiblar, rassomlar, haykaltaroshlar, sozandalar, aktyorlar, rejissyorlar, dirijyorlar, kompozitorlar, shuningdek O‘zbekiston fani va madaniyati tarixiga munosib hissa qo’shgan olimlar tavallud kunining muborak bos etilishi; yangi madaniyat ob’ektlari (Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog’, Amir Temur muzeyi, Xasti imom majmuasi, Amir Temur, Navoiy, Ulug‘bek, Imom-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniy haykallari)ning keng ko‘lamda bunyod etilishi; “Ma’naviyat va ma’rifat”, “O‘zbeknavo”, “O‘zbekraqs”, “O‘zbekkino”, “O‘zbekteatr”, “O‘zbekmuzey”, O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi kabi markaz va birlashmalarning tuzilishi zamonaviy hayot bilan aloqani ta’minlashga, milliy madaniyat yutuqlarini keng targ‘ib qilishga da’vat etib kelmoqda.

Respublika ijodiy salohiyatini shakllantirish ishidagi yaratuvchanlik yo‘nalishini bolalar ijodiyoti misolida ham kuzatish mumkin. Respublika miqyosida “Biz O‘zbekiston bolalarimiz”, “Cheksiz go‘zallik”, “Boysun bahori” xalq raqslari festivali, “Ustalar shahri” ko‘rgazmalari, “Asfaldagi rasmilar”, “Molbert (dastgoh)da tasviriy san’at”, “Ko‘hna afsonalar tabassumi” va boshqa nomlar ostida ko‘rik-konkurslar o‘tkazildi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov kabi atoqli hofizlar xotirasiga bag‘ishlangan tanlovlari esa yangi-yangi yosh sozanda va xonandalarni aniqladi va ularning iste’dodini yanada rivojlantirishni kuchaytirdi.

Mustaqillik yillarida tashkil etilgan turli xil tanlovlari, festivallari, ko‘rgazmalar, yarmarkalar va boshqalar (“O‘zbekiston – Vatanim manim” qo’shiqlar tanlovi, “Iste’dod-1995” iste’dodli yoshlar tanlovi, bolalar spektakllari tanlovi, “Marhabo, talantlar”, oilaviy ansamblar telefestivallari, askiyaboz va qiziqchilar bellashuvlari, xalq ustalari asarlarining birinchi respublika yarmarkasi, sirk san’ati, qo‘g‘irchoq

teatrлари festivallari, amaliy san'at rassomлари va ustalaжining Xalqaro mavzuviy ko'rgazmalardagi ishtiroki, Markaziy ko'rgazmalar zalidagi 1999 yilgi "Aziya-art" mintaqaviy ko'rgazmasi, 1999 yilda o'tkazilgan o'zbek rassomchiligi va grafikasi bahorgi vernisaji va boshqalar); o'zbek teatrining atoqli arboblari M. Qori-YOqubov, L.Sarimsoqova, H.Umarov, M.Uyg'ur, R.Hamroev va boshqalarining xotira kunlari respublika madaniy hayotining faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Ijodiy mehnatni rag'batlantirishning xilma-xil usullari, shu jumladan, yosh iste'dodlarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ulaming eng yaxshilarini xalqaro maydonlarga olib chiqish ham an'anaga aylandi.

Teatr, raqs, musiqa, tasviriy va kino san'atlarini takomillashtirish, mutaxassis kadrlar – badiiy madaniyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida 27 ta madaniy va san'at maxsus o'quv yurtlari negizida amalgalashiriladagan badiiy ta'lif tizimini isloh qilish ko'zda tutilgan. Bular: Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriysi, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi, Kamoliddin Behzod nomli badiiyat va dizayn milliy instituti, 20 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari, 2 ta maktab-internatdir.

Badiiy-ijodiy yuksalish badiiy ijodning arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa va teatr san'ati, kinematografiya, amaliy san'at kabi barcha sohalarini qamrab oldi va ularda katta o'zgarishlar yasadi.

### **Islom dininng ijtimoiy-pedagogik ahamiyati**

**Sof islomiy tushunchalarga nimalar kiradi?**

VIII asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyoda islam yoki musulmon madaniyati deb atalgan madaniyat keng yoyildi. Islom madaniyatining mintaqasi madaniyatiga aylanishi osonlik bilan bo'limgan. Faqtgina VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asr boshlarida mintaqaning uch buyuk xalqi – arab, fors va turkiy elatlararo siyosiy qudratga o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi. Islomning asl

g'oyasi – musulmon ummatining tengligi amalda joriy bo'lishiga voqe imkon tug'ildi. Shu davrdan boshlab, mintaqalari orasida islam dinining nufuzi tez oshib bordi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, xalqimiz azaldan islam dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak bir e'tirofning tasdig'idir.

Arablar istilosini turli xil an'ana, e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lgan xalqlarni birlashtirdi. Bu davrda arablar tomonidan bosib olingan hududlarda ilmiy tafakkur yutuqlarini o'zar o'mashuvni natijasida ma'naviy madaniyatning gullashi uchun shart-sharoit yaratildi.

O'rta Osiyolik ilm ahli, mutafakkirlar shu davrlardan boshlab qadimgi yunon falsafasi, fani, adabiyoti va san'atini faol o'rgana boshladilar. Antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari o'sha davrda Sharqda ilm-fan va falsafaning taraqqiy etishiga asos bo'ldi.

O'rta Osiyoda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi ulkan yutuqlar Uyg'onish davri natijasi bo'lib hisoblanadi. Bu davrda siyosat va huquqshunoslik fanlari, adabiyot va san'at, tibbiyot va falsafa fanlarida yuksak taraqqiyot ko'zga tashlandi. Inson muammosi Uyg'onish davri arboblari tomonidan ilk bor ijod va tafakkur olamiga kirib keldi va qo'lga kiritilgan barcha yutuqlar insonning o'zini kamol toptirishga hizmat qildi. Bu davr uchun o'z ijodkorlari zarur edi va tarix ana shunday ijodkorlarni yaratdi. A.V.Sagdeev ta'kidlaganidek, "SHarq falsafiy g'oyalarining o'rta asr Evropa dunyoqarashiga, undan so'ng Uyg'onish davriga ham ta'siri shak-shubhasizdir. Eng avvalo, bu ta'sir uch ulkan faylasuf: Ibn Sino (Avitsenna), Ibn Rushd, Ibn Xaldundan boshlanadi. Ibn Sinoning falsafiy merosi uch madaniy hududda: musulmon Sharqi, musulmon G'arbi va Xristian G'arbida falsafaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi." Ayniqsa Ibn Rushdnинг g'oyalari

avgustchilar orasida mashhur bo'lib, uning ta'sirini Buyuk Albert, Foma Akvinskiy, Duns Skot asarlarida ko'rish mumkin edi. Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar yaratgan ilmiy-badiiy mo'jizalar hanuzgacha dunyodagi ma'rifat ahlini hayratga soladi. Ular yaratgan asarlar, ilm-fan durdonalari, kashfiyotlar milliy madaniyatimizning faxri hisoblanadi.

O'rta Osiyo – butun musulmon olamiga nafaqat dunyoviy, balki diniy fanlar sohasida ham atoqli olimlami etishtirib bergen hudud hisoblanadi. Bu hududda etishib chiqqan olimlar islam dinining ko'pgina nazariy masalalarini tadqiq etish, hayotda joriy qilishga bebahohissa qo'shibgina qolmay, kelajak avlodlar uchun boy ma'naviy meros ham qoldirganlar. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida islam madaniyatini ravnaq toptirishga betakror hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandlaming muborak nomlarini tilga olib, ularning milliy ma'naviyatimiz rivojjidagi ulkan xizmatlarini hurmat bilan e'tirof etadi.

Musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriyning "Al jome' as-sahih" kitobi islam dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islam e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarining eng ulug'i hisoblanadi. Mana o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda.

Yana bir vatandoshimiz – Abu Iso Muhammad ibn Iso Termeziyning ma'naviy merosi, jumladan, "Sunani Termeziy" asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olim-u fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof vaadolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Imom Moturidiy asos solgan moturidiya maktabi SHarq mamlakatlarida katta shuhrat topgan bo'lib, buning sababi, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinining asosini to'g'rilik, ezzulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

Islomning musulmon olamidagi alohida ilmiy-falsafiy oqimlaridan biri tasavvuf bo'lib, u bir qancha tariqatlarga egadir. Shulardan biri bo'lmish yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviy g'oyalari zamonaviy madaniy-insonparvarlik nazariyalariga, ayniqsa, hamohang hisoblanadi, chunki u islom diniga musulmon kishisining ruhiy dunyosini boyitish vositasi sifatida qaragan, shuningdek, ilohiy tuyg'ularni badiiy ijod – she'riyat orqali ifodalagan. Uning hikmatlarida insonparvarlik ruhi yaqqol ufurib turadi, zero YAssaviy ularda insonni Olloh yaratgan eng go'zal mo'jiza, hurmatga sazovor oliy mavjudot deb ta'riflaydi.

YAssaviy ta'limoti Sharqiy Turkiston (Xitoy), Qozog'iston, Kichik va Markaziy Osiyo)da qariyb XVII asrgacha keng tarqalgan va bu mintaqalarda islomning mavqeini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Yassaviy o'z ijodi va faoliyati orqali nafaqat Markaziy Osiy xalqlarining madaniy va ma'naviy hayotida, balki butun musulmon olamida butunlay yangi bir davrning namoyandasi hisoblanadi. Uning tariqati tasavvuf va so'fiylik ta'limotining muhim tarmoqlaridan birini tashkil qilsa, ta'limoti va ijodi turkiy tasavvufiy falsafa va she'riyat taraqqiyotining ma'naviy poydevori hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan yana bir yirik tasavvufiy ta'limoti "Naqshbandiya" tariqatidir. Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband (1318-1389) asos solgan va rivojlantirgan bu tariqatning ma'nosи musulmonchilikda eng asl fazilatlarni – yaxshilik va halollikni, adolat va sahovatni targ'ib qilishdir. "Dil ba yoru, dast ba kor" ya'ni "Doimo ko'ngling Ollohda bo'lsin, qo'ling esa ishda" degan g'oyani ilgari surish orqali, Olloh va haqiqatni, kishilar o'tasida tenglikni, fidokoronalikni targ'ib qiladi.

Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni "Bahouddin Balogardon" deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning "Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hayotbaxsh hikmati dinimizning

olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki, shu bugun aytigandek jaranglaydi.

### **Hadislarda ijtimoiy-pedagogik fikrlarning yoritilishi**

#### **Hadisshunoslik maktablari haqida nimalarni bilasiz?**

Islom dinida «Qur'oni Karim»dan so'ng asosiy manba sanalgan «Hadisi sharif»larda ham ijtimoiy tarbiya masalalari keng ochib berilgan. Hadislar – payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom-ning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zları, pand-nasihatlaridir. Pedagogika tarixidan ma'lumki, islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Anna shu muhaddislar orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxony (810-870) eng ishonchli hadislarni jamlab, «Al jome as-sahih» kitobini meros qoldirganligi bilan alohida hurmatga sazovor.

Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onasi va kattalarga, qarindoshlarga g'amho'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari ota-onaning farzand oldidagi, shuningdek, farzandning ota-onasi oldidagi burch va vazifalari ham o'z ifodasini topgan.

Ota-onani hurmat qilish, ularni hech qachon dilini ranjitmaslik, itoatli bo'lish, keksayishganida moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ular qurgan oila deb atalmish qal'aning axloqiy-ma'naviy poydevorini mustahkam saqlash, an'analami doimiy davomchilari bo'lishularning do'stlari, yoru birodirlarining ham izzat-hurmatlarini joyiga qo'yish, olamdan o'tganlarida ham xotiralarini doimo qadrash va yod etish – farzandning burchidir.

Abdulloh ibn Amir rivoyat qiladilar:

«Bir odam Nabiy sallallohu alayhi vassallamga: «Jihod qilmoqchiman», - dedi. Janob Rasulluloh «(Avval) ota-onangning xizmatini qilib roziligini olgin, so'ng jihod qilgin!» - dedilar.»

Yoki: «Nabiy sallallohu alayhi vassallamdan: «Olloh taolo **azza** va jallaga qaysi amal maqbulroqdir?» - deb so'riganlarida, u kishi: «Ota-onaga itoat etmoqdir». «Inson o'z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo'lzin, deb vasiyat qildik!» deydilar».

Ayniqsa, hadislarda farzandning ona oldidagi qarzi ko'pligi takror-takror aytildi. Abu Hurayra rivoyat qiladilar: «Bir odam Rasululloh sallallohu alayhu vassallamning huzurlariga kelib: «Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?» deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» - deb aytdilar. U «yana kim» - deb so'radi. Janob Rasulul-loh: «Onang!» - dedilar. U «yana kim» - deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» - dedilar. U «yana kim» - deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): «Otang!» - deb javob qildilar».

Ota-onalar bolaning mushkul kunlarida tarbiya qilib, kishilik darajasiga etishiga sabab bo'lganliklaridan, Alloh taolo ularga itoat qilishni vojib qilib, ularga qattiq so'z ayfishtan ham tiygan. Hatto ularga qarshilik qilishni o'ziga qarshilik qilish kabi buyuk gunohdan sanagan. Shuning uchun: «Otaga buysunmoq, Alloha bo'ysunmoqdir. Otani norozi qilmoq, Allohn ni norozi qilmoqdir», deb hadislarda ko'rsatma berilgan.

Hadislarda azaliy «qaytar dunyo» haqidagi fikrlar ham o'zining aniq ifodasiga ega. Ota-onalarini go'zal parvarish qilib, ularning hurmatli kishilar ekanini yosh bolalarga ham bildira olgan kishilar, o'z bolalaridan izzat topganlari holda, yosh bolalari oldida ota-onalarini kamsitgan, ularni hurmat qilmagan kishilar o'z bolalaridan ham shuni ko'radilar. Uzr so'rab kelgan kishilarning so'zini qabul etmagan shafqatsiz kishilar qiyomatda Rasuli akramning shafoatidan mahrum bo'lish bilan qo'rqitilganlar: «Birovning xotini bilan zino qilishdan saqlansangiz, o'z xotinlaringiz ham o'z iffatlarini saqlaydilar. Otalaringizni hurmat qilingiz, bolalaringiz sizni ham hurmat qiladilar. Bir kishiga birodari o'zining gunohsiz

ekanini bildirib, uzr tilab kelsa, haqli-haqsiz bo'lsa ham, uning so'zini qabul etsin.  
Agar shuni qabul etmasa, mening qo'limdan suv icha olmas».

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbek xalq pedagogikasida qnday ijtimoiy-pedagogik masalalar qamrab olingan?
2. O'zbek xalq etnografiyasining ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi o'mini qanday baholaysiz?
3. Islom dinining tarbiyaviy ahamiyati va sof Islom g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi o'mini yoritib bering.
4. Tasavvuf ta'limotidagi ijtimoiy-pedagogik g'oyalarini konseptual jadval asosida tahlil qiling.
5. Hadislarda olg'a surilgan ijtimoiy-pedagogik g'oyalar asosida o'quv loyihasi tayyorlang.

## II MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING KONTSEPTUAL ASOSLARI

### 2.1.-\$. Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida

#### “Ijtimoiy pedagogika” tushunchasi

#### “Ijtimoiy” tushunchasi nimani ifoda etadi?

Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy pedagogika” tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Masalan, Yu.V.Vasil'kova mazkur fanni “alohida shaxs yoki guruohni tarbiyalash, o'qitish nazariyasi va amaliyotidir” deb ta'kidlaydi.

A.V.Mudrikning fikricha, “Ijtimoiy pedagogika — barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o'r ganuvchi pedagogika” dir.

V.D.Semenov ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasini “Ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan”, — deb hisoblaydi.

I.P. Podlasiyning “Pedagogika” darsligida quyidagicha ta’rif mavjud: “Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta’siri qonuniyatlarini o’rganuvchi fandir”.

Ijtimoiy pedagogika — shaxsnинг ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o’rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali metodlarini va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ulami qo’llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o’rganadigan, mutaxassislarini ijtimoiy tarbiya va ta’lim usullari hamda texnologiyalar bilan ta’minlaydigan fan, deb ta’rif bersak, o’rinli bo’ladi.

### **“Ijtimoiy pedagogika” fanining obyekt va predmeti**

#### **Pedagogika fanining obyekt va predmetini nima tashkil etadi?**

Ijtimoiy pedagogika fani pedagogika singari ta’lim-tarbiya jarayoni va hodisalarini o’rganadi. Biroq ular o’ziga xos yo’nalishlarni va xususiyatlarni tadqiq qildi. Bu fanning o’ziga xos xususiyati undagi “ijtimoiy” so’zida mujassamlashgan. “Ijtimoiy” (lotinchada socialis – umumiy, ijtimoiy) tushunchasi orqali insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog’liq barcha jarayonlar tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o’sib kelayotgan avlodlarning ta’lim-tarbiysi haqidagi fan bo’lsa, ijtimoiy pedagogika — ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyatga, ijtimoiy muhitga kirib borishi, qo’shilishi (integratsiyasi) bilan bog’liq xodisalarini o’rganadigan fan. Bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani egallashi (bilim, qadriyat, axloq me’yorlari va boshqalar) ijtimoiylashuv deyiladi.

Shunday qilib, agar biz ijtimoiy pedagogika fanining mohiyatini uning ob’ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo’lsak, quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ob’ekti – bu bola, ijtimoiy pedagogikaning ob’ekti esa xulqi va me’yorida og’ishish bo’lgan bola. Xuddi shunday o’rganish predmetlarida ham farq bor. Pedagogikaning o’rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatları hisoblansa,

ijtimoiy pedagogikaning predmeti – bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatları hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu ikki fanning uzoq tarixiy aloqasiga qaramay, ulaming o'ziga xos vazifalari tufayli uzoqlashish ro'y berdi. Umumiy pedagogikaning o'ziga xos vazifasi ta'lim-tarbiyadir. Bola va bolalikni himoya qilish esa ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega. Mazkur vazifalarni umumlashtirgan tarzda uch katta guruhga ajratib ko'rsatish mumkin: nazariy, amaliy va insonparvarlikka oid.

Nazariy vazifalar ijtimoiy pedagogika oid bilimlarni to'plab, zamonaviy jamiyatda o'r ganayotgan jarayon va hodisalarining to'liq tasvirini nazariy jihatdan yoritib berishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalar bolalar ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yunalishlardagi ta'simi samarali takomillashtirish ishlarni aniqlash bilan bog'liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1) bola (o'smir) ongida yaxshilik, adolat, yaqinlariga, ijodga, o'zaro tushunishga muhabbatni tarbiyalash;
- 2) inqirozli vaziyatlardan mustaqil ravishda chiqish maqsadini qo'yish, vaziyatlardan chiqish yo'llarini to'g'ri tanlash, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'r ganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlash;
- 3) atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma'nnaviy xususiyatlari, jamiyatdagi huquq va majburiyatlni bilishga intilishni shakllantirish;
- 4) g'urur, mustaqillik, o'ziga ishonch hissini rivojtantirish;
- 5) bola (o'smir)da oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala madaniyatini oshirish. Bunda ijtimoiy pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi, shuningdek, bolaga ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq me'yorlariga suyangan holda insonlar, shaxs va jamiyat o'ttasidagi nizolarni echishga o'r gatishi kerak.

Insonparvarlik vazifasi shaxsning rivojlanishida o'z- o'zin takomillashtirish uchun sharoitlar yaratib beruvchi, ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtiruvchi, qo'yilgan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda

insoniylikka asoslanishda o'z ifodasini topadi. Zamona viy ijtimoiy pedagogikaning insonparvarligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik emas, balki o'zaro tushunishga asoslanishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlarini shakllantirishga, unda jamiyat qabul qilgan hislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogikaning tarbiyaviy, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy reabilitatsion vazifalarini ham alohida 113 tashkillashtirish, muammolarini hal qilishda maslahatlar beruvchi tashkilotlar ishini takomillashtirish tashkil etadi. Ijtimoiy reabilitatsion vazifa nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishni o'z ichiga oladi.

### **Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish**

#### **Ijtimoiy ishni tashkil etishga doir xorij tajribasi haqida nimalarни bilasiz?**

Buyuk Britaniyalik olim Terri Myorffining yozishicha, «So'nggi yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy ish tez rivojlandi va mamlakat hamda ijtimoiy xodim kasbi mintaqada faoliyatning ushbu turida o'zining etakchi roldan faxrlanishi uchun barcha asosga ega».

Ijtimoiy ish sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga doir Davlat talablarini ikki yo'nalishga ko'ra tasnif etish mumkin: umumkasbiy va ixtisoslik fanlari.

Umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha mutaxassis quyidagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim:

1) ijtimoiy hayot va ijtimoiy ish uyg'unligi; ijtimoiy ish metodologiyasi; ijtimoiy ishning jamiyatdagi o'rni; ijtimoiy ishning asosiy rivojlanish bosqichlari; ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlari; ijtimoiy fikr, yondashuv, nazariyalar; jahon mamlakatlari ijtimoiy ish tajribasi; ijtimoiy ish turlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

2) turli ijtimoiy institutlariga individual yordam ko'rsatish; bolalikni muhofaza qilishning mazmun va mohiyati; oila va onalikni muhofaza qilishga doir ijtimoiy xizmatni tashkil etish; inson va madaniyatning o'zaro harakati; insonning rivojlanishidagi submadaniyatning ahamiyati; ijtimoiy xizmat tizimida ijtimoiy-

pedagogik o'zaro harakat metodikasi; ijtimoiy himoya siyosati; ijtimoiy muhofaza va uning o'ziga xosliklari; ijtimoiy ishning asosiy komponentlari konsepsiyalari, paradigmalar; ijtimoiy ish prinsiplari; ijtimoiy ish metodlari, texnologiyalari; ijtimoiy ish turlari va bosqichlari; ijtimoiy ishni tahlil qilish va baholash; ijtimoiy harakat; ijtimoiy xizmat tizimining rivojlanishi; ijtimoiy xizmat xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash asoslari; ijtimoiy guruhlar va qatlamlar; turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarda ijtimoiy munosabatlarni o'rganish dinamikasi; imkoniyati cheklanganlar bilan ishlash; turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning tarbiyaviy hamda psixologik tamoyillari; oilani ijtimoiy himoyalash tamoyillari; ijtimoiy ishni tashkil etishning huquqiy asoslari; ijtimoiy ish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni tashkil etish; mahalla va uning jamiyat hayotidagi o'mi; O'zbekistonda ijtimoiy himoya va muhofaza tizimini tashkil etishda mahalla institutining o'mi; oilaviy munosabatlarni shakllantirishda ularning muammolarini o'rganish; nogironlik muammolari ularni bartaraf etishdagi ijtimoiy ishning o'mi; ijtimoiy ishni tashkil etishda ijtimoiy institutlardan foydalanish; tashxis, korreksion-pedagogik, reabilitatsion ishlar; shaxsni shakllantirishning psixologik mexanizmlari; sog'lom turmush tarzi biologik va ijtimoiy muammo ekanligi; salomatlik va uni aniqlovchi omillar; sog'lom turmush tarzning ijtimoiy-psixologik jihatlari; salomatlikni shakllantirish bosqichlari; kasallikni birinchi, ikkinchi va uchinchi profilaktika qilishda ijtimoiy xodimning rolini bilishi, malaka hoslil qilishi va amalda qo'llay olishi;

3) o'z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtidan unumli foydalanish; o'z mahoratini tinmay oshinib borish; ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga singdirish; mahallada va jamoada ijtimoiy ishlarni rejalashtirish; sotsiologik metodlardan unumli foydalanish; qariyalarga, tarbiyachi og'ir va huquqbuzar bolalarga xizmat ko'rsatish; soha terminlarini bilish; ijtimoiy ish etiketlariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Bo'lajak ijtimoiy ish xodimi nafaqat zaruriy kasbiy bilimlarga, balki mavjud kasbiy-axloqiy me'yor va tamoyillarga amal qilishga doir shaxsiy tayyorgarlikka ega

bo'lishi lozim. Ijtimoiy xodim kasbi o'ziga xos odob me'yorlari majmuiga ega bo'lib, ularni olti guruhga bo'lish mumkin:

2) ijtimoiy xodim xulqi va qiyofasi (xulqning oliv namunalariga, ijtimoiy xodimiga munosib bo'lganlariga amal qilish; o'z kasbiy malakasini takomillashtirish; ijtimoiy xodim kasbiy majburiyatlarini to'g'ridan to'g'ri o'z majburiyatları sifatida qarash; o'z xulq-atvori kasbiy vijdonlilikning yuqori namunalari bilan qiyoslash; ilmiy tadqiqotlar olib borishda tegishli shartnomalarga amal qilish);

3) o'z mijozlariga nisbatan ijtimoiy xodimning odob majburiyatları (mijozlarga munosabat bo'yicha mas'uliyatni o'zining to'g'ridan-to'g'ri mas'uliyati sifatida qarash; ularda yuqori darajada mustaqillikning yuzaga chiqishiga ko'maklashish; mijozlardan olingan ma'lumotlarni tarqatmaslik; ko'rsatilayotgan yordam va mijozlar imkoniyatidan kelib chiqib, gonorar belgilash);

4) o'z hamkasblariga nisbatan ijtimoiy xodimning odob majburiyatları (o'z hamkasblariga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lish; ularning mijozlari bilan kasbiy to'la safarbar holda ish olib borish);

5) hamkorlik qiladigan tashkilotlariga munosabat bo'yicha ijtimoiy odob majburiyatları (tegishli tashkilotlar oldidiga majburiyatlariga sodiq bo'lish);

6) o'z kasbiga nisbatan ijtimoiy xodimning odob majburiyatları (o'z kasbi ijtimoiy ahamiyatini tushunishga ko'maklashish; o'z ijtimoiy yordamini aholi keng qatlamiga etib boradigan tarzda bo'lishiga erishish; o'z kasbiy faoliyatida bilimlardan foydalanish);

7) jamiyatga nisbatan ijtimoiy xodimning odob majburiyati (umumiy farovonlik oshishiga hissa qo'shish).

### Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon.

**Ijtimoiylashuv masalasini o'rghanish va tadqiq etishga qanday zarurat mavjud?**

"Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "Falsafa. Qisqacha izohli lug'at"da quyidagicha sharhlangan: "Jamiyatning muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni

o'zlashtirish jarayoni". "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "ijtimoiylashmoq" tushunchasi "ijtimoiy tus olmoq" ma'nosini anglatilishi ko'rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq, uni ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazzardan tahlil etilganda tushuncha mazmunini keng, bat afsil yoritish taqozo etiladi. Zero, "ijtimoiy tus olish" aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. SHaxsnинг ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o'r ganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.V.Mudrik mazkur tushuncha mohiyati "madaniyatni o'zlashtirish va qabul qilish jarayonida insonning rivojlanishi hamda o'z-o'zini o'zgartirib borishi" dan iboratligiga e'tiborni qaratib, ijtimoiylashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilar ekanligini ko'rsatadi.

1. Bolalik davri: 1) chaqaloqlik (tug'ilgandan l yoshgacha); 2) ilk bolalik (1-3 yosh); maktab yoshigacha bo'lgan bolalik (3-6 yosh); 3) kichik maktab yoshi (6-10 yosh).

2. O'smirlik davri: kichik o'smirlik yoshi (10-12 yosh); katta o'smirlik yoshi (12-14 yosh).

3. Yoshlik davri: ilk o'spirinlik yoshi (15-17 yosh); o'spirinlik yoshi (18-23 yosh); yoshlik (23-30 yosh).

4. Yetuklik yoshi: ilk etuklik yoshi (30-40 yosh); etuklik yoshi (40-55 yosh); qarilik yoshi (55-65 yosh).

5. Keksalik yoshi: keksalik (65-70 yosh); nuroniylilik yoshi (70 yoshdan yuqori).

Bizning nazarimizda, muallif tomonidan shaxsnинг ijtimoiylashuv davri to'g'ri ko'rsatilgan. Biroq, bu o'rinda etuklik yosh davrlarining muayyan bosqichi sifatida 30-60 yoshlarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda inson "jismoniy jihatdan to'la rivojlanadi, kamolotga erishadi". Aynan bu davrda u ijtimoiy jihatdan faollashadi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. 60 yoshdan keyin esa o'rta hisobda olganda aholining fiziologik, jismoniy hamda ijtimoiy faolligida pasayish yuzaga kelib, organizm faoliyatining asta-sekin zaiflasha borishi

tipik xususiyat kasb etadi. Mazkur holat, bir guruh shaxslarning ijodiy faoliyklarini inobatga olmaganda keksalikning asosiy belgisi bo'lib qoladi.

R.S.Nemov esa shaxs ijtimoiylashuvining bevosita ta'lim va tarbiya ta'siri ostida ro'y beruvchi jarayon va natija ekanligiga alohida urg'u beradi: bola tomonidan psixologik-aqliy va shaxsiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilishi, ya'ni ta'lim va tarbiya ta'sirida psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarning o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Darhaqiqat, shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillaming ta'siri muhim ahamiyatga ega. Biroq, bizning nazarimizda R.S.Nemovdan farqli ravishda shaxs ijtimoiylashuvida uning psixologik funksiyalarini takomillashuvi muhim ekanligini inkor etmagan holda globallashuv sharoitida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarning o'zlashtirilishi, dunyoqarashning boyishi o'rinn tutishini qayd qilmoqchimiz.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalaydi. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

1) shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri etakchi o'rinn tutadi (J.Piaje, A.V.Mudrik);

2) bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, otonalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega (Z.Freyd);

3) shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi (J.Piaje);

4) shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va

axloqiy sifatlarga ega bo'ladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihatı hisoblanadi (T.Persons, R.Beyla);

5) shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi (R.Benedikt, M.Mid);

6) ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi (Z.Freyd, T.Persons, R.S.Nemov).

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Ijtimoiy pedagogika tushunchasiga ta'rib bering.
2. Ijtimoiy pedagogikaning obyektini aniqlashtiring.
3. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning aloqadorligini bayon eting.
4. Ijtimoiylashuv deganda nima tushuniladi.
5. Insert yordamida ijtimoiylashuvning mohiyatini aniqlashtiring.

## **2.2.§. IJTIMOIY PEDAGOGNING KASBIY FAOLIYATI**

### **Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi**

**Pedagog va ijtimoiy pedagog tushunchalarini Venn diagrammasi orqali taq qoslang.**

Ijtimoiy pedagog kasbi respublikamizdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayot o'zgarishlari natijasida paydo bo'ldi. Mazkur kasbning ahamiyati – aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy-madaniy muhitni insonparvarlashtirish, shaxsning ijtimoiy shakllanishag ta'sir etish.

Ijtimoiy pedagog kasbi xilma-xil mutaxassisliklarni o'zida aks ettiradi – keng sohada: oila pedagog-psixolog, etnolog, ijtimoiy yurist, valeolog, torroq sohada – aholining aniq qatlami: nogironlar, bolalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xodim. O'zida xilma-xil kasblarga xois jihatlarni aks ettirganligi bois, mazkur soha integral tavsifga ega. Muhtojlarga yordam berish bilan avvaldan pedagog, psixolog, tibbiyot

xodimlari va boshqa mutaxassislar shug'ullanishgan, keyinchalik alohida soha – ijtimoiy pedagog kasbi paydo bo‘ldi.

Umuman olganda, faoliyatning mazkur sohasi o‘zining aniq belgilangan funksiyalariga ega: diagnostik, tashkilotchilik, bashoratlash, himoya-muhofaza, profilaktik, tashkilotchilik-kommunikativ.

Ijtimoiy pedagoglarning kasbiy faoliyat modeli bir qator tamoyillarga rioya qilishni talab etadi:

- insonparvarlik – shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarini ochib berishda talabani individuallik sifatida ko‘rib chiqish;
- sub’yektga xoslik – kasbiy faoliyat sub’ekti sifatida o‘zini shakllantirish;
- faollik – talabaning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish.

### **Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy bilimdonlik**

#### **Kasbiy faoliyat tushunchasiga izoh bering**

M.A.Galaguzova tahriri ostida chop etilgan o‘quv qo‘llanmasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish quyidagi bilimlardan xabardor bo‘lishni talab etishi ko‘rsatilgan:

- faoliyatning me’yoriy-huquqiy asosi (qonunlar, qonun osti hujjatlari, qarorlar, ko‘rsatmalar, ijtimoiy pedagog faoliyatining ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, bolaga yordam ko‘rsatuvchi muassasalar tizimi);
- ijtimoiy pedagogika tarixi va nazariyasi;
- turli ijtimoiy muhitdagi turli toifadagi bolalar bilan ishlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasi;
- bolani, uning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy rivojini, mo‘‘tadil va turli og‘ishlar ko‘zga tashlanuvchi xatti-harakatlarini o‘rganuvchi yosh psixologiyasi;
- insonlarning birlashma va guruhlari (oila, kichik guruh, maktab jamoasi, tengdoshlar jamoasi va b.sh.lar)ni o‘rganuvchi sotsiologiya;
- kasbiy tadqiqotchilik faoliyatni ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish metodlari

Ijtimoiy-pedagog quyidagi bilimlarning samarali o'zlashtirishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) shaxsnинг ijtimoiy kamolotini ta'minlovchi ijtimoiy-falsafiy va psixologik bilimlar (dialektika qonuniyatları, shaxsnинг dinamik rivojlanishi, psixologik rivojlanish konsepsiylarini yorituvchi qarashlar, psixologik omillar va ularning shaxs tarbiyasiga ta'siri, psixologik zo'riqishlar va salbiy ijtimoiy omillarni bartaraf etish yo'llari, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ruhiy birlik va h.o.lar);
- 2) umumpedagogik bilimlar (asosiy pedagogik g'oyalari, konsepsiylar, qonuniyatlar, shu jumladan, pedagogik hodisalarining rivojlanish qonuniyatlarini bilish (ta'limning itimoiylashuvi, ta'lim-tarbiya maqsadlari, mazmuni va uslublari, davlat va jamiyat talablarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar bilan belgilanishi, pedagogik jarayonning izchilligi, yaxlitligi, pedagogika nazariyasi va amaliyotining dialektik aloqadorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadlari, mazmuni, uslublari va shakllarining mushtarakligi, tarbiyaga nisbatan har tomonlama yondashuv, bolaning yoshini va rivojlanish darajalarini hisobga olish va h.o.lar); pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik fakt (dalil)larni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiyl uslubi haqidagi amaliy bilimlami egallash va b.sh.lar);
- 3) ixtisoslik bilimlari (ijtimoiy-pedagogik faoliyat va maktabgacha ta'lim mazmuni, metodikasi va texnologiyasi, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oilada ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'llari, ijtimoiy-pedagogik yordamga muhtoj sub'ektlar, ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo'nalishlari, muayyan yo'nalishlar, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish maqsadi, salbiy ijtimoiy-pedagogik omillarni bartaraf etish shartlari, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida sub'ektlar o'rtaсидаги hamkorlik mazmuni, ijtimoiy-pedagog oldidagi vazifalar, ijtimoiy-pedagogik ta'sir shakli, metod va vositalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat natijalari); maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga moslashtirish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish va ta'lim olishga tayyorlash, maktabgacha

ta'lismuassasalari tarbiyalanuvchilarida jismoniy kamchiliklar va salbiy xulqatvorlami to'g'rilash va h.o.lar);

4) metodik bilimlar (maktabgacha ta'lismoshi bolalari bilan muloqot qilish, ular o'rtasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish, tarbiyachilar, ota-onalar hamda katta yoshli oila a'zolari bilan maktabgacha ta'lismoshi bolalari o'rtasida yuzaga keluvchi kelishmovchiliklarning, oila tarbiyasidagi ziddiyatlarning oldini olish, tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy muloqot, munosabat va faoliyatni tashkil etish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish; samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish yo'llari va boshqalar).

M.A.Galaguzovaning umumiy tahriri ostida chop etilgan "Ijtimoiy pedagogika. Ma'ruzalar kursi" nomli o'quv qo'llanmada ijtimoiy pedagog tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan kasbiy malakalar sirasiga:

- baholovchi (ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan va bolaning holati hamda rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlarning nazariy tahlili, bola holati va uning atrofidagi muhit tahlili, bola duch kelayotgan muammolar, muayyan muammoni hal etish bo'yicha amalga oshiriluvchi hamkorlik faoliyatining tahlili) malakalar;

- bashoratlovchi (bola muammolarining hal qilinishini bashoratlovchi echimlarini ifodalovchi, duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hisobga olgan holda bola shaxsi rivojini bashoratlovchi) malakalar;

- loyihalovchi (rejalashtirilayotgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradigan faoliyat mazmunini aniq belgilovchi) malakalar;

- bajaruvchi (ijtimoiy pedagog faoliyati har bir bosqichida o'z-o'zini tahlil etishni, faoliyatning ijobiy va salbiy tomonlarini anglashni hamda olingan natjalarning bola shaxsini aks etish darajasini va unga tegishli muammolarning hal etilishini ifodalovchi) malakalar;

- muloqot (shaxslararo munosabatlarni tashkil etish madaniyatini: maqsadga yo'naltirilganlik va diqqat bilan bolani "eshita va tinglay olish" malakasi; muloqot vaziyatiga kira olish va aloqani o'mata olish malakasi; bola muammolarini anglash uchun zarur bo'lgan axborotlarni ko'ra olish va dalillarni yig'ish malakasi; bolaga

muloqot vaziyatini engillashtira olish, salbiy hissiy kayfiyatda ham muloqotni tashkil etish va rivojlantirish malakasi; bolaning og'zaki muloqoti va amaliy xattiharakatlarini nazorat qilish va tartibga solish malakasini o'z ichiga oluvchi) malakalari kiritilgan.

M.G.Davletshinning ko'rsatishicha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnomada bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va b.sh.lar);

- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va b.sh.lar);

- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamон pedagogikasining metodologik bilimlами egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tibomi taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik takt va h.o.lar);

- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va b.sh.lar);

- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o'ziga jalgan etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va h.o.lar);

- gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olish, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va b.sh.lar);

- ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va h.o.lar).

Manbalarda shaxs va kasbiy sifatlar majmuuni ifodalashga nisbatan yana turli yondashuvlar mavjud. Ana shunday yondashuvlardan biri bevosita ijtimoiy pedagogga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni yoritishga yo'naltirilgan. Unga

ko'ra ijtimoiy pedagog o'zida: insonparvarlik sifatlari (mehribonlik, altruizm, o'z qadr-qimmatini anglash hissiga egalik va b.sh); ruhiy xislatlar (ruhiy kechinmalar jarayonini tabiiy hodisa sifatida qabul qilish, ruhiy holatning barqarorligi, yuqori darajada hissiy va irodaviy sifatlarga egalik); ruhiy baholash sifatlari (o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash); psixologik-pedagogik sifatlari (muloqotga kinishuvchanlik, o'zgalarni tushuna olish, xushmuomalalik va h.o lar)ni namoyon eta olishi zarur.

### Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari

#### Shaxs faoliyati sohalariga izoh bering.

Ijtimoiy pedagogikaga oid manbalarda ta'lif muassasalarida tashkil etiluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar ekanligi ko'rsatiladi:

- tashxislash;
- bashoratlash;
- moslashtirish;
- qayta tiklash (korreksion reabilitatsiya);
- muhofazalash;
- oldini olish (profilaktika);
- ijodiy rivojlantirish (evristik).

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lif muassasalarida tashkil etiluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunida ham bevosita aks etadi. Ushbu yo'nalishlarga muvofiq ta'lif muassasalarida quyidagi ijtimoiy-pedagogik vazifalar hal etilishi zarur:

1) tarbiyalanuvchilarning fiziologik va psixologik rivojlanish darajasini o'rGANISH va baholash, ularning muayyan sohalar (mas., musiqa, tasviriy san'at, sport, raqs, ilmiy fanlar) bo'yicha qobiliyatlarga egaliklarini aniqlash asosida ularning umumiy kamoloti darajasini tashxislash;

2) tarbiyalanuvchilarda ko'zga tashlanuvchi qobiliyat yoki fiziologik, psixologik holatlarini inobatga olgan holda ularning ma'lum muddatlar (3, 5 va undan ortiq yillar)dagi rivojlanish darajasini taxmin qilish (bashoratlash);

3) bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularda oila, ta'lif muassasalari, shuningdek, mikro va makro guruhlar (tarbiyalanuvchi mansub bo'lgan guruh (o'rtoqlari, tengdoshlari davrasi) hamda ijtimoiy muhitda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishga, ta'lif olishga tayyorlash (ijtimoiy moslashtirish);

4) tarbiyalanuvchilarning fiziologik va psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlash va ulami bartaraf etish maqsadida maxsus faoliyatni yo'lga qo'yish (qayta tiklash);

5) bolalarning haq-huquqlarini himoyalash, ularning jismoniy (tan jazosi berish, og'ir mehnatga jalb etish) va psixologik (salbiy ruhiy ta'sir ko'rsatish, qo'rqtish, vahimaga solish, ta'ziq o'tkazish) jihatdan kamsitilishlarining oldini olish, ularga nisbatan ko'rsatilayotgan har qanday zo'tavonlikni bartaraf etish (ijtimoiy muhofazalash);

6) tarbiyalanuvchilaming xulqi ("tarbiyasi og'irlilik", huquqbuzarlik, axloqsizlik) va jismoniy-ruhiy rivojlanishdagi og'ishlar (jismoniy nosog'lomlik, ruhiy rivojlanishda ortda qolish)ning oldini olish (profilaktika);

7) tarbiyalanuvchilarda erkin, mustaqil fikrlash, o'yin, ta'lif va mehnat faoliyatlarini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish (ijodiy rivojlantirish).

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda umumiy tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir. A.V.Mudrik tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan holda aytish mumkinki, quyidagi tamoyillar ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishi uchun metodologik asos bo'la oladi:

- ijtimoiy tarbiyaning insonparvarlik g'oyalarga asoslanishi;
- ijtimoiy tarbiyaning tabiiy va ijtimoiy jarayonlar birligiga asoslanishi;
- ijtimoiy tarbiyada umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligi;
- ijtimoiy tarbiyani tashkil etishda umumjamiyat va shaxs ehtiyojlari va qiziqishlarining inobatga olinishi;
- ijtimoiy tarbiyaning keng jamoatchilik tomonidan amalga oshirilishi;
- ijtimoiy tarbiyani tashkil etishda shaxsnı har tomonlama rivojlantirish;
- ijtimoiy tarbiyaning ijtimoiy qarashlar birligi asosida tashkil etilishi;

- ijtimoiy tarbiyaning uzlusiz, izchil, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

Ijtimoiy-pedagogik tarbiyanuvchilar va ota-onalarga yordam ko'rsatishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha etarli darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lislari lozim:

- ijtimoiy-axborot yordami (tarbiyachilarni ijtimoiy himoyalash, ularga psixologik, huquqiy va ma'naviy yordam ko'rsatish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy yordamni tashkil etish borasidagi xizmatlar ko'rsatishga oid masalar bo'yicha ota-onalarni axborotlar bilan ta'minlash, shuningdek, mактабgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat yoritishda o'zlarini ham ulardan foydalanishlari);

- ijtimoiy-huquqiy yordam (shaxs sifatida tarbiyanuvchilar huquqlarini muhofaza qilish, turli toifa va jismoniy imkoniyatlarga ega bolalarining huquqlarini himoyalash, ularning muayyan huquqlardan foydalana olishlarini ta'minlashda ota-onalar bilan hamkorlik faoliyat yuritish);

- ijtimoiy jihatdan qayta tiklash borasidagi yordam (salbiy ijtimoiy ta'sirlarga duch kelgan tarbiyachilarni ixtisoslashgan markazlar, majmualar, jamg'armalar va boshqa muassasalarda tarbiyanuvchilarni ruhiy, axloqiy, hissiy holati va salomatligini qayta tiklash xizmatlarini ko'rsatishda faol ishtirok etish);

- ijtimoiy-maishiy xizmat (ijtimoiy inqiroz yoqasida bo'lgan oilalarda yashovchi tarbiyanuvchilar uchun maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash);

- ijtimoiy-iqtisodiy yordam (ijtimoiy yordamga muhtoj boquvchisini yo'qotgan, otasi yoki onasiz (yoki vasiyosiz) tarbiyanuvchilarning vaqtiga bilan ko'rsatiladigan moddiy yordam, qoplama yordam, nafaqalar bilan ta'minlanishlariga ko'maklashish);

- tibbiy-ijtimoiy yordam (kasal bolalarni parvarishlash va ularning salomatligini tiklash chora-tadbirlarini belgilashda mактабgacha ta'lim muassasasining shifokoriga ko'maklashish);

- ijtimoiy-psixologik yordam (tarbiyanuvchilar mansub bo'lgan oila yoki kichik ijtimoiy muhitlarda qulay iqlimni yaratish);

- ijtimoiy-pedagogik yordam (tarbiyalanuvchilarning ota-onalar, tengdoshlarlar, tarbiyachilar bilan munosabatlarida yuzaga keluvchi ziddiyat va yo'l qo'shiluvchi xatolarning oldini olish).

Faoliyat maqsadi shaxsning har tomonlama (ijtimoiy, jismoniy, ma'naviy-axloqiy, aqliy) rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hissa qo'shishdan iborat bo'lgan tarbiyachilarning zimmalariga quyidagi vazifalar yuklangan:

- 1) bolalarning umumiy rivojlanishlarini nazorat qilish;
- 2) ularning sog'liklarini saqlash va salbiy ta'sirlardan muhofazalash;
- 3) bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash;
- 4) ularda ijobiy sifatlarni shakllantirish;

5) bolalarni ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish.

Ular zarur vaziyatlarda ota-onalarga ham metodik yordam ko'rsatadilar. Metodik yordam tarbiyalanuvchilarga ta'lim berish va ularda ma'lum sifatlarni tarbiyalashda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga oid pedagogik maslahatlarni berishdan iborat bo'lishi mumkin.


Tarbiyachilar tomonidan psixologik yo'nalishda tashkil etiluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyat ham muhim ikki jihat, ya'ni bolalarni ruhan qo'llab-quvvatlash hamda ularning xulqi, xatti-harakatlarida namoyon bo'layotgan salbiy odatlarni, shuningdek, jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish(tuzatish)ga qaratilgan harakatlarni aks ettiradi.

Tuzatish, ya'ni ularning xulqi, xatti-harakatlarida namoyon bo'layotgan salbiy odatlarni, shuningdek, jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish murakkab jarayon bo'lib, uning to'g'ni tashkil etilishi tarbiyachilardan pedagogik malaka, boy ish tajribasiga egaliknigina emas, shu bilan birga irodali, chidamli, sabr-bardoshli va mustahkam asab tizimiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Demak, ijtimoiy munosabatlar tobora murakkablashayotgan, bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy axloqka zid holatlarning namoyish etilishi, bolalar jinoyatchiligining ortib


borishi, bolalar kuchini ekspluatatsiya qilinishi, ekologik xavfning kuchayishi natijasida turli yuqumli kasalliklarning ko'payishi, turli mintaqalarda urush harakatlarining borishi va hokazolar) soni ortib borayotgan mavjud sharoitda bolalarni ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish ehtiyoji yuzaga keldi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida yo'lga qo'yiluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyat tarbiyalanuvchilarning umumiyligi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning oldini olish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur faoliyat bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilib, ularning har birida aniq pedagogik vazitalar hal etiladi.

Xuddi shuningdek, har bir xodim bir paytning o'zida aniq mutaxassislik bo'yicha ish olib boruvchi belgilangan kasb vakili sifatida namoyon bo'ladi va yuqorida aniqlangan tamoyillar asosida individual shaxsiy sifatlarni uzatuvchisi sifatida aks etadi. Ijtimoiy pedagog uchun kasbiy zaruriy sifatlarning uch tuzilishi mavjud (1-rasm): 1. Umumiyligi (pedagog kasbi uchun). 2. Xususiy (aniq mutaxassislik uchun – ijtimoiy pedagog). 3. Shaxsiy (aniq pedagog uchun).



1-rasm. Ijtimoiy pedagogning kasbiy zaruriy sifatlar tizimi

Mazkur uch blokning har biri o'ziga xos xususyaitlariga ega va yaxlitlikda shaxsnинг shakllanishiga ta'sir etadi, shu bilan birga shaxsiy va kasbiy sifatlarning shakllanishi bir qator omillarga bog'liq: kasbiy faoliyatning tayanch darajasi uchun zarur sifatlarning mavjudligi; kasbiy faoliyatga yo'nalganlik darajasi; shaxsiy o'z-o'zini anglash, maqsadli kasbiy faoliyatga yo'nalganlik.



2-rasm. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turlari, sohalari va vaziflari

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy pedagog kasbiga izoh bering.
3. Ijtimoiy pedagog qanday kasbiy bilimlarga ega bo'lishi lozim?
4. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo'nalişlarini bayon etng.
5. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyat sohalariga izoh bering.

### **2.3-§. IJTIMOIY PEDAGOGIKANING TAMOYILLARI**

#### **Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillari**

##### **Yaxlit pedagogik jarayon deganda nimani tushunasiz?**

Yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatları singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba'zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonuniyatlar ob'yektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishdagi, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlarından uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar(prinsiplar) deb ataymiz.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o'z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o'rGANIB chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko'rish mumkin. Shu sababli biz quyida ko'pchilik tomonidan tushunarli deb topilgan ikkita (Yu.K Babanskiy, B.T.Lixachev) tasnifini keltirib o'tishni ma'qul deb topdik.

#### **Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining Yu.K.Babanskiy bo'yicha tasnifi:**

- pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;
- ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarilik;
- tizimlilik va ketma-ketlik;

- onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta'lim oluvchilarning ijod-korligi;
- ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;
- ta'lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;
- ko'rgazmalilik;
- ongli talabchanlik bilan birligida ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- ta'lim va tarbiyaning qo'lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;
- sababiylilik, onglilik hamda ta'lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;
- tarbiyaga kompleks yondashuv.

#### **B.T.Lixachev tasnifi:**

- o'quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo'nalganligi;
- ta'lim oluvchilar faoliyatining turli turlarining o'zaro harakatini tashkil etishga kompleks yondashuvni amalga oshirishli;
- butun o'quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog'liqligi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, jamoada ta'lim va tarbiya;
  - ta'lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;
  - ta'lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbuskorliklarini hasobga olish;
  - barcha ta'lim oluvchilar hayotini estetizatsiyalash;
  - ta'lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;
  - ta'lim oluvchilaming bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag'batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg'otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;
  - ta'lim oluvchilarda barcha turdag'i fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;
  - ko'rgazmalilik;
  - tushunararlilik;
  - sababiylilik.

Umurnan olganda, yagona pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta'limga tarbiya jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

### Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tamoyillari

#### Tamoyillarni umumiyligi va xususiyiga ajratish mumkinmi?

Ijtimoiy pedagogika pedagogikadan ajralib chiqdi va tabiiyki, o'z asosida shu fan tamoyillariga tayanadi. Pedagogikadagi tamoyillar shaxs ta'limga tarbiyasining umumiyligi yo'nalishini belgilab beradi va aniq pedagogik vazifalarni hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy pedagogika fani uchun ta'limga tarbiyaning mazmunli tamoyillari bilan bog'liq quyidagi tamoyillar xosdir:

#### 1. Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unlik tamoyili.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi g'oya antik davrlarda paydo bo'lgan va bizgacha Demokrit, Aflatun, Arastu asarlari orqali etib kelgan. Ijtimoiy tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi tamoyilni XVII asrda Yan Amos Komenskiy ta'riflagan va u XVIII-XIX asrlarda pedagogikada keng rivojlangan.

XX asrda tabiat va inson haqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilini ancha boyitdi. Bunda rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan noosfera xaqidagi ta'limgotning yaratilishi ham muhim rol o'ynadi.

Noosfera – rivojlanishning shunday bosqichini aks etadigan tushunchaki, u bosqichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo'lishi va hal etilishiga ta'sir qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro aloqasini ilmiy tushunishni, inson va tabiat taraqqiyoti rivojlanishning umumiyligi qonunlariga mos kelishini, insonning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tarbiyalashni, shuningdek, uni o'z rivojlanishiga o'zini javobgar etib tarbiyalashni va noosferaning kelajakdagini taraqqiyotini shakllantirish uchun

mas'ul ekanligini nazarda tutadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyiliga ko'ra, inson:

- o'zini borliqning bir bo'lagi, deb his qilishini;
- ro'y berayotgan planetar jarayonlarni va undagi mavjud global muammolarni tushunishini;
- o'zida noosfera uchun mas'uliyatni his qilishini;
- o'zini noosferani yaratgan sub'ekt sifatida bilishi hamda tabiat, planeta va biosferaga nisbatan ijobji munosabatni shakllantirilishi kerakligini ko'zda tutadi.

## **2. Madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili**

Tarbiya madaniylashuv jarayonining asosi ekanligi g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), frantsuz mutafakkiri Klod Gel'vetsiy (XVIII asr) va shvetsariyalik pedagog Iogann Pestalotsi asarlarida o'z aksini topgan.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, tarbiyaning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili madaniyatning umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, u yoki bu millatning milliy-madaniy qadriyatlariga va me'yorlariga mos ravishda bunyod etilishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy tarbiyaning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili o'z oldiga bolalar va o'smirlarga halq hamda jamiyat madaniyatining turli yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda madaniyatning maishiy, jismoniy, ma'naviy, aqliy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy yo'nalishlari nazarda tutildi.

Ijtimoiy tarbiyaning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilining amalga oshirilishi umuminsoniy tavsifdagi madaniy qadriyatlarning turli jamiyatlarda farqlanishi sababli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bizning davlatimizda shahar va qishloq aholisi o'rtasida, shaharda esa turli ijtimoiy-kasbiy guruuhlar orasida farqlar mavjud. Shu bilan bir vaqtda turli madaniyat va submadaniyatlardagi qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash tarbiya samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

## **3. Insonparvarlik tamoyili.**

Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya chek pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, XVIII asrdan boshlab u

turli davlat pedagoglarining tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu g'oya XVIII asrda frantsuz mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi L.Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida ham o'z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan insonparvarlashuv tamoyili pedagogning o'z tarbiyalanuvchisiga, uning rivojlanish jarayonida, mas'uliyatlari va mustaqil sub'ektga nisbatan munosabatda bo'lismeni ko'zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi natijasida:

- tarbiya ijtimoiyashuv ob'ekti bo'l mish inson qay darajada g'ayri ijtimoiy qadriyatlarni emas, balki ijobjiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishini aniqlaydi;
- tarbiya inson o'zini ijtimoiyashuv sub'yekti sifatida his qilishi, o'z sub'ektivligining namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;
- tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishta imkoniyat yaratadi;
- tarbiya insonni turli yosh bosqichlarida turli xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi yoki insonning ijtimoiyashuv qurbaniga aylanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tamoyil deganda nima tushiniladi?
2. Yaxlit pedagogik jarayon qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillari tasnifini qiyoslang
4. Ijmomoiy pedagogika tamoyillari tushunchasini izohlang
5. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillariga izoh bering.

## **2.4.§. IJTIMOIY PEDAGOGIKANING KATEGORIYALARI**

### **Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari**

**Savol: Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?**

Har bir fanni shu fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarda o'z aksini topadi. Tushuncha — real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan tavsifga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar ana shu fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga olimlar "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'l'm" va "ijtimoiy tarbiya"ni kiritganlar.

#### **1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat.**

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat** – ijtimoiy faoliyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, u maxsus pedagogik ma'lumotga ega mutaxassis tomonidan muayyan tofadagi shaxslar (imkoniyati cheklanganlar, muhtoj sub'ektlar)ga ijtimoiy yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash, tuzatish va qayta tiklash orqali shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'zaro muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Ijtimoiy muammolarni o'rganish va ularning ijobjiy echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ko'لامи jihatdan murakkab bo'lib, u bir necha yo'nalishlarda tashkil etiladi. Shaxsni ijtimoiy munosabatlarga moslashuvini ta'minlash; ota-onas qarovi va parvarishidan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlash; normadan og'ish va deviatsiya (shaxs xulq-atvorining mavjud ijtimoiy va axloqiy me'yordarga mos kelmasligi) holatlarini namoyon etuvchi, shuningdek, spirtili ichimliklar hamda giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi bolalar va o'smirlar

o'rtasida o'rtasida proflaktik ishlarni olib borish ijtimoiy-pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

## **2. Ijtimoiy ta'lim.**

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni unga etkazish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni **ijtimoiy ta'lim** deyiladi.

Ta'lim – bu ijtimoiy hayotning muhim sohasi. Unda bola rivojlanishi va ularning o'zaro ta sirida, bundan tashqari madaniy boyliklarni o'zlashtirish jarayonida mustaqil tarzda kamolga erishish uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim insonga quyidagi rollarni taqdim etadi (B.S. Gershunskiy bo'yicha):

1. "Amalga oshiruvchi shaxs". O'z qobiliyati, imkoniyatlarini yaxshi biladigan, o'zining faoliyat maqsadini aniq tasavvur etadigan va bosqichma-bosqich unga erishadigan, buning uchun ko'proq qulay usullami tanlay oladigan kishi.
2. "Madaniy rivojlanishning faol ishtirokchisi". Mazkur rolda inson milliy va chet el madaniyatidagi istalgan hodisaga ehtiyyotkorona munosabatda bo'ladi; o'z shaxsini va jamiyatning madaniy boyishi jarayonida ishtirok etadi.
3. "Yuksak malakali xodim".
4. "Bilag'on fuqaro". Bu shaxs iqtisodiyot, siyosat, tarix, san'at va boshqa sohalardagi masalalardan yaxshi xabardor; xalqaro va milliy muammolarga doir aniq fikrini ifoda eta oladi.
5. "Hayotni doimiy o'rganish sifatida ko'ra oladigan inson". Bu insonning ijtimoiy o'zgarishlarga qarab, o'z fikrini kerakli tomonga o'zgartira oladigan va o'zgaruvchan ijtimoiy sotsiumda zaruriy, yangi bilimlarni doimiy egallashga intiluvchanlik rolidir.

## **3. Ijtimoiy tarbiya.**

Tarbiya ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, o'z xususiyatlariiga ham ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda, doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar

tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar: muhit, OAVlari, madaniyatlar inobatga olinadi.

Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAVlari, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) o'zaro ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni sodir bo'ladi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik ahamiyatlari va sermazmun bo'lsa, bola unda shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashushi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining xususiyatlari sababli murakkablashishi, yoki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni bola tomonidan o'zlashtirilishida qandaydir sabablar tufayli muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda borishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, qayta tarbiya orqali amalga oshiriladi. Biroq buning uchun har bir toifadagi bolalarning ijobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
2. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklarini bayon eting.
3. Ijtimoiy ta'lim deganda nima tushuniladi?
4. Ijtimoiy tarbiyaning mazmunini bayon eting.

### **2.4.-\$. IJTIMOIYLASHUV OMILLARI**

#### **Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillar**

**Shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?**

Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan.

O'rganilgan omillar haqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

**1. Megaomillar** (mega – eng katta) – kosmos, yer shari, planetar jarayonlarni kirlitsa bo'ladi.

**2. Makroomillar** (makro – katta) – davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni arning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiritiladi.

**3. Mezoomillar** (mezo – o'rta) – hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishlilikiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariiga ta'sir qiladi.

**4. Mikroomillar**, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki **mikrosotsium** deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

**Biologik omillar.** Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi.

Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, ta'lif-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklami ginetika fani o'rGANADI.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. SHuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. SHuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

**Ijtimoiy omillar.** Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvori namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar - maktabgacha ta'lif muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh o'sib borgan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallahsga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi

tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. SHuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllanishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'r ganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rgandilar.

**Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni.** Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'r ganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina etarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'mida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'mi bilan belgilanadi

Inson jamiyatda bir vaqting o'zida bir qancha mavqeini egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafiqo, ham ona, ham ustoz mavqeini egallashi mumkin. Har bir mavqe insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqeij ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha bo'yicha diplomga ega

bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muhimdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deb deyiladi. Turli ijtimoiy rollami o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkablik jihatni shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rollini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek, bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bog'chasi va mактабда, sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda, bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, etakchi kabi rollami o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi rollini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol-o'z vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi, tilanchi rollarini misol qilsak bo'ladi. Katta shahar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlilik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsnинг ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'mini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

**Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.** Sonnagi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. SHu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyanı ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyanı bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rghanishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyanı tushunishadi. To'rtinchı guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillardidan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan **Maks Veberg** uni muammolarni echishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. SHunga qaramay, tarbiyaning umumetirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyanı ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat,

tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiyligini aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya – insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlaming xususiyatlariiga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liq va butunlay to'g'ri, deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o'z aksini topgan.

Ijtimoiy omillarning insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariiga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar- muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'miga ega bo'lib boshqa omillarning o'rnini to'liq to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlnana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. SHuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar)

ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi, bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalihsda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshadi. Biroq buning uchun har bir toifa bolalarning ijjobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini engishdir.

Agar shaxsda ijtimoiy muhit solbiy sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko'nikishga xalaqt beradigan holat bo'lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo'ladi. Bu holatda bola tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, bolaning jamiyatda o'sishi, rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi. Agar bu jarayon sodir bo'limasa, uning aksidezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday holatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga ehtiyoj tug'iladi.

### Ijtimoiylashuv mexanizmlari

#### Mexanizm deganda nima tushiniladi?

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Frantsuz olimi Gabriel Tard amerikalik Uri Bronfenbrener, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiy larning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Mavjud

ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. I.P.Podslasiy tasnifi bo'yicha:

**Bostirish mexanizmi.** Uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'mida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayriixtiyoniy mexanizm - unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalgalashadi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir;

**Ajratish mexanizmi.** Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi

**O'z-o'zini cheklash mexanizmi.** Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu o'z "Men"ini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. CHunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi;

**Loyihalash mexanizmining mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash tashkil qiladi.** O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. SHubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

**Identifikatsiyalash** ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud

identifikatsiya mexanizimi **intreoktsiya** mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

**Empatiya** mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. SHaxsnинг muammo, qiyinchiliklarini engishga yordam berish hisiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

**Intellektuallashuv** mexanizmida katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

**Harakatlarni bekor qilish** mexanizmi fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

2. I.V.Mudrikning fikricha, psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

**Imprinting** (xotirada saqlab qolish)-insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

**Eksiztentsial** bosim mexanizmi-tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladi. Ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan holda ega bo'lish.

**Taqlid** – biror-bir "namuna"ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

**Refleksiya mexanizmi** – ichki o'z-o'zini anglash. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro'-e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ulami ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "men"

obrazlari orasidagi real va xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

## **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Ijtimoiylashuv omillari deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiylashuvning tashqi omillariga nimalar kiradi?
3. Shaxs ijtimoiylashuvining bilogik omillarini bayon eting.
4. Sotsiumning shaxs ijtimoiylashuviga ta'sirini izohlang.
5. Tarbiyaning shaxs ijtimoiy adaptatsiyasi bilan bog'liq jihatlarini tushuntirib bering.
6. Ijtimoiylashuv mexanizmlarimi yoritib bering.

### **2.5.-§. ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHISH**

#### **Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif**

##### **Axloq me'yorlariga nimalar kiradi?**

Har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo'l shidan qat'iy nazar, doimiy e'tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og'ishish bor bo'lgan odamlardir. Ular guruh bo'lib ajralib, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan.

Hozirgi vaqtida AQSh va Yevropa davlatlarida u yoki bu og'ishishlarga ega bo'lgan kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi kontseptsiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur kontseptsiyaga ko'ra, bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba'zi bir muammo yoki imkoniyatlari cheklangan a'zosi sifatida qaraladi.

Hozirda imkoniyati cheklangan shaxslar soni butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada jiddiy lashmoqda. Shuning uchun bunday odamlar, avalambor, bolalarning ko'payishini reja asosida ijtimoiy hal qilishni talab qiluvchi doimiy omil sifatida qarash lozim.

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada “me’yor” tushunchasining o’z ko’rsatkichlari va me’zonlari mavjud. Me’yorga mos kelmaydigan jihat – “og’ishish”, “chetga chiqish” deyliladi. Ijtimoiy pedagogika uchun “me’yor” va “me’yordan og’ishish” tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanishi jarayonini tavsiflash uchun qo’llanadi.

Og’ishish ham ijobji, ham salbiy tavsifga ega bo’lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, o’ta qobiliyatatlilik ham me’yordan og’ishish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, aroqxo’rlik, giyohvandlik va boshqa salbiy og’ishishlar shaxsnинг ijtimoiy shakllanish jarayoniga va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

### **Me’yordan og’ishish turlari**

#### **Axloq me’yorlaridan begonalashuv qanday oqibatlarga olib keladi?**

Me’yordan chetga chiqishni shartli ravishda to’rt guruhga ajratsak bo’ladi: jismoniy, ruhiy, pedagogik va ijtimoiy. Quyida ularga batafsil to’xtalib o’tamiz.

Me’yordan **jismoniy og’ishish**, avvalambor, inson sog’ligiga bog’liq. Sog’liqdagi og’ishish irlari omillar yoki biror-bir tashqi holatlar og’ir ekologik vaziyat, ichimlik suvining sifatsizligi, oila hayoti darajasining pastligi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sog’lig’ida va rivojlanishida og’ishishga moyillarning xil tasniflari mavjud. Umumjahon sog’liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda imkoniyati cheklanganlarning uch bo’g’inli shkalasining Buyuk Britaniya variantini qabul qildi: 1) kasallik, xastalik – ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura unsurlarini har qanday yo’qotish yoki ularning anomaliyasi; 2) imkoniyati cheklangan – inson uchun norma hisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yo’qotish yoki cheklab qo’yish; 3) nogironlik – yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib, insonning biron-bir faoliyatni bajarishini cheklovchi yoki unga to’sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

**Ruhiy og’ishishlar** avvalambor, bolaning aqliy rivojlanishi hamda ruhiy nuqsonlariga bog’liqdir. Bu turdagи og’ishishlarga ruhiy rivojlanishning to’xtab

qolishi va oqibatda, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug'ma nuqsonlari yoki jarohati asosida paydo bo'ladi. Bolalarda aqliy qoloqlik turli darajada engil aqliy zaiflikdan, chuqur — tentakkikkacha namoyon bo'ladi.

Ruhiy og'ishishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og'ishishlarning yana bir turi emotsiyal-irodaviy sohadagi faoliyatning buzilishidir. Bu og'ishish turining eng og'ir shakllari deb autizm (yunoncha autos — o'zim) — muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o'z-o'zini o'ldirish) kabilarni keltirish mumkin.

Bolalarning iqtidorligi alohida og'ishish turi hisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatlari bajarilishini ta'minlab beruvchi qobiliyatning o'ziga xos uyg'unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab, balki faoliyat mahsullari tavsifga qarab ham belgilanadi.

**Pedagogik og'ishishlar** tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo'llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lif olayotganlar faoliyatini tartibga solishda turli me'yorlar qo'llanilmoqda. Avvalambor, bu ta'lif darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek, o'quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga qo'shimcha qilib, ta'lif olish da yuqori natijalarni ta'minlab beruvchi bola rivojlanishining me'yorlarini ham kiritsak bo'ladi.

Ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo'lganligi sababli, biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bunday bolalarni biror-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasida o'zlarini sinab ko'rish xohishlarining yo'qligi birlashtiradi. Bu holatdagi og'ishishni engib o'tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordamiga muhtoj bolalar ham paydo bo'ladilar.

**Ijtimoiy og'ishishlar** "ijtimoiy me'yor" tushunchasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy me'yor bu insonlar yoki ijtimoiy guruhlari faoliyati, ular xulq-atvorining jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o'rnatilgan tartib-

qodalari namunasidir. Aslida, ijtimoiy me'yor kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modelidir.

### 1-jadval

#### Me'yordan og'ish turlari (M.A.Galaguzova bo'yicha)

Jismoniy	Ruhiy	Pedagogik	Ijtimoiy
Irsiy kasallik, ko'rish qobiliyatining buzilishi, eshitish qobiliyatining buzilishi, suyak tayanch tizimida gi kasalliklar, nogironlar va boshqalar.	Ruhiy rivojlanishning buzi-lishi, aqliy Qoloqlik, nutq buzilishi, o'ta iqtidorlilik.	Umumiy o'rtma'lumot olishdan chetga chiqish, kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish, o'zlashtirishdan orqada qolish.	Etimlik; xulq-atvor me'yordan og'ishish; aroqxo'rlik; norkamaniya; taksokomaniya; fohishabozlik; daydilik, o'g'rilik va b.

#### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Me'yor va me'yordan og'ish tushunchalariga izoh bering.
2. Me'yordan og'ishning qanday turlari mavjud?
3. Jismoniy me'yordan og'ish sabablarini izohlang.
4. Ruhiy-psixologik me'yordan og'ishning oqibatlarini tahlil eting.
5. Pedagogik me'yordan og'ishning qanday ko'rinishlari mavjud?

### **III MODUL. IITIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYAT NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

#### **3.1.-§. DEVIANT XULQ – IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

##### **Deviatsiya turlari**

###### **O'smirlik yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang**

Odatda, deviatsiyalar o'smirlik davrida yuzaga keladi. O'smirlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni “o'tish davri” ham deb atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan yigitlikka o'tish ro'y beradi va bu jarayon o'smir rivojlanishining barcha jihatlari – anotomik-fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa o'z, navbatida, ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarida yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirming ijtimoiy maqomi o'zgaradi, unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroqtalablar qo'yila boshlaydi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni «qiyin o'smir» yoki «tarbiyasi og'ir o'smir» deyiladi. «Tarbiyalash og'ir» deganda, pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. Tarbiyalash og'ir, qabul qilingan me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya (og'ishish) hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatsiya deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvordan iborat.

Deviant xulq-atvor – mikroijtimoiy munosabatlar (oilaviy, mактабдаги munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo'lган ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini bo'zish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni «g'ayriintizomiy» deb atasak ham bo'ladi Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g'ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlaming takrorlanib turuvchi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari sifatida tavsiflanadi. Bu harakatlar huquqiy me'yormani buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi.

Delikvent xulq-atvoming quyidagi turlari mavjud:

- agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilalar kiradi;

- g'arazli xulq-atvor: kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulovlarga ziyon etkazish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajavuzlar;

- giyohvand moddalarni etishtirish va tarqatishda ishtirot etish.

Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki- shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. Bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarning o'zgarishi ro'y beradi.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga etganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'lувчи va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar hisoblanadi.

### O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari

#### Asosiy omil nega hamma vaqt mavhum bo'lishini tahlil eting

Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohaanadi. Voyaga etmaganlarning deviant xulq- atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

1. **Biologik omillar** bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligvda o'z ifodasini topadi. Ularga irlsiy xususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar kiradi.

**2. Psixologik omillar.** Bularga bolada psixopatalogiya yoki harakterining aktsentuatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvat reaktsiyalarini paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Yorqin namoyon bo'lgan psixopatiyaga (tentaqlik) ega bolalar psixiatrlar yordamiga muhtojlar.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianta hisoblanmish aktsentuatsiyaga ega bo'lgan bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiytibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va harakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o'zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan etarli darajada mehr his qilmasa, u holda bolaning himoya vositasi vazifasini «begonalashuv» bajaradi. Bu begonalashuv asabiy

reaqliyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsiunal sovukdik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patalogiyalarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarga xos bo'lgan rad etish, qarshi chiqish kabi hislatlar, odatda, bir-biriga emotsiunal bog'liq bo'lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi.

O'smirlarning axloqiy qadriyatlari tizimi shakllanmasligi oqibatida uning qiziqishlari g'arazli tavsif kasb eta boshlaydi. Bunday o'smirlarga infantilizm, ko'ngilochar hikoyalar xosdir.

**3. Ijtimoiy-pedagogik omillar** muktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida bolaning yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'plashi bilan bog'liq bo'lgan, uning erta ijtimoiylashuvdan og'ishishlarga olib keluvchi yosh, jinsiylariga individual xususiyatlar yotadi. Bunday bolalar, avvalambor, muktabda yomon tayyorlanishgan bo'lib, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, muktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Oila va uning ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bolaning ruhiy-ijtimoiy rivojlanishiga aksariyat bolalarda ijtimoiylashuv shartlarining buzilishi sabab bo'lar ekan. Ularning bir qismi deviatsiya holatiga olib boruvchi turli jismoniy va ruhiy xavflar ostida yashashadi, boshqalari esa jinoiy faoliyatlarga aralashib qolishgan.

**4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar** ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambag'al sinflarga ajralishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik, inflyatsiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

**5. Axloqiy omillar**, bir tomondan, zamonaviy jamiyatning axloqiy darajasining pastligi va qadriyatlarning yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyatda deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qaralishida o'z aksini topadi.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Deviatsianing qanday turlari mavjud?
2. Deviant xulq-atvor nima? Delikvint-chi?
3. Kriminal xulq-atvorning ko'rinishlariga izoh bering.
4. O'zmirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini izohlang.

### **3.2.-§. SPIRTLICHIMLIKLER ISTE'MOL QILUVCHI O'SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT**

#### **Spirtli ichimliklar iste'mol qilish muammosi**

**Spirtli ichimliklarning paydo bo'lish tarixini bilasizmi?**

Spirtli ichimliklar iste'mol qilish va bu illatning yoshlar o'rtasida keng tarqalishi eng jiddiy ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Spirtili ichimliklar iste'mol qilish (ichkilikbozlik) tushunchasi ikki xil talqin qilinadi. Tibbiy nuqtai nazardan, ichkilikbozlik spirtli ichimliklar iste'mol qilishga engib bo'lmas ehtiyoj tug'ilishida namoyon bo'ladigan surunkali kasallikdir. Ijtimoiy pedagogik nuqtai

nazardan, ichkilikbozlik spirtli ichimlikka ruju qo'yish bilan tavsiflanadigan, shaxsda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan xulq-atvor shakllaridan biridir.

Bolalik davrida ichkilikbozlik muammosi shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni bilan bevosita bog'liq. Chunki, birinchidan, u aniq ijtimoiy psixologik sabablar tufayli kelib chiqadi, ikkinchidan, deviant xulq-atvor kabi g'ayriijtimoiy hislatlarning kelib chiqishiga olib keladi.

Ichkilikbozlik namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik omillari bir xil emas. Ular ichida mikroijtimoiy va shaxsiy omillarni ajratish mumkin. Shaxsiy omillar vazifasini shaxsiy va tavsify xususiyatlar bajarishi mumkin. Mikroijtimoiy omillarga alkogollashuv ko'rsatkichlari (ichkilik iste'mol qilish yoshi, sabablari), oila tarkibi va unda alkogollashuv darajasi kabi ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik belgilari kiradi.

## 2-jadval.

### O'smir yoshidagi bolalarning spirtli ichimliklar ichishining sabab va oqibatlari

Yosh	Sabablar	Oqibatlar
Bolalikning ilk davri (0-3 yosh).	Homila davridagi ichkilikbozlik, homilador-likning ilk 3 oyida spirtli ichimlik iste'moli, emizish vaqtida spirtli ichimliklar iste'moli.	Epilepsiya, aqli zaif-lik; jismoniy rivoj-lanish anomaliyasi; aq-liy rivojlanish anomaliyasi.
Maktabgacha va kichik mакtab yoshi (3-9 yosh).	Ota-onalarning pedagogik savodsizligi, oila-viy ichkilikbozlik an'analari.	Organizmning alkogol-dan zaharlanishi; spirtli ichimliklarga qiziqish paydo bo'lishi.
O'smirlik va o'spirinlik davri (9-18 yosh).	Oiladagi nohush holat; o'ziga bino qo'yish; OAVlaridagi reklama; bo'sh vaqtidan o'rinni foydalanmaslik; ichkilikbozlikning oqibatlari haqida bilimlarning yo'qligi; shaxsning psixologik xususiyatlari, mavjud muammolardan qochish.	Spirtli ichimliklarga maylning shakllanishi; spirtli ichimlik iste'mol qilish odatining shakllanishi; huquq-buzarlik sodir etish mast holatda g'ayriqonuniy harakatlarning oqibatini o'yamasdan sodir etish; spirtli ichimlikni ruhiy muammolami bartaraf etuvchi doping sifatida iste'mol qilish.

Birinchi bosqich bolalikning ilk davri bo'lib, unda bolalarning alkogollashuvi ixtiyorsiz tavsifga ega. Bu bir necha sabablarga ko'ra ro'y beradi: homiladorlik va emizish davrida spirtli ichimlik iste'mol qilish, mast holatda homilador bo'lismi. Ichki organ va a'zolarning jadal shakllanishi jarayoni kechayotganda, homilaning zaharlanishi rivojlanishning turli anomaliyalariga olib keladi: oyoq va qo'llarning rivojlanmasligi, barmoqlarning birlashib ketishi, jinsiy a'zolardagi nuqsonlar, bosh hajmining kichiklashishi va boshqalar.

Homila alkogol oldida himoyasiz bo'lgani sababli, u alkogolning miyaga kirishini bartaraf eta olmaydi va buning natijasida aqli noraso bo'lib tug'ilishi mumkin. Bunday bolalar, garchi bolaliklarida hayot bilan vidolashmasalar ham, butun umr aqli noraso bo'lib o'tadilar.

Ikkinchi bosqich – kichik mакtab yoshi. Bu davrdagi eng ahamiyatli sabablar: ota-onalarning pedagogik bilimsizligi va spirtli ichimlikka qiziqish paydo bo'lishiga olib keluvchi oilaviy ichkilikbozlik an'analaridir.

Biologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichkilikbozlik irsiy jihatdan avloddan-avlodga o'tmaydi, faqatgina unga mayl o'tadi. Bolalarda ichkilikbozlikning rivojlanishiga ota-onalarning yomon odatlari, oiladagi vaziyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktablarda sinfdosh bolalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ota-onalar shuni esda tutishlar lozimki, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirishning zaruriy sharti bola shaxsiyatiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lismi, uning maktabdagagi hayotiga doimiy e'tibor qaratish, maktabda va oilada gigiyenik me'yorlarga amal qilishdir.

Agar oilada hech kim bolaning mакtab hayoti bilan qiziqmasa yoki nomiga qiziqsa, uning maktabga nisbatan qiziqishi neytrallashadi, so'ngra ta'lim olishga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Bola o'zini namoyon qilishining boshqa usullarini qidira boshlaydi. Odatda, bu bola ko'cha guruhlariga qo'shilib qoladi va u erda spirtli ichimliklar iste'mol qilishga o'rGANISHI. Agar bola spirtli ichimlik bilan «tanish» bo'lsa va bu «tanishuv» oilada sodir bo'lgan bo'lsa, bu o'rGANISHI jarayoni nihoyatda oson kechadi. Natijada mакtab, mакtab hayotiga nisbatan salbiy

munosabat shakllanadi va bola o'ziga o'xshagan bolalarning ko'cha guruhini afzal ko'ra boshlaydi.

Uchinchi bosqich – o'smirlik va o'sprinlik davri. Bu davrdagi asosiy sabablar oiladagi nomaqbul holat, o'zini namoyon qilish, OAVlaridagi reklama, muammolardan qochish, shaxsning psixologik xususiyatlari, ichkilikbozlik oqibatlari haqidagi bilimlarning yo'qligidir. Bolada ichkilikka ruju qo'yish ro'y beradi. Ichkilikka mayli bor bolalarning 4 turi farqlanadi:

- 1) o'ziga yuqori baho bergen bolalar;
- 2) shafqatsiz va agressiv xulqli bolalar;
- 3) amaliy hayotga ko'nikmagan, shaxsiy tashabbus qobiliyatidan ayrilgan bolalar;
- 4) tushkinlikka tushgan bolalar.

### **O'smirlarning spirtli ichimlikka munosabat darajasi**

#### **Spirtli ichimliklarga moyillik nima sabadan yuzaga kelishi mumkin?**

Bolalarning spirtli ichimlik iste'mol qilishni boshlaganliklarining bir nechta darajalari mavjud:

- 1) nolga teng daraja: juda kamdan-kam iste'mol qilish;
- 2) epizodik iste'mol darajasi turli spirtli ichimliklar turlari bilan tanishlik;
- 3) yuqori daraja 1 oyda ikki martadan ortiq iste'mol qilish;
- 4) namoyon bo'lgan ruhiy tobeklik darajasi mast bo'lishning ruhiy holatning istalgan holatiga aylanishi, ichkilikka ruqiy qaram bo'lishning yuzaga kelishi;
- 5) ichkilikka jisman tobe bo'lish darjasи — spirtli ichimlikni nazoratsiz iste'mol qilish.

### Bolalarning spirtli ichimlik iste'mol qilishga berilish darajalari

Bosqich nomi	Sabablari
1. Nolinchi daraja	—/-—
2. Boshlang'ich daraja	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kattalar dunyosiga qo'shilishga intilish</li> <li>• muhitning salbiy ta'siri</li> </ul>
3. Spirtli ichimlikni ba'zan iste'mol qilib turish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kayfiyatni ko'tarish</li> <li>• o'ziga ishonchini oshirish</li> <li>• o'z ko'rinishini yaxshilash</li> </ul>
4. Yuqori darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• organizmni quvvatini oshirish</li> <li>• erkin xis etish</li> <li>• do'stlari orasida yaqtin xursandichilikda o'tkazish</li> </ul>
5. Yaqqol psixik qaramligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• hayot tashvishlaridan vaqfinchalik chalg'ish</li> <li>• o'ziga ishonchini oshirish</li> </ul>
6. Jismoniy qaramlik	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'zini yomon xis etishini yo'qotish</li> <li>• avvalgi ichganlari ta'sirida</li> <li>• hayot tashvishlarini esdan chiqarish uchun</li> <li>• hayotiy kuch-quvvatini oshirish uchun</li> </ul>
7. Shaxsnинг spirtli ichimlik iste'mol qilishga butunlay qaramligi (alkogollashuvi)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kasalmand holatini yo'qotishga intilish</li> </ul>

**Spirtli ichimliklarni istemol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan  
ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakllari**

**Nima deb o'ylaysiz, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyil bolalarga  
ijtimoiy-pedagogik ta'sir yordam beradimi?**

Ijtimoiy pedagogikaning spirtli ichimlik iste'mol qilishga mayli bor bolalar bilan faoliyat olib borishga doir asosiy yo'nalishlari:

- a) adaptatsion – bolaning shaxsiy ijobjiy hislatlarini rivojlantirish orqali bolaning adaptativ xususiyatlarini tuzatish;
- 6) profilaktik – bolalarda spirtli ichimlik iste'mol qilishga salbiy munosabatni shakllantirish;
- v) vositachilik – bola va jamiyat o'rtaсидаги munosabatlarni tartibga solish;

g) reabilitatsion – alkogol tobe holatidagi bolani ijtimoiy reabilitatsiya qilish.

Bu toifadagi bolalar bilan ijtimoiy pedagog o'z faoliyatida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining birinchi vazifasi tashhis qo'yish bo'lib, bolaning spirtli ichimlik ichishga ruju qo'yishining oldini olishga qaratilgan. Bu vazifa spirtli ichimlik iste'mol qilishga mayli bor bola haqida axborot to'plash, uning real shaxsiy xususiyatlarini o'rGANISH, bola oilasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash, bolaga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan manbalarni o'rGANISH, ichkilikbozlikning etakchilarini aniqlash, bolani alkogollashuvga undayotgan salbiy omillarni o'rGANISH, bolaga mikromuhit ta'sirini o'rGANISH orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchchi vazifasi – natijani oldindan ko'ra bilish. Uning mohiyati shuki, qo'yilgan tashhis asosida ichkilikbozlikka mayli bor bola bilan ish olib borishning aniq ijtimoiy pedagogik dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilib, ijtimoiy adaptatsiya, korrekteziya yoki reabilitatsiyani keltirib chiqaradi.

Uchinchi vazifasi ta'lim-tarbiya bo'lib, bolada uning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi davomida shakllanishi lozim bo'lgan hislatlarni, bolalar va kattalar xulq-atvori va faoliyatiga pedagogik ta'simi oshirish, bola tarbiyasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, ichkilikbozlik muammosini engib o'tish uchun lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogning to`rtinchi vazifasi – huquqiy himoya. Uning mohiyati shuki, ijtimoiy pedagog faoliyati huquqiy asosda ko'riladi.

Beshinchchi vazifasi – tashkiliy funksiya. U ichkilikbozlikka mayli bor bola bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat yuritishda turli mutaxassislarining ishtirokini talab qiladi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun sharoitlar yaratadi, bolalar, kattalar uchun ijtimoiy foydali faoliyatni tashkil qiladi.

Oltinchi vazifasi – kommunikativ funksiya. Bunda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning ko'pgina ishtirokchilari o'tasida aloqalar o'matiladi.

Yetinchi vazifa – profilaktik funksiya bo’lib, u erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlaydi va ichkilikbozlik alomatlarining paydo bo’lishini bartaraf etadi. Bu vazifalar ijtimoiy patronaj o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

O’smirlami ichkilikka qarshi tarbiyalash asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi.

Asosiy metodlar – suhbat jarayonida ijtimoiy pedagog tomonidan o’z nuqtai nazari, dalillarini monologik bayon etish, ma’ruzalar o’qish

Yordamchi metodlar – kitob yordamida mustaqil işh olib borish, tajribalar o’tkazish va boshqalar. Bu metodlar turli ish shakllari – jamoaviy va individual shaklda, turli mikromuhitlar oila, mакtab jamoasi, do’stlar davrasida amalga oshirilishi mumkin.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Spirtli ichimliklar iste’mol qilish muammoсиниjahon mamlakatlari misolida tahlil qiling.
2. O’smirlar ichkilikbozligining kelib chiqish sabablarini bayon eting.
3. O’smirlarning spirtli ichimliklar iste’mol qilishga munosabat darajasini qiyosiy tahlil qiling.
4. Reklamaning o’smirlar ichkilibozligiga ta’sirini aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.
5. Spirtli ichimliklами istemol qilishga moyil o’smirlar bilan olib borladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakllarini yoritib bering.

### **3.3.-§. GIYOHVANDLIK – DEVIANT XULQ SIFATIDA**

#### **Giyohvandlik muammoси. Narkotik moddalarning tasnifi va turlari**

##### **Giyohvand moddalarning kelib chiqish tarixi haqida nimalarni bilasiz?**

Giyohvandlikning tarixi juda qadim zamonlardan boshlanganligi haqida anchagina ma’lumotlar bor. Opiv bundan 600 yil avval ko’llanilgan, uning uxlatuvchanlik ta’siri eramizdan avval XIV asrda o’rtा yer dengizi xalqlariga ma’lum

bo'lgan. Eramizdan oldin yashagan tabobatning otasi Gippokrat opiyni kasalliklarni davolash maqsadida ko'llagan.

Eramizdan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy ko'knori o'simligini Janubiy Osiyoga keltirgan. Opiydan tayyorlangan eritma Laudanumon deb nomlangan. Bu eritma yo'tal, ichburug', uyqusizlik, og'riq, qon ketish, ozib ketish, quvvatsizlikda qo'llanilgan. Qadimda opiy tabobatda keng qo'llanilgan. XIX asming ikkinchi yarmidan boshlab giyohvand preparatlar murakkab jarrohlik ishlarida qo'llanilgan. Jarrohlik operatsiyasidan so'ng og'riq qoldirish uchun bemorga opiy berilgan. Kuchli ta'sir etuvchi antibiotiklar topilganiga qadar ichburug' bilan og'rigan bemorlami oliy berib davolangan.

Giyohvandlikning ortib borishi munosabati bilan davolash muassasalarini giyohvand moddalar bilan ta'minlash borgan sari kamayib bormoqda. XIX asming boshlarida Germaniyada Fridrix Sertyuner va Frantsiyada Arman Segen birinchi marta morfiy preparatini oladilar. Morfiyni ko'knori o'simligining ma'lum navidan ola boshladilar. Morfiy uxlatuvchilik xususiyatiga ega.

XIX asming 30-yillarida ikkinchi preparat opiy – kodein olinadi. Bu preparat og'riq qoldirish xususiyatiga ega. Vaqt o'tgani bilan opiy va uning preparatlari Ovrupada keng tarqala boshladi.

Osiyo mamlakatlari (Iraq, Pokiston, Hindiston va boshqalar)da nasha chekish opiy qabul qilish keng tarqalmoqda. Keyinchalik opiydan heroin ajratib olindi. Heroin opiyiga qaraganda 48 marta kuchli. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar giyohvand moddalarni tabobatda qo'llash o'miga uni qimmatga sotishni afzal ko'radilar. Giyohvand moddalardan tushayotgan juda katta pullar shu davlatning katta lavozimdagi kishilarini ham qiziqtirmay qolmadi.

XX asrda giyohvand moddalarni iste'mol qilish, uni sotish juda tez rivojlanib kechdi. 1976-yil mart oyida Meksika politsiyasi AQSh chegarasi yaqinida 12,5 mln dollarlik 39 tonna marixuannani qo'lga tushirgan.

1974-yidda AQShda yonidan marixuanna chiqargan yoki sotish bilan shug'ullangan 400 mingdan ortiq yosh yigitlar qamoqqa olingan.

Shvetsiyada 18 yoshli o'spirinlarning har 100 tasidan 26 tasi giyohvand moddani iste'mol qilar ekan. AQShdagi giyohvandlarning 49200 tasi geroin qabul qilar ekanlar. Yaponiyada so'nggi 7 yil ichida narkomanlarning soni yoshlari orasida 10 marta ko'paygan geroin va uning xomashyolarini ishlab chiqarishda Tailand-Birma-Laos mashhur "oltin uchburchak" hisoblanadi. Pokiston-Afg'oniston, Eron mashxur "oltin yarimoy" hisoblanadi. Narkotik moddalarga o'rganib qolish yoshlari o'smirlari orasida ko'p uchramoqda. Endi O'rta Osiyo mintaqasiga kelsak, narkotik moddalarni jumladan, opiy yetishtiruvchilarining soni keyingi yillarda ko'chayganligi va shuning uchun narkomanlar sonining ko'payganligi sir emas.

Narkotik moddlar bilan shug'ullanish va tarqatish borasida Afg'oniston asosiy o'ninni egallamoqda. Dunyoda yetishtirilgan kuhnori o'simligini 70 foizi Afg'onistonga to'g'ri kelmoqda. Afg'oniston 1999-yilda 8 ming tonna ko'knori yetishtirgan va sotgan. Sir emas, Afg'onistonda yetishtirilgan giyohvand moddalar Tojikiston va O'zbekiston orqali Rossiya va Yevropa mamlakatlariiga tarqatilmoqda.

Bunday ishga qo'l urganlar narkotik moddalar qora dori, marixuanna, tashishlar odam bolasini, insoniyatni, jamiyatni, oilani vayron qilishini ko'ra bilib turib ham ayrim kimsalar qonunbuzarlik, sharmandalik yo'llaridan qaytmay turib turli yashirin yo'llardan foydalanib ish ko'rmoqdalar.

O'zbekistonda 1992-yildan to 1999-yilning boshlarigacha bo'lган davr ichida 100 dan ziyod holatlarda 30 tonnadan ortiq narkotik moddalar ushlanib qolingga.

Yana bir ma'lumotga ko'ra, Surxondaryo, Tojikiston bojxonalarida tekshiruv olib borilganda ma'lum bo'ldiki, 1998-yilda 1000 kg, 1999-yilning yanvar oyining o'zida 800 kg narkotik moddalar ushlab qolingga.

1998-yilda Surxondaryo viloyatida tekshiruvlar o'tkazish natijasiga ko'ra narkotik moddalar bilan shug'ullanuvchi 365 kishi ushlanib, ulardan 90 kg qora dori qo'liga tushirilgan. O'zbekistonda giyohvandlik bilan kurashish uchun «Sog'lom avlod uchun» dasturi ishlab chiqilgan. Respublikada narkologik dispanserlar tashkil etilgan. Hat yili "qora dori" operatsiyasi o'tkaziladi.

Giyohvand moddalar ikki xil usulda olinadi:

1. Turli o'simliklardan olinadigan giyohvand moddalar.

2. Turli kimyoviy moddalardan sun'iy usulda olinadigan narkotik preparatlar.

Ko'knori, kanop va boshka o'simliklar tarkibida narkotik moddalar saqlanadi. Bangidevona o'simligi tarkibida ham kayf qildiruvchi narkotik modda saqlanadi. Bundan tashqari, tamaki tarkibida ham narkotik modda bor. Ko'knori o'simligining nomi lotincha, «Raraueg Somiferum» bo'lib bir yillik o'simlik. Uning 100 dan orgiq turi ma'lum bo'lib, O'zbekistonda 5 xil turi uchraydi.

Ko'knorini arablar «afyun» deb nomlaganlar. O'zbeklar «qora dori» deyishadi.

Kanop bir yillik o'simlik bo'lib undan turli preparatlar tayyorlanadi.

1. «Marixuana» — kanop o'simligining quritilgan yoki quritilmagan o'tga o'xshash o'simlik mahsulotidir.

2. Nasha - ildizi o'q ildiz, poyasi (bo'y 0,75-4m) (qirrali, barglari panjasimon, cheti arra tishli, tukli. Nasha issiqsevar va namsevar mevasi yong'oqcha, po'sti qatgik o'simlik. Nasha urug'i tarkibida 30—35 foiz moy va 23-25 foiz oqsil bor.

Narkotik moddalar organizmga ta'sir etshiiga qarab kuyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Sedativ vositalar ya'ni tinchlantiruvchi preparatlar: opiy, narkotik moddalar va uxlatuvchi vositalar.

2. Stimullovchi – rag'batlantiruvchi preparatlar: efidrin, fenamin va boshqalar.

3. Psixik holatga (ruhiyatga ta'sir qilib ong'ni o'zgartiruvchi) vositalar; ayrim psixotrop moddalar LSD, kayf qiluvchi kanop preparatlari (kannabinolar) va gallbtsinogenlar «V2», «RSR». Shuningdek, narkotik ta'sir etuvchi uchuvchi moddalar (LNDV) va boshqalar.

### O'smirlar giyohvandligining kelib chiqish sabablari va oqibatlari

**Tasavvur qiling: Siz har kuni qatmaydigan yo'lda noqinuniy ta'qiqlangan dorivositalarini sofayotgan shaxslarga ko'zingiz tushdi. Mazkur vaziyatda qanday munosabatda bo'lasiz?**

Giyohvandlikni ijtimoiy pedagogik yo'nalishda o'rghanish uni giyohvandlikka jismoniy yoki ruhiy tobeklik bilan harakterlanadigan deviant xulq-atvor shakli ekanligi

bilan tavsiflanadi. Bu tobeklik bolani jismoniy va ruhiy quvvatsizlanishga hamda ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi.

Giyohvandlikning turlaridan biri taksikomaniya hisoblanadi. Taksokomaniyada giyovhand modda o'miga, organizmga benzin, kerosin, bo'yoqlar kabi maishiy kimyo vositalar hidlanadi.

Taksokomanlar, odatda, 13-14 yoshli o'smirlar bo'lib, ular o'z organizmlarining zaharlanishi oqibatlarini tushuna olishmaydi. Taksokomaniyaning xavfi shundaki, bolalar organizm zaharlanishi natijasida nobud bo'lishadi yoki shunga olib boruvchi harakatlar sodir etishadi. Taksokoman tirk qolgan taqdirda ham, uning organizmiga zaharli moddalarning ta'siri juda yomon oqibatlar — nogironlik, aqli norasolikka olib keladi.

Giyohvandlik hozirgi kunda quyidagi sabablarga ko'ra jiddiy muammo hisoblanadi:

1) o'smir yoshidagi giyohvandlarning ommaviy ko'payishi;

2) qimmat turuvchi va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi narkotik moddalarni iste'mol qilishning keng tarqalishi;

3) giyohvand bolalar va o'smirlar ijtimoiy maqomining o'zgarishi.

Noxush oilalarda voyaga etgan farzandlar bilan bir qatorda, hozirgi kunda giyohvand bolalar va o'smirlar safi yuqori daromadli oilalar farzandlari bilan to'lib bormoqda. Bu oilalardagi o'smirlarning moliyaviy erkinligi, axloqiy me'yorlari yuqori bo'limgan alohida yoshlari submadaniyatini shakllantirishga olib kelib, ularda etakchi qadriyat vazifasini erkin vaqt o'tkazish bajaradi. Giyohvand moddalar esa muayyan

hayot tarzining xususiyati hisoblanadi.

Bugungi kunda, garchi bir dozasi uchun yuqori narx belgilansa-da. kokoin, heroin, «ekstazi» tabletkalari kabi giyohvand moddalarni iste'mol qilish katta xavf tug'dirmoqda. Birinchi iste'mol qilish bosqichi «yarim giyohvandlik» bosqichiga aylanib, unda o'smir turli narkotik moddalarni qayta-qayta iste'mol qila boshlaydi. Turli narkotiklarni iste'mol qilgan o'smir ularning ichidan birini tanlab oladi. Bu erda og'ishishgan xulq-atvorning kasallikka aylanishi haqida gapirish mumkin Chunki

kerakli narkotik turi tanlangach, giyohvandning avval ruhiy, so'ngra jismoniy tobeligi boshlanadi.

O'smir guruhlar o'z xususiyatlariiga ega bo'lib, ularga kattalarning g'amxo'rligiga qarshi chiqish hamda tengdoshlar bilan guruhlarga birlashish kabi xulq-atvor reaksiyalari hos.

O'smiring giyohvandlik xulq-atvori asosida uning individual o'ziga xosliklari hamda ruhiy va jismoniy og'ishish sabablari yotadi. Uning shaxsiyatiga esa quyidagi turli omillar ta'sir qiladi:

a) biologik omillar: kasallik, charchoq munosabati bilan giyohvand moddalar qabul qilish;

b) ruhiy: eyforiya holatini boshdan kechirishga qiziqish, o'zini namoyon qilishga intilish, ijobiy ijtimoiy qiziqishlarning yo'qligi, ruhiyatning buzilishi;

v) ijtimoiy: tengdoshlar guruhlari, moddaning ta'siri;

d) ijtimoiy-madaniy va submadaniyatning ta'siri: ba'zi yoshlar guruhlari narkotiklarni hayotning ajralmas qismi deb hisoblashadi;

e) yoshlarning giyohvandlashuv muammolarini uzoq vaqt oshkor qilmasliklari;

j) narkotik moddalarni qo'lga kiritish mumkinligi.

Yoshlar giyohvandigi bilan shug'ullanayotgan pedagoglar va olimlar o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilishlari sabablari haqida o'z nazariyalarini ilgari surmoqdalar. Bu nazariyalarning mazmuni va nomlanishi, ular qaysi omillarni eng muhim, deb hisoblashlariga ko'ra aniqlanadi.

Programmalashtirish nazariyasining tarafдорлари (G.A.Shichko, E.I.Bextel', A.N.Mayurov, S.N.Shevverdin, F.G.Uglov, A.A.Gabiani, A.I.Durandina va boshqalar) ijtimoiy-madaniy omilni yaqqol ajratib, o'smir spirtli ichimlik, giyohvand moddalarni iste'mol qilishi jamiyatda keng tarqalgan ichish-chekish an'analari, spirtli ichimliklar reklamasi, atrofdagilaming yomon namunasi oqibati, deb hisoblashadi. Demak, informatsion va psixologik tomonlardan, o'smirlarni spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga qarshi qurollantirishimiz lozim.

Ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik nazariyasi tarafдорлари (D.V.Kolesov, V.Gul'dman, M.Raytenberg, A.F.Boyko, B.S.Bratus va P.I.Sidirov) bolalar va

o'smirlarning giyohvand xulq-atvorini mikro ijtimoiy muhitning noxush sharoitlari va o'smiring psixologik xususiyatlari keltirib chiqaradi, deb hisoblashadi. Bu nazariya tarafdoरları, muammoning echimi o'quvchilarning ijtimoiy pedagogik qarovsizliklarini oldini olishda, deb ko'rsatishadi.

Bulardan kelib chiqqan holda shunday savol tug'iladi: voyaga etmaganlarning giyohvand bo'lib qolishlariga nima sabab bo'lmoqda? Bunda hammasi muayyan bir shaxsga bog'liqmi?

Giyohvandlikning nafaqat o'zi, balki shaxs rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun yomon oqibatlarni keltirib chiqarishi ham salbiy hodisadir.

Giyohvandlik oqibatlari uch turga ajratiladi: biologik, ijtimoiy-psixologik va jinoiy.

Biologik oqibatlarga faollik, shaxsning quvvat zahirasining pasayishi, biologik ehtiyojlarning kamayishi (ovqat, uyqu), immunitetning pasayishi, bola organizmining barbob bo'lishi kiradi.

Ijtimoiy-psixologik oqibatlarni bolaning axloqiy degradatsiyasi deb tavsiflash mumkin. Unda avval giyohvand modda iste'mol qilishdan boshqa qiziqishlari va ehtiyojlari pasayadi, so'ngra bu ehtiyojlar umuman yo'q bo'lib ketadi. Atrof-muhit giyohvand tomonidan giyohvand moddalarini topishni va iste'mol qilishni og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi nuqtai nazardan baholana boshlaydi. Jamiyat bilan foydali ijtimoiy aloqalar uziladi (giyohvand o'smir do'stlaridan ajraladi, o'qishni xoxlamaydi). Ruhiy qulay holat faqatgina giyohvand moddarining kerakli me'yori iste'mol qilinganda yuzaga kelishi mumkin bo'lib qoladi.

Giyovhandlikning jinoiy oqibatlari biologik va ijtimoiy-psixologik oqibatlar bilan izohlanadi. Bu o'zaro aloqaning mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega. Giyohvand o'z qiziqishi, ehtiyojlarini qondirish uchun o'qishni yoki ishini tashlashi kerak. Chunki uning vaqtiga faqat giyohvand moddalar izlash bilan o'tadi. Ulami doimiy xaniq qilishga mablag' etishmaganligidan, giyohvand ularni noqonuniy yo'll bilan qo'lga kiritish imkoniyatlarini izlaydi (o'g'rilik, talon-taroj orqali). Pul yo'q bo'lgan hollarda, giyohvand o'z maqsadiga etishish uchun har narsaga, xatto qotillikka ham tayyor bo'ladi.

Narkotik vositalarni noqonuniy ishlab chiqarish, qo'lga kiritish, saqlash yoki sotish, bolalarni narkotik moddalar iste'mol qilishga undash, tarkibida narkotik moddalar bo'lgan o'simliklarni etishtirish, ularni iste'mol qilish uchun maxsus joylami tashkil qilish bilan bog'liq jinoyatlar ma'lum jinoiy guruhlarga mansubdir.

### O'smirlarda giyohvandlikning rivojlanish darajasi

#### Addiktlikning qanday turlarini bilasiz?

Istalgan turdag'i giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish shaxsning unga tobeligini keltirib chiqaradi. O'smirlarda addektiv (tobe) xulq-atvor ikkita yo'l bilan rivojlanishi mumkin. Tibbiyotda ularningg birinchisi ko'psubstantli, ikkinchisi yakkasubstantli deb nomlanadi.

Ko'p tarmoqli tobe xulq-atvor quyidagi bosqichlardan iborat:

- tengdoshlar davrasida yuzaga keladigan birinchi marotaba foydalanish;
- giyohvandlikning yuzaga kelishi – topish imkonи bshlган barcha psixoaktiv moddalardan foydalanish;

- kuchli ta'sir ko'rsatuvchi moddani tanlash bosqichi;

- to'liq qaramlik bosqichi – giyohvand moddani ko'pchilik bo'lib qabul qilish.

Bir tarmoqli tobe xulq-atvor esa quyidagi bosqichlardan iborat:

- psixoaktiv moddani tasodifan qabul qilish;
- epizodik usul;
- giyohvand moddaga qaramlik;
- to'liq qaramlik.

## **Giyohvand moddalarni istemol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakllari**

### **Giyohvand moddalarni istemol qilishga moyil o'smirlarni sog'lom turmush tarziga qaytarish mumkinmi?**

Narkotik moddalarni iste'mol qiluvchi o'smirlarni aniqlash muayyan qiyinchilik tug'diradi. Bu bolalarni davolash bilan bevosita tibbiy-narkologik xizmat xodimlari shug'ullanadilar, pedagogning ta'lim muassasasidagi asosiy faoliyati giyohvandlik profilaktikasidir.

Milliy va xorij pedagogik adabiyotlarida zararli odatlar profilaktikasi masalalarini o'rghanish natijasida yosh avlodning giyohvandlikka qarshi tarbiyasi masalasida ikki asosiy tendentsiya mavjudligi ma'lum bo'ldi: axborot-faoliyat yondashuvi va informatsion-emotsional yondashuv.

Axborot-faoliyat yondashuvi tarbiyalanuvchining o'zini giyohvandlikka qarshi faoliyatga jalb qilish orqali giyohvandlikka qarshi kurashishni nazarda tutadi (A.N.Yakushev, K.R.Ismagilov).

Informatsion-emotsional yondashuvda axborot bilan bir qatorda, ijtimoiy-psixologik treningga ham katta e'tibor qaratiladi.

Xorijda giyohvandlikka qarshi tarbiyasida faol metodlar etakchi rol' o'ynaydi. Bundan kelib chiqadiki, pedagog o'smirlar bilan birlgilikda giyohvandlikka qarshi dasturni ishlab chiqayotganida faol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday faol metodlarga giyohvandlikka qarshi treninglar, o'yinlar kirdi.

Falsafa, sotsiologiya va pedagogikada o'yin shaxs ijtimoiy individualligini shakllantirish metodi hisoblanadi. O'yin nazariyasi tarafdarlari bolalar va o'smirlar yoshidagi o'yin hayotga tayyorgarlik usullaridan biri deb hisoblanishini tan olishgan. Uning faoliyati boshqalar tajribasini o'zida sinab ko'rishning tayyor modeli hisoblanib, shaxsning intellekti va hissiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq muddatli o'yinlar rolli o'yinlarning maxsus turi hisoblanib, uning asosiy xususiyatlari ommaviylik, uzoq muddat davom etishi, o'yinning real haqiqatlar bilan bog'lanib ketishidir. Uzoq muddatli o'yin darsdan tashqari tadbir sifatida o'tkazilib,

giyohvandlikka qarshi xulq-atvor, munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Bu o'yinni o'tkazishda ijtimoiy pedagogning vazifasi rollarni tarbiyaviy samaradorligini yuqori darajada ta'minlaydigan qilib taqsimlashdir. Xususan, pedagog yoki pedagoglar guruhi o'yinda qatnashadilar, yuqori sinf (kurs) o'quvchilari esa pedagoglar va o'smirlar o'rtasida vositachi bo'ladilar.

Pedagog ta'lrim-tarbiyaning turli yo'nalishlariga moslab o'yinni tashkillashtiradi. Ona tili va adabiyot, tarix, davlat va xuquq asoslari, kimyo, biologiya darslarida o'quvchilar insho, bayon, diktant yozishadi, giyohvandlikka qarshi kurash mavzusida doklad va referatlar bilan chiqish qilishadi.

Sinfdan tashqari faoliyatlarida ular giyohvandlikka qarshi qaratilgan devoriy gazetalar, rasmlar tayyorlashadi. Shuningdek, interv'yu metodi ham qo'llanilib, u nafaqat giyohvand shaxslardan, balki ularning oila a'zolari, ko'shnilaridan ham olinadi. Sinfdan tashqari faoliyatda pedagog o'smirlarga mahalliy xuquqni muhofaza qiluvchi, ijtimoiy, tibbiy-narkologik muassasalar bilan aloqalar o'matishga yordam beradi.

Barcha materiallar pedagog-tashkilotchida to'planadi va uzoq muddatli o'yinni yakunlaydigan teatrlashtirilgan sahna ko'rinishida taqdim etiladi. Uzoq muddatli o'yin o'quvchilarning giyohvandlikka qarshi faoliyati bilan ham bog'liq bo'ladi. Unda o'quvchilar mustaqil ravishda giyohvandlikka qarshi adabiyotlarni o'rganishadi, referat va ma'ruzalar tayyorlashadi, reydлarda ishtirok etishadi, mahalliy giyohvandlik holatini o'rganish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar olib borishadi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Giyohvandlikka qarishi kurash olib boruvchi qanday xalqaro tashkilot va markazlarni bilasiz?
2. Giyohvandlik muammosini bartaraf etish uchun qanday omillarga e'tibor qaratish lozim?
3. O'smirlar giyohvandligining kelib chiqish sabablarini bayon eting.

4. O'smirlar giyohvandligining oldini olish uchun qanday yo'l tutish lozim?
5. Giyohvand moddalarni istemol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakllari

### **3.4.-§. Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy xatti-harakatning namoyon bo'lish shakli sifatida**

#### **Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi muammosi**

**"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsya haqida nimalarни bilasiz?**

Muayyan yosh, ruhiy va boshqa ijobiy yoki salbiy xususiyatdagи guruh huquqining bunday o'ziga xos xususiyatlaridan chetga chiqish bo'lmay, balki voyaga etmaganlar uchun xos bo'lgan xulqiy me'yor hisoblanadi.

O'smirlarning oila tomonidan nazoratsiz qoldirilishi o'quv yoki mehnat jamoasining ta'siridan chiqib qolishi ularda mas'uliyatsizlik, hamma xulqlarni qilaverish mumkinligi hislarini mustahkamlashga sabab bo'ldi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi 14 yoshdan 18 yoshga qadar bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlamning yig'indisidir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ham umuman jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillar ta'sirida rivojlanadi. Shu sababdan ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiliginini tadqiq etishda kriminologiyaga oid bo'lgan umumiyl tavsiflar, ko'rsatkichlar va usullardan foydalilanildi. Shu bidan birga voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tahlili aynan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilishi lozim.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishni jinoyat huquqiy choralar vositasida ta'sir ko'rsatish bilan qo'shib olib borish o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy sog'lig'ini muhofaza qilishning sharti hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi respublikamizda so'nggi 2000 yillarda umumiy jinoyatchilikning 3,4%ni tashkil qilib kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2001 yilda 4,5%ni tashkil etgan.

Jinoyatchilarning anchagina qismi latent bo'lib qolmoqda, chunki atrofdagilar ko'pincha ularning jinoyatlarini yoshi bilan bog'liq bo'lgan sho'xlik deb hisoblaydilar va bu haqda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermaydilar.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi quyidagi xususiyatlarga egadir: a) voyaga yetmaganlar tomonidan solir etilgan og'ir zo'rlik ishlatib va tamagirlik ular jinoyatchiligining 8%ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich anchagina barqarordir. b) voyaga yetmaganlar tomonidan ko'proq o'g'irlik, talonchilik, bezorilik sodir etiladi. v) voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo'lib sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori ko'paymoqda. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tuzilishida jinoyat huquqiy retsedivning hissasi kattalarnikiga nisbatan pastroqdir. Ekspehtlar xulosasiga ko'ra voyaga yetmaganlarga jinoiy jazo o'rniga boshqa jazo choralar qo'llanilgandan keyin ular tomonidan qayta jinoyat qilish hollari ko'proq uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xar qanday muayyan jinoyatning bevosita sababi sifatida ob'ektiv va sub'ektiv omillarning murakkab aloqasi va aloqada bo'lgan shaxs hamda muhitning alohida qismlar xarakat qiladi. Jinoyat sabablarini ochish shaxsning ma'naviy shakllanishi, buzulish va ijtimoiy begonalashish jarayoniga kirib borish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'ttasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan bo'lib, quyidagi asosiy tushunchalarga izoh berilgan:

voyaga yetmagan – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs;

voyaga yetmaganlar o'ttasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdag'i profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan – voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'l'im berish

talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila – ota-onalarni o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'limga berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila;

nazoratsiz – ota-onalarni o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'limga berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

yakka tartibdagagi profilaktika ishi – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

qarovsiz – aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar – voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

### Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi

#### Profilaktikaning qanday turlari mavjud?

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni o'rganishda jinoyat sodir etishga olib keluvchi determinantlarni (omillarni) uch guruhga, ya'ni iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi omillar, ma'naviy-rubiy omillar, tashkiliy-boshqaruv sohasidagi omillarga ajratish mumkin.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi jihatlarda o'z aksini topadi:

- 1) voyaga yetmagan shaxs psixologiyasi bilan bog'liq xususiyatlar;
- 2) voyaga yetmagan o'sib ulg'ayayotgan muhit bilan bog'liq xususiyatlar;
- 3) voyaga yetmagan shaxsga ta'sir qiluvchi kuchlarning maqsadi bilan bog'liq xususiyatlar;
- 4) voyaga yetmaganlar jinoyatlarining oldini olish sub'ektlari faoliyati bilan bog'liq xususiyatlar.

Huquqbazarlik – o'zining mazmuni, yuridik xususiyatlari va tarkibiga ega bo'lgan, turli qonun hujjalari bilan tartibga solinadigan qonunga xilof, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir.

O'quvchilar o'rtasidagi jinoyatchilik deganda, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan muayyan vaqt mobaynida ma'lum bir xuddudda sodir etilgan jinoyatlar yig'indisi tushuniladi.

Yoshlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikni oldini olish bilan bog'liq masalalarni tahsil etishda avvalo ularning shaxsini o'rghanishga e'tibor qaratish joiz. O'quvchilar va voyaga yetmaganlar shaxsning alohida maxsus ijtimoiy tipi sifatida ajratishga asos bo'ladigan tavsifga ega ekanligi masalasi anchagina bahsli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim mualliflar jinoyatchi shaxs sifatida boshqa kishilardan farq qiladi, deb hisoblasalar, boshqalarini jinoyat sodir etish paytida, shaxsning vaziyat bilan o'ziga xos aloqadorligiga havola qiladilar va jinoyatchi shaxsining shaxsi barqaror va huquqiy bo'lgan boshqa kishilar shaxsidan farq qiluvchi alohida belgilarga ega emas, deb hisoblaydilar.

O'quvchilar tomonidan jinoyat sodir etishning sabablarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- oiladagi va turmishdagи salbiy ta'sirlari;
- nosog'lom turmush tarzi;
- yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- o'qimaydigan voyaga etmaydiganlarning o'zoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashhg'ulot bilan shug'llanmaganligi;

- o'smiring noto'g'ri qabul qilishga sabab bo'ladigan xolatlarning voyaga yetmagan shaxsida juda qiyin kechishi;
- katta yoshdag'i jinoyatchilar tomonidan huquqbuzarliklarga va turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishi;
- zo'rlik ishlatishlar yozilgan turli kitob va videofilmlarning ta'siri;
- hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e'tiqodlarning turg'un emasligi; - ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;
- ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri; -ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishidir.

O'quvchining huquqbuzarga aylanib qolishiga turli omillar sabab bo'ladi . Bu omillar aynan oila bilan bog'liq bo'lib, yuz foiz deb olinganda, uning o'ttiz foizi notinch, axloqsiz, janjallli va kriminogen oila hissasiga to'g'ri kelsa, tashqi tomonдан "tinch" ko'rinvchi – xudbinona-molparast, ruhiy yaqinligi bo'lмаган va pedagogikadan xabarsiz oilalar oltmisf foizni tashkil etishini kuzatish mumkin.

O'quvchilar ruhiyatining g'ayriijtimoiy ko'rinishlarga imkon beruvchi holatlarni quyidagilarda ko'ramiz:

- eng muhim ma'naviy tushunchalar va kategoriylar (botirlik, qo'rkoqlik, sadoqat, sotqinlik, do'stlik, xiyonat, qaxramonlik, mardlik, kamtarimlik va boshqalar) xaqiqiy mazmuni va ahamiyati to'g'risida buzilgan tasavvurlar;
- ayrim shaxslar, voqealar, hodisalarni baholashda xato qilish. Insonni barcha xususiyatlari va sifatlari yig'indisiga ko'ra baholay olmaslik;
- insonni haqiqiy motivlari va maqsadlarini hisobga olmay, uning xulq-atvoriga oid tashqi ko'rinishlarini afzal ko'rish;
- shaxsning shakllanishi, organizmning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi, to'la voyaga etish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ruhiyatning o'zgaruvchanligi;
- his-tuyg'ularni jilovlay olmaslik, o'zgaruvchanlik, o'ta ta'sirchanlik (qo'zg'aluvchanlik), kayfiyatning tez-tez o'zgarishi;
- zarur bilimlari va tajribasi bo'lмаган holda atrof-muhitga, barcha yangi, notanish narsalarga keskin munosabat;

- jismoniy faoliik, tashabbuskorlik, hayotiy faoliyatning kuchayishi oqibatida sarflanmagan kuch-quvvatning haddan oshib ketishi;

- har qanday yo'l bilan mustaqil bo'lishga, o'z shaxsiyatining ahamiyatini tan oldirishga intilish. Maslahatlar, kattalarning pedagogik pand-nasihatlarni va boshqa tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish shakllarini xush ko'rmaslik;

- o'zining «katta» bo'lib qolganligini ko'rsatish va isbotlash istagi;

- ta'sirga beruvchanlik, o'ta ishonuvchanlik, taqlidga moyillik.

O'quvchilar o'rtasida huquqbazarlikni oldini olishda yuqoridagi omillarning salbiy ta'siriga bolaning tushib qolayotganligi to'sqinlik qilmoqda. Bu omillarni bartaraf etish, salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi yo'lga qo'yilgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;

voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Voyaga yetmagan shaxslar deganda kimlar tushuniladi?
2. Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi tushunchasiga izoh bering.

3. Voyaga yetmaganlar huquqbazarligining kelib chiqish sabablarini izohlang.
4. Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi profilaktikasini bayon eting.

### **3.5.-§. OILADA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT**

#### **Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari**

##### **Tarixan oilaning qanday turlari shakllangan?**

Oila nikohga yoki a'zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o'zaro axloqiy javobgarligi va o'zaro yordamiga asoslangan qon-qarindoshlarning kichik guruhi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha taraf mavjud: «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir».

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan M.A.Galaguzova oilaning to'rt asosiy turini ajratib ko'rsatadi:

1. *Tinch, baxili oilalar.* Bunday oilalar o'z vazifalarini muvafaqqiyatli hal etadi, o'z bolasi ehtiyojlariga tez moslashadi. Muammolar kelib chiqqan holatda ularga bir karra yordam ko'rsatish etarli.

2. *Ajralish xayfi bor oilalar guruhi.* Bunday oilalar ba'zi me'yordan og'ish, ularda adaptiv qobiliyatlar pastligi bilan tavsiflanadi. Ular bola tarbiyasini katta

qiyinchilik bilan eplashadi va ijtimoiy pedagog tomonidan beriladigan o'z vaqtidagi yordam va kuzatuvga ehtiyoj sezadilar.

3. *Notinch, baxtsiz oilalar*. Bunday oilalar hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning adaptiv imkoniyatlari past, bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin, kam natijali kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol va davomiy ko'magi zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib ijtimoiy pedagog ularga uzoq davom etadigan ishlar doirasida ta'limiy, psixologik, yordamlar ko'rsatadi.

4. *Ajtimoiy oilalar*. Bunday oilalarning holati ularni tubdan isloh qilinishiga ehtiyoj sezadi. Bu oilalarda ota-onalar amoral va g'ayriqonuniy hayot tarzini yo'lga qo'yishadi, yashash sharoitlari eng oddiy sanitart-gigienik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan esa qoidaga muvofiq, albatta hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazoratsiz, yarim och qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagog bu oilalar bilan ish olib borganda, huquqni muhofaza qilish, vasiylik va homiylik organlari bilan yaqindan aloqa o'matishi kerak.

### **Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari**

#### **Oila bilan aloqa o'rnatishda qanday qoidalarga rioya qilish lozim?**


Oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishda ijtimoiy pedagoglarning roli beqiyos. Ijtimoiy pedagog tomonidan oilaga ko'rsatiladigan pedagogik yordamning maqsadi shubhasiz inqirozli vaziyatlarni hal qilishdir. Mazkur maqsadga tayangan holda ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda turli sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm):

Oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni:

- 1) ta'limiy – ta'lim berish va tarbiyalash;

2) psixologik – ruhiy jihatdan qo'llab quvvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash;

3) vositachilik – tashkil etish, ta'lirn va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvorigagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash.



**3-расм. Ижтимоий педагогнинг оиласларга ижтимоий-педагогик ёрдам кўрсатишдаги асосий роллари**

Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ota-onalarning pedagogik bilimlami puxta egallaganliklari, bolaga ta'lif-tarbiya berishda zarur metod va usullarni o'zlashtira olganliklari, shuningdek, pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini hisobga olish muhimligini to'g'ri anglay olishlari lozim. Shuningdek, ijtimoiy pedagoglar ota-onalar tomonidan bolaga ta'lif va tarbiya berishda pedagogik xatolarga yo'l qo'yilayotganliklari ham aniqlay olishga e'tiborni qaratishlari talab etiladi. Manbalarda ko'rsatilishida ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar sirasida: tarbiyaning maqsadi, metodi va vazifalarining etarli darajada to'g'ri anglay olmasliklari; oilaning barcha a'zolari tomonidan bola tarbiyasiga nisbatan yagona talabning qo'yilmasi; bolaga haddan tashqari mehr

qo'yish; keragidan ortiq qattiqqo'l bo'lish; tarbiya mas'uliyatini butunlay ta'lim muassasalari zimmasiga yuklashlari; bolalar bilan munosabatda pedagogik ijobjiy pedagogik yondashuv (takt)ning mavjud bo'lmasligi; jismoniy jazolarning qo'llanilishi, oiladagi bolalarga nisbatan bir xil munosabatda bo'lmaslik; ta'lim-tarbiya jarayonida qat'iylik ko'rsatilmaslik; nazoratning izchil amalga oshirilmasligi; bolaga munosabatda bir xillikning barqaror bo'lmasligi (gohida o'ta yumshoqlik, gohida esa o'ta qattiqqo'l bo'lish); bola tarbiyasi uchun mas'uliyatni oilaning boshqa a'zosi zimmasiga yuklash va boshqalar.

Ijtimoiy-pedagog oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishda quyidagi jihatlami inobatga olishi zarur:

- ota-onalarning bo'lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik, psixologik va ijtimoiy-biologik tayyorgarliklari;
- bir muncha hayotiy tajribaga ega ota-onalarning farzandlar tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ularni turli salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoyalash borasidagi bilimlari darajasi;
- ota-onalarning bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvant (to'g'ri) munosabatni shakllantirishda o'rni;
- bola tarbiyasida ota-onalarning shaxsiy namunasi va obro'-e'tiborining ahamiyati;
- oilada turli avlodlarning o'zaro munosabati;
- ota-onalarning bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda samarali metod va usullarga egaliklari;
- oilada bolalar va ota-onalar hamda yoshi katta oila a'zolari o'rtasidagi munosabatning ijobjiy xususiyatga egaligi;
- oilada bolalarning o'z-o'zini tarbiyalashlariga imkoniyat yaratilganligi, ota-onalarning bu jarayondagi roli;
- oila tarbiyasida rag'batlantirish va jazolash metodlaridan foydalanimishi;
- ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida yo'l qo'yiluvchi tipik xatolar;
- jismoniy va ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari;

- oilada mehnat tarbiyasini tashkil etishga e'tibor qaratilishi;
- oilada bolalarning mehnat qilish, ta'lim va dam olish tartibining yo'lga qo'yilganligi;
- bolalarni maktabga tayyorlashga ahamiyat qaratilishi;
- ota-onalar yoki yoshi katta oila a'zolarining ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirisha olish layoqtalari;
- ota-onalarning xalq pedagogika g'oyalardan xabardor bo'lishlari;
- oila tarbiyasida milliy qadriyatlarda aks etuvchi g'oyalardan foydalanish malakalariga egaliklari;
- oila a'zolarining milliy ruhiyati, ruhiy tetiklikka egaliklari;
- ota-onalar hamda oilaning boshqa a'zolarining tolerantlik sifatlarini namoyon eta olishlari.

### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ijtimoiy pedagogika oilaning qanday turlari ajratib ko'rsatiladi?
2. Asosial oilalarning kelib chiqish sabablarini izohlang.
3. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish shakllarini bayon eting.
4. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish metodlarini sharhlang.
5. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish vositalarini bayon eting.

### **3.6-§. MEHRIBONLIK UYLARIDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT**

#### **Yetimlikning kelib chiqishi sabablari**

**Mehribonlik uylarining shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?**

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalar ijtimoiy mavqeining ikki tushunchasi mayjud: Yetim bola – ota-onasi vafot etgan yoki sud qaroriga muvofiq vafot etgan deb tan olingen bola hisoblanadi (O'zR FQ ning 36-37-moddalari).

Ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bola – har qanday sababga ko'ra ota-

ona qaramog' idan mahrum bo'lgan bola, bundan yetim bola mustasno.

Amaliyotda "ijtimoiy yetim" tushunchasi ham tez-tez uchrab turadi. Ijtimoiy yetim bu o'zining biologik ota-onasiga ega bo'lgan, ammo muayyan ijtimoiy sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullana olmaydigan va g'amho'rlik qilmaydigan ota-onaning farzandi hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda "yetim" va "ijtimoiy yetim" tushunchalari ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, yetim bolalar – bu 18 yoshgacha ota-onasining biri yoki ikkalasi ham vafot etgan bolalardir; ijtimoiy yetim – biologik ota-onalari bor, biroq ular turli sabablarga uning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan bolalardir, tarzida ta'rif berilgan.

Yu.V.Vasilkova, T.A.Vasilkovalarning qayd etishicha, ijtimoiy yetimlik voyaga etmaganlik, ota-onalari hayot, ota-onalik huquqidан mahrum etilmagan, biroq bolalari haqida qayg'urmasliklari bilan bog'liq hodisadir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan O'zbekistonning Multi indikatorli klasterli tadqiqoti (MIKT) natijalariga ko'ra, 0–17 yoshdagи bolalarning 91 foizi ikkala ota-onalari bilan yashaydi, 6 foizi faqat onalari bilan yashaydi, 1 foizi faqat ota bilan va 2 foizi hech qaysi bir biologik ota-onalarisiz yashaydilar. 0–17 yoshdagи bolalarning 4 foizida bir yoki ikkala ota-onasi o'lgan. Har ikkala ota-onasi bilan yashovchi bolalarning eng past foizi Toshkent shahrida (82%) va qishloq tumanlarida deb topilgan. Bu foiz yosh oshishi bilan bir yoki ikkala ota-onaning o'limi natijasida pasayadi (0–4 yoshdagи bolalar orasidagi 95% bilan 15–17 yosh dagi bolalar uchun 85%).

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari esa hozirda Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarining 1 foizining ota-onalari mehnat emigratsiyasida; 1 foizi yetim; 2 foizi ota-onalarining farzandlari; 4 foizining ota-onalari haqida ma'lumot yo'q; 8 foizining ota-onalaridan biri vafot etgan ikkinchisi yo'q; 8 foizinnig ota-onalari jazoni o'tash joyida; 9 foizi muhtoj oila farzandlari; 10 foizida ota-onalik xuquqi cheklangan yoki maxrum etilgan; 12 foizini ota-onalari farzand tarbiyasidan voz kechgan bolalar; 13 foizi

tashlab ketilgan va topib olingan; 32 foizida oilaning g'ayri ijtimoiy tur mush tarzi, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan bolalar tashkil etishi aniqlangan.

Hujjatlar tahlili asosida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muassasaga kelib tushishining asosiy sabablari sifatida quyidagilar aniqlandi:

1) yetim bolalar;

2) tarbiyadan voz kechilganlar;

3) ijtimoiy moslashmagan, noqobil oila (ota-onalar ning (yoki ulardan birini) axloqsiz va g'ayriijtimoiy xulq-atvori sababli ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki cheklangan) farzandlari;

4) ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan, ammo spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni iste mol qiluvchi ota-onalarning farzandlari;

5) ota-onasi jazoni o'tash muassasalarida (bu bolalarning ota-onasi bugungi kunda ozodlikka chiqqan bo'lishi ham mumkin, biroq, ko'p hollarda ozodlikka chiqqan ota-onalar farzandlarini Mehribonlik uylaridan qaytib olishmaydi);

6) nogironlikka ega bo'lgan ota-onalarning farzandlari;

7) yordamga muhtoj oilalar farzandlari;

8) ota-onalari mehnat emigratsiyasida;

9) ota-onalari to'g'risida ma'lumot yo'q.

Statistik tahlil natijalari "ijtimoiy yetim" bolalarning holati haqida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan, biroq g'ayriijtimoiy tur mush tarzini olib boruvchi oila farzandlari 38%;

topib olingan yoki tashlab ketilgan bolalar 15%;

o'z farzandi tarbiyasidan voz kechgan ota-onalarning bolalari 13%;

ota-onalari jazoni o'tash joylarida bo'lganlarning farzandlari 9%;

ota-onalari sog'lig'i holati sababli bolaning tarbiyasi va ta'minoti bilan shug'ullana olmaydigan (nogironligi mavjud bo'lgan)larning farzandlari 2%.

Tarbiyalanuvchilar orasida ota-onalari hakida hech qanday ma'lumot yuq bo'lgan bolalar ham bo'lib, ular 4% ni tashkil etadi. Ushbu vaziyatda mazkur

bolalarning ijtimoiy mavqeい aniqlashtirilmagan bo'lgani uchun ularni "ijtimoiy yetim" bolalar qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Ota-onalari jazoni o'tash muassasalaridagi bo'lgan tarbiyalanuvchilar 8% ni tashkil etadi. Odatda ota-onalari yoki ulardan biri jazoni o'tash joyida bo'lgan va bolaning tarbiyasi bilan vaqtincha shug'ullana oladigan boshqa qarindosh-urug'lari bo'Imagan taqdirda bola ota-onanining jazoni o'tash muddati tugaguniga qadar Mehribonlik uyiga qabul qilinadi. Ko'pgina hollarda ota-onalarning jazoni o'tash muddatlarini tugagan taqdirlarida ham o'z farzandlarini Mehribonlik uyidan olib ketish istagidan biroz yiroqda bo'ladilar.

"Yetimlik" va "ijtimoiy yetim" tushunchalarini tahlil etish yetimlikni psixologik-pedagogik fenomen, yetim bolalar esa depravatsion, institutsional va pedagogik omillar bilan bog'liq tipologik shaxsiy sifatlarga ega bolalar kategoriysi, degan xulosaga kelindi.

Respublikamizda Xalq ta'limi tizimiga qarashli 19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta Bolalar shaharchasi mavjud bo'lib, ularda jami 2534 ta bola tarbiyalanmoqda. Jumladan, ulardan 1071 nafarini qizlar, 344 nafar chin etimlar, 571 nafar yarim etim bolalar, 797 nafarini ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari, 568 ta kam ta'minlangan oila farzandlari, 112 nafarini nogironlarning farzandlari, 142 tasini ozodlikdan mahrum qilinganlarning farzandlari tashkil etadi. Mazkur turdagi muassasalarda 465 nafar tarbiyachilar hamda 1164 nafar ma'muriy va texnik xodimlar faoliyat yuritishadi.

### **Mehribonlik uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish**

**Mehribonlik uylari tarbiyachilarining faoliyat yo'nalishlari haqida nimalarni bilasiz?**

Globallashuv sharoitida o'ziga xos ijtimoiy institut hisoblanuvchi Mehribonlik uylarida ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, mazkur muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarni ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar tizimini

shakllantirish kelgusida turli salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishda o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Mehribonlik uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularni turli salbiy ijtimoiy ta'sirlardan muhofazalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda psixologik jihatdan zo'riqishlarining oldini olish kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi. Mazkur yo'nalishlarda tashkil etiluvchi jarayon samaradorligini ta'minlashda esa ijtimoiy-pedagogik faoliyat asoslarini puxta o'zlashtira olgan tarbiyachilarining o'mi va roli beqiyosdir.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish nuqtai nazaridan, tarbiyalanuvchilarining mazkur faoliyatni samarali amalga oshirishda ularning kompetentlik darajasi muhim rol o'ynaydi. Kompetentlik tarbiyachining aniq egallangan vaziyatda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olishidir. Biroq kompetentlik uni amalga oshirishning aniq vaziyatlari bilangina chegaralanib qolmaydi, balki aniq faoliyat sharoitida bilim va ko'nikma va xulq-atvor munosabatlarini safarbar etish bilan aloqadordir.

Mehribonlik uylari tarbiyachilarining tolerantlik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq kompetentligini quyidagi tarkibli qismlar orqali aniqlashtirish mumkin:

1) kognitiv: tolerant shaxs, uni shakllantirish va rivojlantirish shakl, metod va vositalari hamda kasbiy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirish haqidagi bilimlar;

2) emotisional: tarbiyalanuvchiga yondashuvga doir muloqot va tolerant ustankalar tizimi;

3) faoliyatga doir: o'zinинг tarbiyachilik faoliyatini tahlil etish, kasbiy-shaxsiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik, tarbiyalanuvchilarda tolerantlik fazilatini shakllantirish metod va vositalarini qo'llay olish.

Ana shu sababli ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi tarbiyalanuvchilarning kasbiy faoliyat qiyinchiliklariga shaxsiy tayyorligi – bu murakkab jarayon bo'lib, uch – motivatsion, kognitiv va axloqiy-psixologik mazmunga egadir. Mazkur tarkibiy qismlar bilan bog'liqlikda qator ko'rsatkichlarini ochib berish orqali ularni shakllantirish mezonlarini ko'rsatib o'tish mumkin

I. Motivatsion tarkibiy qism. Mazkur bosqichda kasbiy faoliyat va uning ob'ektiga munosabatning to'g'ri shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari va darajalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Motivatsion tarkibiy qism ko'rsatkichlari va darajalari:

1. Kasbiy yo'nalganlik: kasbiy faoliyatni to'g'ri tanlanganiga bo'lgan ishonch; kasbga ijobiy munosabat; OTM tugatgandan so'ng, kasbiy yo'nalishi bo'yicha ishlashga bo'lgan istakning yo'qolishi.

2. Mehrbonlik uyi tarbiyalanuvchilarining hayotiy pozitsiyasi shakllanishiga yordam berishga intilish: etim bolalarga yordam berishga faol intilish; shaxsiy tashabbus ko'rsatmagan holda etim bolalarga yordam berish istagi; etim bolalarga loqayd munosabatda bo'lish.

3. Kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni engib o'tish motivining mavjudligi: kasbiy va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj; kasbiy faoliyatdagagi qiyinchiliklarni engib o'tishga intilish; o'z faoliyatidagi nimanidir o'zgartirishga xohishning mavjud emasligi.

II. Kognitiv tarkibiy qism. Ushbu tayyorlik bosqichi tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni, qonuniyat va tamoyillaridan to'la xabardor bo'lishini taqozo etadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari va darajalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Kognitiv tarkibiy qism ko'rsatkichlari va darajalari:

1. Ijtimoiy-pedagogik ishning o'ziga xosliklari haqida ma'lumotga egalik.

1) Mehrbonlik uyidagi ijtimoiy pedagog ishining o'ziga xosligi haqidagi bilimlarining to'liqligi, chuqurligi va tizimliligi;

2) ijtimoiy pedagogik ishning o'ziga xosliklari va talablari haqidagi bilimlari tizimli bo'lmasa ham, yaxlitlikda to'g'riliqi;

3) ijtimoiy pedagogning Mehrbonlik uyidagi ishi haqida zaruriy bilimlarning mavjud emasligi

2. Mehrbonlik uyidagi tarbiyalanuvchilarining o'ziga xosliklari va muammolarini bilish va tushunish:

- 1) yetim bolalarning ijtimoiy, tibbiy-psixologik muammolari, pedagogik o'ziga xosliklari haqida chuqr bilimga egalik;
- 2) Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o'ziga xosliklari va muammolari haqida chuqr tushunish mavjud bo'lmasa-da, yaxlitlikda ularning to'g'riligi;
- 3) yetim bolalarning o'ziga xosliklari haqidagi zaruriy bilimlarning mavjud emasligi.

3. Ijtimoiy-pedagogik ishni amalga oshiruvchi tarbiyachi sifatida Mehribonlik uyidagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq qiyinchiliklarni tasavvur qilish:

- 1) Mehribonlik uyidagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq qiyinchiliklarni aniq tasavvur qila olish;
- 2) yaxlitlikda to'g'ri, biroq kasbiy faoliyatdagagi qiyinchiliklar haqida juda umumiylashtirish tasavvurga egalik;
- 3) kasbiy faoliyatdagagi qiyinchiliklar haqida adekvat bo'limgan tasavvumning mavjudligi.

III. Axloqiy-psixologik muvofiqlik. Kasbga doir shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi mazkur bosqchingining muhim natijasidir.

Axloqiy-psixologik muvofiqlik ko'rsatkichlari va darajalari:

1. Empatiya tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro ijobiyligini harakat sharti sifatida:
  - 1) empatiya qobiliyatining yuqori darajada rivojlanganligi;
  - 2) o'rtacha aks etuvchi empatiyaning mavjudligi;
  - 3) empatiyaning sust namoyon bo'lishi.
2. Tarbiyalanuvchini qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish sifatidagi bag'rikenglik:
  - 1) tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda tolerantlik tamoyiliga amal qilinishiga doir shaxs sifatining doimiy, yaxshi namoyon bo'lishi;
  - 2) tolerantlik tamoyilini e'tirof etish;
  - 3) bag'rikenglikning etishmasligi.

### **3. Emotsional moslashuvchanlik:**

- 1) qiyin pedagogik vaziyatlarda o'zining salbiy empatiyasining nazorat qilish qobiliyatining yuqori darajada rivojlanganligi;
- 2) o'zining emotsiyal holati ustidan nazoratning mavjudligi;
- 3) o'z his-tuyg'ularini jilovlay olishning mavjud emasligi.

Mazkur faoliyat tarkibiy qismlari, mezon va ko'rsatkichlariga asoslangan holda, Mehribonlik uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni texnologik jihatdan quyidagi tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. Tayyorlov – tarbiyalanuvchilaming xulq-atvorini kuzatish, ular bilan individual va jamoviy tarzda suhbatlar tashkil etish, tolerantlik fazilatini shakllantirish bilan bog'liq faoliyat shaki, metod, usul va vositalarini aniqlab olish, tarbiyaviy tadbirlar ishlanmasini tuzish
2. Tashkiliy – muammolarni tasniflash, ulamgi tahlil qilish. tarbiyachi tolerantlik fazilatini shakllantirishga doir faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini, ijtimoiy ijod shakllarini aniqlaydi, ishda ijtimoiy institutlami (oila, maktab, yoshlar tashkilotlari, sog'lomlashtirish muassasalari, armiya, ijtimoiy xizmatlar) tartibga soladigan ijtimoiy yordamchilar tarkibini tuzadi, ta'lim, sog'liq, dam olish payti muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot, to'garaklar imkoniyatlarini o'rghanadi,
3. Bevosita ijtimoiy-pedagogik ish – kuzatuv, amaliy faoliyatni tashkil etish, amalga oshirish, murakkab vaziyatlarning tahlili.
4. Yakuniy-baholovchi – amalga oshirilgan faoliyat natijalarini o'rghanadi va tizimlashtiradi, kelgusida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtiradi va istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi.

## **Vasiylik va homiylik. Farzand boqib olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat**

**Sizningcha, vasiylik va homiylik tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?**

Vasiylik — voyaga yyetmagan yetim bolalarga ular voyaga yetguncha g'amxo'rlik qilish va ularga qolgan mol-mulkka qarab turish, ya'ni ma'naviy otalik. "Vasiy" deganda muomalaga layoqatsizlarni shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlovchi shaxs tushuniladi. Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalgaloshiriladi: farzandlikka olish yoki davlat qaramog'iga topshirish.

Homiylilik — biror kimsani himoya etish, tarafini olish. Shuning uchun "homiylilik" deganda, bu kabi majburiyat zimmasiga yuklatilgan shaxs yoki muassasa tushuniladi. Homiylik yuklatilgan shaxs yoki korxona "homiy" deyiladi.

Ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar farzandlikka olinishi, vasiylik, xomiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga berilishi mumkin. Bunday imkoniyat bo'lmaganda esa etim bolalar yohud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat muassasalarida tarbiyalanadilar.

Farzandlikka oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi oilasi hisoblanadi. Bola shu oilaning familiyasini olishi, oila esa unga boshqa ism ham berishi mumkin. Oila bolalikka olingan bolaning barcha xuquq va majburiyatlarini o'z bolalarining xuquq va majburiyatlariga tenglashtiradi. Farzandlikka olish bir nechta bosqichda amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunda avval bolaga shu mintaqada yangi ota-onalar topishga harakat qilinadi, agar buning imkoni topilmasa, u holda bolalikka oluvchilarni davlatdan tashqarida qidiriladi.

Farzandlikka oluvchi ota-onalar bolali yoki bolasiz bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, to'liqsiz oilalar, yakka shaxslar ham farzandlikka olishi mumkin. Ulami bolani o'z oilasiga qabul qilishga undovchi bir qator sabablar mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- fiziologik sabablarga ko'ra o'z bolasi bo'lmagan holatda bolal bo'lish xohishi;
- o'z bolasining vafot etishi;

- o'z bolalari ulg'aygach, yana bolali bo'lish xohishi;
- jamiyatda muhtoj bolalarga rahmdillik hissi;
- yolg'izlik hissi;
- diniy sabab va boshqalar.

Bolani oilaga berish, avvalambor, bunday oilalarni tanlab olish, ularni bu faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmini ta'minlaydigan me'yoriy-xuquqiy bazaning yaratilishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 151–moddasida farzandlikka olishning qonuniy asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Farzandlikka olishga faqat voyaga yyetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarning ko'zlab yo'l qo'yiladi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik istagan homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar xokimi qarori bilan amalgalash oshiriladi. Voyaga yyetmagan bolalarning huquq va manfaatlarni ta'minlash uchun ularni farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. Bolalarning manfaatlarni himoya qilish farzandlikka olishning asosiy shartidir. "Bola manfaatlari" deyilganda birinchi navbatda, uning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishi uchun to'laqonli sharoit yaratish tushuniladi.

Farzandlikka olish(erish) masalasini hal qilishda qator muhim faktorlarni e'tiborga olish va har bir farzandlikka olishga individual yondashish kerak. Bolaga uning manfaatlarni mumkin qadar to'laroq ta'minlay oladigan oilani tashlash uchun uning ruhiy holati, shu bilan olinayotgan oiladagi moddiy va ma'naviy sharoit, qolaversa, yana boshqa qator holatlar etiborga olinishi lozim bo'ladi

Faqat voyaga yetmagan bolalar, ya'ni 18 yoshga to'limgan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin. Voyaga yetmagan bo'lsada, lekin Fuqarolik Kodeksining 28 – moddasi nazarda tutilgan tartibda emansipatsiya qilingan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin emas. Chunki shaxs voyaga etish yoki emansipatsiya qilinish oqibatida to'liq muomala layoqtiga ega bo'ladi va uni tarbiyalashga, xuquq va manfaatlari o'zga shaxslar tomonidan himoya qilinishiga zaruriyat qolmaydi, ya'ni farzandlikka olishning asosiy maqsadi – bolaning oilada tarbiyalanishi ta'minlash zaruriyat o'z ahamiyatini yo'qatadi. Garchi bola voyaga etgunga qadar bolalikka

olishni istagan shaxsning oиласида tarbiyalangan bo'lsa ham, uni farzandlikka olishlariga yo'l qo'yilmaydi. Farzandlikka olish faktini sud tartibida aniqlash ham mumkin emas.

Farzandlikka berilayotgan bolani tibbiy ko'rnikdan o'tkazish tartibi qonunda belgilanmagan. Qonun mazmuniga ko'ra, nafaqat sog'lom bolalar, balki biror bir kasalga chalingan yoki rivojlanishda kamchiliklari bo'lган bolalar ham farzandlikka olinishi mumkin. Shubxasiz, kasal bolalarni tarbiyalanishi qiyin kechadi, bu qiyinchiliklarga ba'zan bolaning o'z ota – onalari xam chidash berolmasligi mumkin. Shuning uchun farzandlikka oluvchilar bolaning salomatligi darajasi, agar unda biror kasallik bo'lsa, bu kasalning xususiyatlari va tug'ilish mumkin bo'lган oqibatlar haqida xabardor qilishlari lozim. Buning uchun farzandlikka berilayotgan bola tibbiy ekspert komissiyasi tomonidan ko'rnikdan o'tkazilib, uning sog'lig'i shu jumladan jismoniy va aqliy rivojlanishi darajasi to'g'risida xulosa olinmog'i lozim. Farzandlikka oluvchilarning talabiga ko'ra mustaqil tibbiy ekspertlar ko'rigidan ham o'tkazish mumkin. Kasal bolani farzandlikka oluvchi uni tarbiyalash majburiyatini ixtiyoriy va to'liq ongli ravishda o'z zimmasiga olayotganligi aniqlangan holdagina uni farzandlikka olishga ruxsat berish mumkin.

Farzandlikka olish mutlaq ixtiyoriydir. Shuning uchun bolani farzandlikka olishga to'sqinlik qiluvchi holatlar bo'lmasa, qaysi bolani farzandlikka olishni oluvchi shaxsning o'zi hal qiladi. Bolani farzandlikka berish haqidagi qarorni esa uning manfaatlarini e'tiborga olgan holda vakolatli organlar qabul qiladi. Qaror chiqqan kundan boshlab farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganga nisbatan bir umrga ota-oni, u esa ularga farzand hisoblanadi.

Bir paytning o'zida ikki yoki undan ortiq bolani farzandlikka olish mumkin. Bu holatlarda farzandlikka olinayotgan har bir bola haqida alohida-alohida qaror chiqariladi. Farzandlikka olish bolani nafaqat ota-onasi, balki yaqin qarindoshlari bilan ham huquqiy aloqalari buzulishini e'tiborga olib, aka-uka, opa-singillarning qarindoshlik aloqalarini uzmaslik uchun, ularni bir shaxsga farzandlikka berish maqsadga muvofiqdir.

Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida tuqqan ota-onal bilan bolalar o'rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi va farzandlikka olish sir saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir shaxsning hayoti va sirlarining dahlsizligini kafolatlaydi (27- modda).

Farzandlikka oluvchi oilalar va ularda vazifalaming farqlanishiga qaramay, ijtimoiy pedagogning bu oilalar bilan ish yuritishini belgilab beruvchi bir qator umumiy qoidalami keltirish mumkin. Bu faoliyatni bir qator bosqichlarga ajratsak bo'ldi: oilalarni tanlash, ota-onalami o'qitish, bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bo'yicha faoliyatlarining patronajini o'tkazish va boshqalar. Shuningdek, ijtimoiy pedagogning faoliyati doim boshqa mutaxassislar, ya'ni ijtimoiy xodimlar, shifokorlar, psixologlar, defektologlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat, har qanday boshqa faoliyat kabi, faoliyat maqsadi, sub'ekti va ob'ekti, funktsiyalari, tashkil qilish metodlari va usullari bilan aniqlanadi. Farzandlikka oluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishning maqsadi oilada bola tarbiyasini to'g'ri ta'minlash va uni har tomonlama rivojlantirish va shu oilaga moslashib ketishini to'liq ta'minlash. Bu jarayonning sub'ektlari esa yuqorida sanab o'tilgan mutaxassislardir.

Faoliyat ob'yekti oila va bola hisoblanadi. Farzandlikka oluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishni bir nechta bosqichlarga ajratib, bu bosqichlarda ijtimoiy pedagog faoliyatining vazifalarini belgilash mumkin (4-jadval).

#### 4-jadval

#### **Farzandlikka olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari va mazmuni**

Nº	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat vazifalari	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari
1	Farzandlikka oluvchi oilani qidirish.	Axborot berish	Anketa so'rovlar, suhbat, interv'yu o'tkazish
2	Bo'lg'usi qabul qiluvchi ota-onalarni o'rganish.	Tashhis qo'yish (ilk)	Anketa so'rovlar, o'tkazish, suhbat
3	Bola bo'lgan muassasa va oilalarga tashrif buyurish (bolalar uyi, inqirozli oila) va	Vositachilik	Kuzatuv, suhbat

	boshqalar		
4	Bo'lg'usi bola qabul qiluvchi oilani o'rghanish.	Tashhis qo'yish (guruhlashgan)	Test o'tkazish, suhbat, hujjatlarni o'rghanish
5	Boshlang'ich ta'lim: ma'ruza qilish, hikoya, suhbat o'tkazish, video-fil'mlar ko'rsatish.	Ta'lim berish	Ma'ruza, suhbat, kuzatuv, mashg'ulotlar
6	Bolani oilaga oylashtirish, ota-onalarga chuqur ta'lim berish.	Patronaj	Kerakli metodlardan o'z o'mida foydalanish

Birinchi bosqich farzandlikka oluvchi ota-onalarini qidirish bilan bog'liq. Berilgan arizalar o'rjanib chiqilib, unda mas'uliyatni bo'yningariga olmoqchi bo'lgan shaxslarning familiya, ismlari, yashash manzili, uy telefoni, bolalarining yoshi, qaysi jinsdagi va necha yoshli bola olmoqchiligi, bola bilan qancha muddat birga bo'lishlari va boshqalar aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu bosqichda ijtimoiy pedagog axborot berish funktsiyasini bajarib, boshqa mutaxassislar bilan birgalikda so'rovnomada o'tkazadi.

Ikkinchi bosqichda ariza topshirgan nomzodlarga anketa yoki boshqa hujjatlarni to'ldirish taklif qilinadi. Unda bo'lajak ota-onalar oila tarixini bayon etishadi: o'z turmush tarzlarini, oila a'zolarining diniy mansubligini, turmush o'itoqlarining sog'lig'i holatini, moddiy holatlarini, oilaga bola qabul qilish sabablarini xarakterlab berishadi. Anketa yoki axborot xaritasini ijtimoiy pedagog yana o'sha mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqadi. Shunday qilib, bola qabul qilishga tayyor bo'lgan oilaga o'ziga xos «tashhis» qo'yiladi.

Uchinchi bosqich oila bolalar uyi yoki bola joylashgan boshqa muassasaga ilk tashrifdan iborat bo lib, bu bosqichda ijtimoiy pedagog bola hamda farzandlikka oluvchi oila o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. U bolani kuzatadi, uning tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan shaxslar bilan suhbatlar o'tkazadi.

Turtinchi bosqich oila va uning atrofdagilarini yaxshilab o'rjanishni talab qiladi (chuqurlashgan tashhis). Ijtimoiy pedagog bo'lajak ota-onalar tomonidan to'ldirilgan anketa va ariza bilan tanishib chiqib, bevosita oila bilan tanishadi, oila a'zolari bilan suhbatlar o'tkazadi, undagi pedagogik iqlimni, oila a'zolaridagi

odatlarini va boshqa jihatlarni aniqlaydi. So'ngra ijtimoiy pedagog boshqa mutaxassislar bilan birgalikda, oilaning yaqin atrofdagilarini (qo'shnilar, hamkasblar, do'stlar) o'rganib chiqadi. Bu vazifa suhbat yoki maxsus ishlab chiqilgan anketalar yordamida bajarilishi mumkin.

Beshinchi bosqich bo'lajak ota-onalarni boshlang'ich o'qitish bilan bog'liq bo'lib, bola joylashgan muassasada nazariy bilimlarga asoslangan amaliy malaka oshirish o'tkaziladi. Bunda ijtimoiy pedagog ta'lim beruvchi funktsiyasini bajaradi, kurs dasturini ishlab chiqadi.

Oltinchi bosqich farzandlikka oluvchi oilaga topshirish bilan bog'liq. Bu holatda asosiy faoliyat vasiylik va adliya organlari tomonidan bajariladi. Bolani oilaga topshirgan vaqtidan boshlab, ijtimoiy pedagog patronaj o'tkazish funktsiyasini bajaradi. Bolani qabul qilgan oilada ikki tomonlama moslashtirish (oilani bolaga, bolani oilaga) boshlanadi. Bu esa ham bola, ham ota-onalarga muammolar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, bu bosqich kirish kursining davomi bo'lib, ota-onalarni o'qitishning chuqurlashtirilgan kursi o'tiladi. Ijtimoiy pedagog, boshqa mutaxassislar bilan birgalikda yangi dasturni ishlab chiqadi. Qabul qiluvchi oilada ota-onalarni o'qitish mazmuni ko'p holatlarga bog'liq: bolani qanday oila bolalikka oldi (ko'p bolali, bolasiz va boshqalar), qabul qiluvchi ota-onaning yoshi, farzandlikka olishga undagan sabablar, oilaga qabul qilingan bolaning shaxsiyati (yoshi, jinsi, biologik ota-onalarning bor-yo'qligi).

OKning 179-moddasida vasiy va homiy tayinlash tartibi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy tayinlaydi. Vasiy yoki homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagi fuqarolar ularning roziligi bilangina tayinlanishi mumkin. Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma'lum bolgan vaqtidan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim. Vasiy yoki homiyini tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarini bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik yoki homiylikka muhtoj shaxs o'rtaсидаги munosabatlar, shuningdek, vasiylik yoki homiylikka olinuvchining o'z xohishi e'tiborga olinishi lozim.

Vasiy oila sud qarori asosida aniqlanadi. Vasiy vazifalariga bolani hammonlama tarbiyalash va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilish kiradi. Vasiy bola tasarrufida bo'lgan ko'char va ko'chmas mulklardan foydalanish va ularni saqlab qolishni ta'minlaydi. Biroq vasiyning o'zi bu mulkdan foydalanish huquqiga ega emas.

Bolalikka oluvchi oilaning yana bir turi mavjud, ya'nii bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila. Bunday oila bola to'satdan oilasidan ayrilsa (turli sabablarga ko'ra, ya'nii o'z oilasida fojiali vaziyat, o'lim va boshqalar) zarur bo'lib qoladi. Bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila bolalikni himoya qilish shakllaridan biri sifatida bir qator rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Bizning davlatda bunday oila keng tarqalmaganligini sababi, aksariyat hollarda o'zbek millatida ota-onasidan to'satdan ayrilgan bolalarni qarindoshlari, yaqinlari vasiylikka oladilar. Agarda ota-onan vaqtincha biron joyga (xizmat safariga, davolanishga va boshqa sababalar bilan) ketib, o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasi bilan shaxsan shug'ullanishga imkon bo'lmay, bolasini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari qaramog'ida tarbiyalash va nazorat qilish uchun qoldirgan bo'lsalar, bunday bolalarga vasiylik va homiylik belgilanishi shar emas. Ammo bola qaramog'ida qoldirilgan shaxslar uning tarbiyasi bilan shug'ullanmayotganligi va uni nazoratsiz qoldirayotganliklari aniqlangan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaga nisbatan uning manfaatlardan kelib chiqib vasiy yoki homiy tayinlashga haqli.

Ayrim holatlarda vaqtincha o'z bolalari tarbiyasi bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lмаган (uzoq muddatli xizmat safariga yoki davolanishga ketayotgan) ota-onalar o'z bolalariga vasiy yoki homiy tayinlashni so'rab vasiylik va homiylik organiga murojaat qilishlari mumkin. OKning 194 moddasida oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat) haqida ko'rsatib o'tilgan.

Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish o'z mohiyatiga ko'ra, ota-onan qarmog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shaklidir. Ota-onan qaramog'idan mahrum

bo'lgan bolalarni tarbiga olishni xohlagan fuqarolar (er-xotin yoki erkak va ayollar) –tutingan ota-onasiga oilaga tarbiyaga berilayotgan bola-tutingan oila deb ataladi.

Bolalami oilaga tarbiyaga berish ota-onasiga qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan ancha farq qiladi. Bolani oilaga tarbiyaga berish farzandlikka olishdan o'zining shartnomaviy va vaqtinchalik ekanligini hamda o'zaro ta'minot berish majburiyati vujudga kelmasligi bilan, vasiylik va xomiylikdan esa, munosabatlarni rasmiylashtirish usuli bilan farq qiladi.

Bolalarning tutingan oilaga tarbiyaga berilishi tutingan ota-onasiga va tutingan farzandlar o'rtaida aliment va vorislik xuquqiy munosabatlarini vujudga keltirmaydi.

Bolani vaqtinchalik qabul qilgan oila vasiylik oilasidan farq qiladi. Agar xorij tajribasiga murojaat qilsak, uning bir nechta belgilarini aniqlash mumkin bo'ladi: bunday oilaning psixologik-pedagogik tayyorligiga mos tushuvchi malakaning mavjudligi; bu oila xizmatlariga haq to'lanishi; bolaning oilada bo'lish vaqt qabul qiluvchi ota-onanining ish stagi muddati hisoblanishi va boshqalar.

Bola vaqtincha qabul qiluvchi oilada uning keyingi taqdiri hal bo'lgunga qadar yashaydi. U o'z oilasiga qaytishi, Mehribonlik uyi, internat yoki boshqa muassasaga yuborilishi mumkin. Bolaning o'z oilasiga qaytib kelishi, uni oiladan ajratib olinishi sabablarini bartaraf etilganini nazarda tutadi. Bular ota-onasining davolanishi, oila inqirozining tugashi va shu kabibi holatlar.

Bolani bu oilada bo'lishi bir oydan bir necha yilgacha cho'zilishi ham mumkin. Bolani qabul qiluvchi oilada qisqa muddatli bo'lish o'z oilasida inqirozli holatda yoki to'satdan ota-onasidan judo bo'lganda, unga shoshilinch yordam ko'rsatilishini anglatadi. Bolani qabul qiluvchi oilada uzoq muddat bo'lishi bola o'z oilasining uzoq reabilitatsiya jarayoni yoki boshqa sabablar bilan izohlanishi mumkin.

Vaqtinchalik qabul oilasiga kelayotgan bolalar kontingentining murakkabligini (ijtimoiy qarovsiz, kasallik, jismoniy va ruhiy nuqsonlar) inobatga olib, oilalarda bu bolalarning normal rivojlanishi uchun alohida sharoitlar yaratilishi, g'amxo'rlik qilinishi lozim. Bular bolaga boshidan kechirgan qiyin vaziyat bilan bog'liq stress holatidan chiqishga yordam beradi. Bunday oilaning asosiy maqsadi biologik ota-

onalar bilan aloqalarni uzmaslik va bolani o'z oilasiga qaytarib berish. Agar bolani o'z oilasiga qaytarishning imkoniyati bo'lmasa, u holda bolaning keyingi taqdiri borasida sud qarori chiqmaguncha, bola vaqtinchalik qabul oilasida bo'lib turadi. Aslida, bunday oila, biologik oilada biror-bir inqirozli vaziyat yuzaga kelganda, "tez tibbiy yordam" vazifasini bajaradi.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. "Yetim" va "ijtimoiy yetim" tushunchalariga izoh bering.
2. Yetimlikning kelib chiqish sabablarini izohlang.
3. Mehrbonlik uylarining asosiy vazifalarini bayon eting.
4. Mehrbonlik uylarida tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini yoritib bering.
5. Vasiylik va homiylikning mohiyatini ochhib bering.
6. Farzand asrab olgan oila bilan oilb boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni bayon eting.

### **3.7.-§. TA'LIM MUASSASALARIDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYAT**

**Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni**

**Tarbiyasi og'ir bolalar deganda kimlar tushuniladi?**

Bola tarbiyasi insoniyat mavjudligining muhim sharti hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlarni boshlab yuboriladi. SHunday bo'lsa-da jamiyatda qanchalik tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilmasin, xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, hatti-harakatlarini nazorat qilishdan holi bo'Imagan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e'tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik

jamiyat uchun kattadan-katta yuqotishlarga olib keladi. SHu bois tarbiyasi va xulq-atvorida o'zgarishi bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki tarbiyasi qiyin bolalarda bir qator o'ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki, ular:

- ◆ ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda;
  - ◆ o'rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda;
  - ◆ o'ziga munosabatda va o'zini o'zi tushunishda;
  - ◆ ichki yagonalik, boshqalar bilan birlashuv bo'la olmasligi;
  - ◆ o'qishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechiruvi kabi tipik illatlar kuzatiladi.
- Ushbu illatlardan bolalarni xalos etish yoki ularni oldini olish uchun qanday ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish mumkin.

Bizningcha, tarbiyasi qiyin bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishning o'ziga xos tartibi bo'lish kerak. Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar tarbiyasi qiyin bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda:

1. Yosh jihatlariga qarab profilaktika va psixokorreksiya ishlarni boshlash talabi. Chunki, tarbiyasi qiyinlarga o'smirlilik yoshiga xulqdagi buzilishi qat'iy shakllangan vaqtida kelib proflaktik va korreksion tadbirlarga qo'l uriladi. Balki xulq-atvordagi o'zgarish bolalik davrida namoyon bo'lgan holda, unga chora ko'rishni kutib bo'lmaydi. Shu bois kichik maktab yoshda yoq maqsadli proflaktika va psixokorreksiya ishlarini ancha ilgari boshlash lozim.

2. Ishni differensial va individual tashkil etish. Bunda bolalarning tarbiyaviy-proflaktik jarayonda yosh va jinsiga qarab differensial hamda ularni har birini individual xususiyatlarga qarab ishni rejalashtirish

3. Ishdagи xilma-xillik ta'minlash, ya'ni vaziyat, shart-sharoitga qarab usullar, vositalardan foydalanish.

4. Insoniylik munosabatidan yondashish. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat'iy nazar ishonch

uning qiziqishlarimi hisobga olib, unga ochiq ko'ngillik bilan munosabat o'matish lozim.

5. Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan tarbiviyl-proflaktik tadbirlarni o'tkazish jarayonida ulami ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatlarga tayanib, u tashkil etilayotgan mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Albatta yuqorida sanab o'tilgan talablar umumiyyidir, ammo tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlayotgan vaqtida ularga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish uchun bir qator metod, amallar va taktlardan foydalanishni bilish lozim.

Tarbiyada ta'sir ko'rsatish metodlarining taqdirlash va jazolash jabhalariga alohida e'tibor beriladi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to'g'ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobjiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy fazilatlarni tormozlash va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash ham adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur.

Tarbiyaviy vositalar orasida tarbiya amallari borki, ularni samarali tashkil etish va amalga oshirish ijobjiy natijalarga olib keladi.

Tarbiya amallari tarbiya metodlarining tarkibiy elementlari bo'lib, ular tarbiyaviy ta'sir samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Biz tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonda mutaxassislar bir qator tarbiya amallaridan foydalanishlari o'rnlidir deb hisoblaymiz.

Pedagogik adabiyotlar tahlili asosida tarbiya amallarini maqsad va yo'nalishidan kelib chiqqan holda ularni quyidagi uch guruhga ajratish imkonini berdi.

Birinchi guruhga tarbiyachining tarbiyalanuvchiga murojaat etishi orqali uning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash yordamida tashkil etiladigan amallar.

Bu amallar toifasiga yordam ko'rsatishga ehtiyojni aniqdash amali. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga maslahat ma'nosida murojaat qilib, o'z muammolari

haqida so'zlab berishini so'raydi va shu asnoda muammoning echish yo'llarini topadi.

Yaxshi xatti-harakatlarga yo'nalish berish amalidan tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga yordam zarur bo'lganda ko'mak beradilar. Bunda ijobjiy xatti-harakatlarga alohida urg'u beriladi.

Hayot istiqbolini belgilashga ko'maklashish amali. Pedagog suhbat jarayonida tarbiyalanuvchining hayot rejalariga aniqlik kiritadi. SHundan so'ngra tarbiyalanuvchining rejalarini amalga oshirishiha ko'mak beriladi.

O'zi va boshqalar haqida so'zlab berish amali. Tarbiyalanuvchi o'tgan kunlar haqida har biri hikoya yozishni tavsiya etiladi. SHundan so'ngra ularga boshqacha yashash mumkinligi so'raladi.

Mening idealim. Suhbat jarayonida tarbiyalanuvchilarning ideali aniqlanadi va uning ijobjiy axloqiy sifatlari ajratilib baholanadi.

Tarbiyalanuvchilar uchun ertak. Bu ertakterapiya g'oyalarini bajarish uchun foydalaniladi. Tarbiyachilar qahramonlar tarbiyalanuvchilarga va ularning atrofdagilariga o'xshagan kishilar ishtiroki to'g'risida ertak tuzadilar. Ertak oxirida pedagog va o'quvchilar o'zaro mulohaza yuritadilar.

Ikkinci guruhgaga faoliyatni tashkil etishga asoslangan tarbiya amallarini kiritish mumkin.

Ushbu toifa tarbiya amallaridan biri fikrlar estafetasi bo'lib, o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha zanjirsimon tarzda biridan so'ngra ikkinchisi so'zlaydi, bir-birini to'lg'azadi, aniqlik kiritadi.

O'zini o'zi ruhlantirish amali. O'quvchilar guruhlarga ajralib, bir-biriga ma'lum savollar bilan murojaat qiladilar, Berilgan savol va javoblar solishtirilib, so'ngra muhokama qilinadi.

Erkin mavzuda suhbatlashish amali. Bunda har bir tarbiyalanuvchi o'zi qiziqadigan biror mavzu bo'yicha hikoya tuzadi va guruhdagilarga hikoya qilib beradi.

Uchinchi guruhgaga o'qituvchilarning o'quvchilarga atrofidagi muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan tashkiliy faoliyatlariga qaratilgan amallar kiritiladi.

Ko'rsatma berish amali. Tarbiyalanuvchilarga muomalaga va xulq-atvor qoidalariiga tayanib, berilgan topshiriqlarni bajarish so'raladi. Tarbiyalanuvchilar o'yin qoidalariiga muvofiq o'z mulohazalarini berishlari mumkin. Takliflar jarayonida har bir tarbiyalanuvchining mavqeini himoyalash inobatga olinadi.

Rollami taqsimlash amali. Ushbu tarbiya amalida tarbiyalanuvchilar berilgan mavzuni bilishiga qarab rollar taqsimlanadi va ular topshiriqni bajarishi so'raladi.

Bundan tashqari uchinchi guruh tarbiyalanuvchilar ijodiy yondashish, har xil rolli o'yinlar tarzidagi amallardan foydalanishlari mumkin.

### **Iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni**

**Iqtidorli o'quvchilar ham ijtimoiy pedagogikaning obyekti bo'lishi mumkinmi?**

Iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiylashuvi murakkab, uzlusiz va ko'plab funksiyalarga ega jarayon bo'lib, atrof-muhit va iqtidorli o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan faoliyat, muloqot, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, tashqi muhit bilan individning ijtimoiy aloqalarini kengaytirishni talab etuvchi biologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy, pedagogik darajalar bilan bog'liqlikda ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonining asosiy farqli jihatni o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish hamda turli hayotiy vaziyatlarda yuza keladigan muammolarni hal etishning nostandard usullarini o'zlashtirigma insonni tarbiyalashda aks etadi. Ana shu sababli pedagogik jarayonda o'zarlo birlgiligidagi harakatda iqtidorli o'quvchida o'z ustida mustaqil ishlash, erkin fikrlash, ijodiy xayolot, ixtirochilik, yaratuvchanlik sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirish ma'lum bir mexanizmlarga asoslanishni talab etadi.

Ijtimoiylashuvning umumiylariga asoslangan holda, iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning quyidagi mexanizmlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

ana'naviy – oila va yaqin muhit orqali iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalg etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional – ijtimoiy institutlar va ta'lif muassasalari tomonidan iqtidorli o'quvchilarining rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo – iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalg etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlanтирish;

refleksiv – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

Iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo'lga qo'yishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajribani kiritish mumkin.

Iqtidorli o'quvchilarining ijtimoiylashuvida "hamma singari bo'lish" tamoyilidan ko'tra, o'z-o'zini va o'z individualligini namoyon etish ehtiyoji ustunlik qiladi. Ana shu sababli mazkur jarayonda shaxs va muhit ta'sirini uyg'unlashtirish taqozo etiladi.

Iqtidorli o'quvchilarining ijtimoiylashuvida quyidagi bosqichlarni hisobga olish lozim: boshlang'ich jamoalashuv yoki moslashuv bosqichi. Bunda o'quvchi tomonidan ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi, moslashtiriladi va qabul qilinadi; individuallashuv bosqichi. Bunda o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashlari va mustaqil firlarini ruyobga chiqarishda o'zining mustaqil fikrini bildirish istagi, jamoat xulq normalariga nisbatan ijobjiy hamda tanqidiy fikrashuv paydo bo'ladi; integratsion bosqich. O'quvchi jamiyatda o'zi o'mini topish, jamiyat hayotiga kirishish, atrofdagilarga ijobjiy tomondan tanilish, faoliyatda o'zini ijobjiy tarafdan ko'rsatish harakatiga tushadi, ya'ni shaxs sifatida o'zini tanitish istagi birinchi o'ringa chiqadi; ijtimoiy faoliyat bosqichi. Bu bosqich inson balog'atga etgan davrdan boshlab, hayotining oxirigacha davom etadi. SHaxsnинг o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni, ya'ni

o‘zining intellektual salohiyatini tashqi va ichki omillar ta’sirida shakllantirib boradi. Bunda mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Iqtidorli o‘quvchilarning muvafaqqiyatlari ijtimoiylashuvi ta’lim muassasalarida quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi: o‘quvchilarining ma’lumotlar bazasini yaratish. Ma’lumotlar bazasi o‘quvchi shaxsiga tegishli barcha ma’lumotlarni qamrab olishi kerak; ta’lim muassasasidagi ijtimoiy muhitning aniq tahlilini amalga oshirish. Aynan muhit qanday darajada ekanligi o‘quvchi tarbiyasiga, uning intellektual ijodiy salohiyatining shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatadi. Muhit tahlili quyidagi ko‘rinishda amalga oshirilishi kerak: mavjud ijtimoiy muhitning asl holatini, intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi harakatlarini aniqlash; o‘qituvchilarning ijtimoiy muhitga munosabatini aniqlash; o‘quvchilarning ijtimoiy muhitga, rahbariyat olib borayotgan faoliyatga munosabatini aniqlash; o‘quvchilar orasidagi ijtimoiy fikrni o‘rganish; yuzaga kelayotgan va echimini kutayotgan muammolarni aniqlash; o‘quvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini oshiruvchi aniq reja va dasturlarni ishlab chiqish.

Muhit tahlili asosida ishlab chiqilgan reja va dasturda eng avvalo, bajarilishi kerak bo‘lgan dolzarb ishlarni belgilab olish kerak. Bunda quyidagilar aniq ko’rsatilishi lozim: ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ijodiy va tarbiyaviy ishlar; oilalarda amalga oshiriladigan intellektual musobaqa va ijodiy ishlar; jamoat tashkilotlari, turli jamg‘armalar va homiy tashkilotlar bilan amalga oshiriladigan ishlar; ta’lim muassasasi, sinf, guruh, yo‘nalish, bo‘limlar miqyosidagi tadbirlar; o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqaruv organi amalga oshiradigan ishlar; o‘quvchilarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga doir ishlar; salbiy oqimlar, zararli g‘oyalarga qarshi kurash muhitini shakllantirish; o‘quvchilarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining monitoringini yaratish. Amalga oshiriladigan barcha ishlarning yagona monitoringini shakllantirish orqali, jarayonni bevosita kuzatish imkoniyati yuzaga keladi. Bundan tashqari jarayonning borishini ham tahlil qilish mumkin.

Ijtimoiy tajriba iqtidorli o'quvchilami ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks ettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustankalar yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korreksiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan "o'z-o'zini boshqarish tajribasi"ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni sub'ekt-sub'ekt munosabatlariiga jalg etish; sub'ektda tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsiional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan sohalar uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihibaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish;

interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

Umumta'lim maktablarida sinf rahbarining iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniyy faoliyatining o'ziga xosliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'zaro hamkorlik, madaniy-ijodiy va empatik muloqoti asosida sinf rahbari va iqtidorli o'quvchilarning samarali birgalikkagi faoliyatini tashkil etish. Mazkur jarayonda individual – suhbat, gurunglashish, maslahat berish, fikr almashish, birgalikda topshiriqlarni bajarish, aniq bir ish yuzasidan individual yordam ko'rsatish, muammolarning echimini birgalikda izlab topishi; guruqli – rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, matbuot anjumani, munozara klublari kabi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq; ijobjiy emotsiyal munosabatni rivojlantirish nuqtai nazaridan iqtidorli o'quvchilarni bir nechta rollarni bajarishga yo'naltirish. Faoliyat shakllariga forumlar, ijodiy guruahlarni tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish organlari, mikro to'garaklarni kiritish mumkin; ijtimoiy ahamiyat kabi etuvchi sohalar bilan bog'liqlikda iqtidorli o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda hamkorlikdagi faoliyat jarayonida maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat tajribalarini boyitish. Faoliyat shakllariga volontyorlik, konkurslar, konsertlar, tashviqot guruhlari, turistik va sport musobaqalari kabilarni kiritish mumkin; iqtidorli o'quvchilarda tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirish uchun ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish; iqtidorli o'quvchilarning yutuqlarini omma e'tiboriga taqdim etish, muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish; iqtidorli o'quvchida umummadaniy malakalami tarkib toptirish, ijtimoiy-madaniy faoliyatning kasbiy yo'naltirilgan shakllari (kasblar laboratoriysi, mahorat darslari, kasbiy atamalar viktorinalari)ni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq kasbiy yo'naltirilgan faoliyatni hisobga olgan holda inson, tabiat va jamiyat kooevolyusiyasi haqidagi bilimlarni kengaytirish.

Iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirish mexanizmi sifatida sinf rahbari faoliyatini loyihalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi Loyihalash bu sinf rahbarining unumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida sinf rahbarining iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirishning virtual namunasini yaratishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatidir. Iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ijtimoiy-madaniy

faoliyatni loyihalashtirish o‘z navbatida sinf rahbarining mazkur faoliyatga tayyorgarligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida sinf rahbarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini bilan bog‘liq maxsus modullarni o‘qitish asosida loyihalashtirishga doir faoliyatning motivatsion-ehtiyojga doir, kognitiv, faoliyatga doir, emotsional-irodaviy va refleksiv-baholashga doir tayyorgarlik komponent-larini tarkib toptirish maqsadga muvofiq.

Sinf rahbarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini tashkil etishda quyidagi nazariy-metodologik asoslarga tayanish lozim:

tizimli-faoliyatga doir yondashuv (sinf rahbarining iqtidorli o‘quvchilar bilan ijtimoiy-madaniy faoliyatini tashkil etishning aniq usullarini amalga oshirishga tayyorgarligi haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi nazariy-metodologik strategiya);

ijtimoiy-madaniy yondashuv (ijtimoiy o‘zaro birligida harakat orqali ijtimoiy-madaniy voqelikni tahlil etishga asoslangan nazariy-metodologik yo‘nalganlik);

sheriklik-rolli yondashuv (sinf rahbari va iqtidorli o‘quvchining darsdan tashqari faoliyat jarayonida teng huquqqa ega hamkorlar sifatida ijtimoiy madaniy faoliyatni loyihalashtirish jarayonida kutiladigan natijalarni kafolatlashga yo‘naltirilgan naxariy, amaliy va tajriba-sinov ishlari tizimi).

Sinf rahbarining ijtimoiy-madaniy faoliyati mazmunini loyihalash iqtidorli o‘quvchilar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniy faoliyat andozasini yaratish, namunada aks etgan jihatlarni amalga oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida tanlov fanlari doirasida sinf rahbarlarini iqtidorli o‘quvchilar bilan ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etishga tayyorlashga doir maxsus modullarni o‘qitishni o‘z ichiga oladi.

Tashkiliy texnologik komponent loyihalash bosqichlari, metodlari, pedagogik shart-sharoitlari va shakllarini to‘g‘ri tanlash va uyg‘unligini ta’minlashni talab etadi. Mazkur bosqich sinf rahbarining iqtidorli o‘quvchilar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniy faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda samaradorligini baholash imkonini beradi.

Diagnostik komponent erishilgan natijałarni nazariy jihatdan asoslash va statistik ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Sinf rahbarining iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniy faoliyatini loyihalashtirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar o'zida tashki holatlar va maqbul muhitni aks ettiradi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy hamkorlikning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi:

makrodaraja: iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy-tarbiyaviy va madaniy muassalar hamkorligi;

mikrodaraja: umumta'lim maktablarining pedagoglari va iqtidorli o'quvchilarning ota-onalarining hamkorlikdagi faoliyi;

iqtidorli o'quvchi shaxsini shakllantirish darajasi: o'z-o'zini rivojlantirish va iqtidorining to'liq namoyon etishni ta'minlash.

Sinf rahbarining iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy-madaniy faoliyatini loyihalashtirishning texnologik modelini eng muhim jihatni ikki – bir tomonidan sinf rahbarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish, ikkinchi jihatdan iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy faoliyatdan qoniqish darajasini kafolatlash imkoniyatini taqdim etishidir.

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Tarbiyasi og'ir o'smirlarning xulq-atvoridagi buzilishlarning sabablarini bayon eting.
2. Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishda nimalarga e'tibor berish lozim?
3. Iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishga zarurat nimada?
4. Iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning asosiy yo'nalishlarini bayon eting.
5. Sinf rahbarining iqtidorli o'quvchilar bilan olib boradigan ijtimoiy-pedagogik ish shakllarini yoritib bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисодиёт, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 315 б.
4. Каримов И.А. Ҳавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1999. – 686 б.
6. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999 – 381 б.
7. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
9. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 24 б.
10. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
11. Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 24 б.
12. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 59 б.
13. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиға киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 б.
14. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруzasи. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

15. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатый тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.– 102б.
16. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
17. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б.
18. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. – Казан: Центр инновационных технологий, 2000 – 608 с.
19. Бедаш Н.Н. Развитие и воспитание детей – социальной заказ общества. // Вестник НГУ. Серия: Педагогика, 2009. Том 10, выпуск 1. – С.110-113.
20. Белова Е.С. Одаренность малыша раскрыть, понять, поддержать. – М.: Флинта, 1998. – 144 с.
21. Брюно Ж. и др. Одаренные дети: психоло-педагогические исследования и практика// Психологический журнал. – 1995. - №4. – С.73-75.
22. Выготский Л.С Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2005.– 671 с.
23. Голованова И.И., Асафова Е.В., Телегина Н.В. Практики интерактивного обучения. – Казан: Казанский университет, 2014. – 245 с.
24. Гребенюк О.С. Педагогика индивидуальности: Курс лекций. – Калининград, 1995. – 94 с.
25. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения: монография. – М.: ИНТОР. – 1996. – 544 с.
26. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. [Текст] / В.В. Давыдов. – М.: Изд. Центр «Академия». – 2004. – 288 с.
27. Дьюи Дж. Демократия и образование. – М.: Педагогика-Пресс. – 2000. – 384 с.
28. Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – М.: Карапуз. – 2009. – 352 с.
29. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – Б.43.
30. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.
31. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 101 б.
32. Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим янгиланиш йўлида. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 207 б.
33. Каримова В. Психология. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 204 б.

34. Клапаред Э. Психология ребенка и экспериментальная педагогика. – М.: ЛКИ, 2007. – 168 с.
35. Леонович А.В. Исследовательская деятельность школьников: международные проекты // Народное образование. – 2010. – №3. – с. 253-258.
36. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Изд. центр «Академия». – 2004. – 352 с.
37. Маслоу А. Психология бытия. // Пер. с англ. О.О. Чистякова. – Рефл-бук: Ваклер, 1997. – 84 с
38. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйин, 2010. – 760 б.
39. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: ACADEMA, 2006. – 205 с.
40. Нишонова С. Маънавият дарслари. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 320 б.
41. Подласый И.П. Продуктивная педагогика. – М.: Народное образование, 2003. – 496 с.
42. Психология: Словарь. // Под.общ.ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М., 1991. – С.247.
43. Роджерс К. Свобода учиться. [Текст] / К. Роджерс, Д. Фрейберг. – М.: Смысл. – 2002. – 527с.
44. Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – 288 с.
45. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теория и методика. М.:Академия, 2002. – 420 с.
46. Сластионин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч.– М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.2. – 256 с.
47. Сластионин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003. – 192 с.
48. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека. – М.: Питер, 1995. – 215 с.
49. Столяренко А.М. Общая педагогика – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 479 с.
50. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 448 с.
51. Тарбия: (ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия). / Тузувчи М Н.Аминов. – Т.: “Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 740 б.

52. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т.: Фан, 2006. – 261 б.
53. Тройнев В.А., Тройнев И.В. Интенсивные педагогические технологии в гуманитарном образовании (методология и практика). – М.: Дашков и К°, 2006. – 282 с.
54. Фалсафа: комусий лугат (Тузувчи ва масъул мұхаррир Қ.Назаров). – Т. Шарқ, 2004. – Б.173-174.
55. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. – М.: Гардарики, 2001. – 256 с.
56. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения/ Пер. с англ. – СПб.: Рень, 2001.- 240 с.
57. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллый кутубхонаси нашриёти, 2009. – 232 б.
58. Курунов М. Болам баҳтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Т.: «Маънавият», 2013. – 320 б.
59. Курунов М. Биз англаётган ҳақиқат. – Т.: «Маънавият», 2008. – 152 б.
60. Курунов М., Қурбонниёзова З. Ижтимоий педагогика – Т.: РТМ, 2002. – 134 б.
61. Курунов М. Миллый тарбия. – Т.: Маънавият, 2007. – 240 б.
62. Dillon J.T. The basic questions of education. What to ask ourselves when education our young. Lewiston. – N.Y.: Edwin MellenPress. – 2010. – 292 p.
63. Education today: the OECD perspective. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) – 2013. – 128 p.
64. Poonyawatpornkul J., Wattanakasiwich P. High-speed video analysis of The Condition of education: a statistical report on the condition of American education. Washington: National Center for Education Statistics. – 2011. 382 p.
65. Jan Storø. Practical social pedagogy: Theories, Values and Tools for Working with Children and Young People. Policy Press, 2013. – 151 p.
66. Inge Bryderup, Peter Moss, Claire Cameron, Stefan Kleipoedszus, Jytte Juul Jensen, Gabriel Eichsteller, Pat Petrie, Janet Boddy, Sylvia Holthoff, Anna Kathrine Frorup, Michael Fielding, Michel VandenbroeckSocial Pedagogy and Working with Children and Young People: Where Care and Education Meet. Jessica Kingsley Publishers, 2011. – 224 p.
67. Kieron Hatton Social Pedagogy in the UK: Theory and Practice. Russel House Publishing, 2013. – 114 p.

## MUNDARIJA

### I MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.-\$. Ijtimoiy pedagogikaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy shartlari.....	4
1.2.-\$. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'l shining madaniytarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari.....	14
1.3.-\$. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.....	28
1.4.-\$. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.....	51
1.5.-\$. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.	76

### II MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA FANINING KONTSEPTUAL ASOSLARI

2.1.-\$. Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida.....	88
2.2. \$. Ijtimoiy pedagoggning kasbiy faoliyati.....	96
2.3-\$. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari.....	107
2.4. \$. Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari va mexanizmlari.....	112
2.4.-\$. Ijtimoyleshuv omillari.....	114
2.5.-\$. Me'yor va me'yordan og'ishish.....	124

### III MODUL. IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT NAZARIYASI VA AMALIYOTI

3.1.-\$. Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	128
3.2.-\$. Spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	131
3.3.-\$. Giyohvandlik – deviant xulq sifatida.....	137
3.4.-\$. Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy xatti-harakatning namoyon bo'l shakli sifatida.....	147
3.5.-\$. Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	153
3.6-\$. Mehribonlik uylarida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	157
3.7.-\$. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	173

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

**ZUHRA SALIYEVA**

**IJTIMOIY PEDAGOGIKA**  
**(o'quv qo'llanma)**

Nashriyot litsenziyası: AI № 271. 15.07.2015.

Qog'oz bichimi: 60×84 1/16.

Times New Roman garniturasida terildi.

Shartli bosma tabog'i: 12.

Buyurtma № 37 Adadi: 100 nusxa.

«Adabiyot uchqunlari» MChJ nashriyotida bosmaga tayyorlandi  
va chop etildi. Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 28-uy.